ISBN 978-83-68188-12-7

Xakberdiev A.M.

# INTERYERNI LOYIHALASH

O'quv qo'llanma

iScience

Warsaw, Poland - 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG’BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI
“INTERYER DIZAYNI” KAFEDRASI

Xakberdiev Alixuja Muratovich

# INTERYERNI LOYIHALASH

**O‘quv qo‘llanma**

**Warszawa - 2024**

*O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 29 maydagi 194-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat etilgan.*

***Taqrizchilar:***
***E.M. Muxamadiyev*** *– “Interyer dizayni” kafedrasi professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi;*
***B.K. Bobobekov*** *– Jizzax politexnika instituti, “Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi dotsenti.*

**Xakberdiev A.M.** Interyerni loyihalash [Matn]: O‘quv qo‘llanma – Warszawa: iScience Sp. z.o.o. – 2024. – 150 s.

**ISBN 978-83-68188-12-7**

© Xakberdiev A.M., 2024
© iScience Sp. z o. o.

## MUNDARIJA

**KIRISH** ............ 12
**I BOB INTERYERNI ANIQLOVCHI UMUMIY OMILLAR** ............ 13
**MA’RUZA №1. INTERYERNI TASHKIL ETISH VA SHAKLLANTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR** ............ 13
1.1. Funksiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqlik ............ 15
1.2. Interyerning ijtimoiy asoslari ............ 16
**MA’RUZA № 2. TABIAT VA SHAHARSOZLIK SHARTLARI-INTERYER SHAKLLANISHINING ASOSI. INTERYERGA INSONNING PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK TALABI** ............ 19
2.1. Interyerda tabiat ............ 21
2.2. Psixologik va fiziologik talablar ............ 22
**MA’RUZA № 3. JAMOAT BINOLARI INTERYERI** ............ 26
3.1. Ichki makonni tizim sifatida loyihalash ............ 27
3.2. Makonni tuzish yo‘llari ............ 28
**MA’RUZA № 4. ICHKI MAKONNI BO‘LAKLARGA BO‘LISH. KONSTRUKSIYANING MAKONNI TASHKILLASHTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA QO‘LLANILISHI** ............ 31
4.1. Interyerni shakllantirishda konstruksiyaning ahamiyati ............ 32
4.2. Inson harakati davomida makonni idrok qilishi ............ 37
**MA’RUZA № 5. INTERYERNI XARAKTERLOVCHI ELEMENTLAR** 39
5.1. Shakl (forma) ............ 40
5.2. Tabiiy va sun’iy materiallar. ............ 41
**II BOB INTERYERDA RANG VA YORUG‘LIK** ............ 44
**MA’RUZA № 6. RANGNING TA’SIR QILISHI** ............ 44
6.1. Uyg‘un birikmalar ............ 45
6.2. Yorug‘likning vazifalari ............ 46
**MA’RUZA №7. BIRLIKNI YARATUVCHI BADIIY VOSITALAR** ............ 49
7.1. Uslub birligi ............ 50
7.2. Obraz yaratishning badiiy vositalari ............ 50
**MA’RUZA №8. MASSHTAB BADIIY IFODA VOSITASI SIFATIDA. INTER’ERDA SAN’AT SINTEZI** ............ 52
8.1. Me’morchilikda masshtab ............ 53
8.2. Interyerda monumental san’at ............ 54
**MA’RUZA № 9. GIGIENA TALABLARI VA REKREATSIYA TIZIMI** 55
**MA’RUZA № 10. UYNI FUNKSIONAL – REJALI TASHKILLASHTIRISH** ............ 57
10.1. Interyerda iqlim sharoitini yaratish ............ 59
10.2. Ta’sir qiluvchi omillar ............ 60
**III BOB TURAR JOY BINOLARINING INTERYERI** ............ 63
**MA’RUZA № 11. XONALAR ORASIDAGI O‘ZARO BOG‘LANISH** ............ 63
11.1. Zonalashtirishning xarakterli usullari ............ 63
11.2. Xonalarning turlari ............ 64
**MA’RUZA №12. XONALARNING ELEMENTLARI** ............ 67
12.1. Funksional zonalar ............ 67

12.2. Umumiy xona, yotoqxona va bolalar xonasi ................................... 69
**MA’RUZA № 13. OSHXONA, TOZALIK TUGUNLARI VA DAHLIZ** .. 73
**MA’RUZA № 14. KVARTIRALAR INTERYERINI TASHKIL QILISHNING BA’ZI USULLARI** ............................................................. 77
14.1. Interyerning atrof muhit bilan bog‘lanishi ....................................... 78
14.2. Rang va material ........................................................................... 79
**MA’RUZA № 15. MAVZU: XONA MAKONINING O‘ZGARTIRUVCHANLIK XUSUSIYATLARI** ..................................... 82
15.1. Makonni o‘zgartirish usullari.......................................................... 83
15.2. Interyer maydoni ............................................................................ 84
**MA’RUZA № 16. INTERYERDA JIHOZLAR. JIHOZLARNING TURLARI** ............................................................................................. 85
16.1. Jihozlarning funksional belgilari ..................................................... 86
16.2. Jihozlarning arxitekturaviy-rejaviy belgilari .................................... 87
**MA’RUZA № 17. INTER’ERDA JIHOZLAR JOYLASHTIRISHNING UMUMIY PRINSIPLARI** ........................................................................ 88
17.1. Kompozitsiyaviy yaxlitlik................................................................. 89
17.2. Jihozlar seriyasi................................................................................ 89
**GLOSSARIY** ............................................................................................ 91
**ORALIQ VA YAKUNIY SAVOLLAR**...........................................................115
**MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARI** ......................................................118
**TEST SAVOLLARI** ..................................................................................119
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI** .......................................148

## ОГЛАВЛЕНИЕ

**ВВЕДЕНИЕ** ... 12
**ГЛАВА I. ОБЩИЕ ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ИНТЕРЬЕР** ... 13
**1-Лекция. Требования к организации и формированию Интерьера** ... 13
1.1. Функциональная целесообразность ... 15
1.2. Социальные основы Интерьера ... 16
**2-Лекция. Условия природы и градостроительство – основа дизайна Интерьера. Психологическая и физиологическая потребность человека в Интерьере** ... 19
2.1. Природа в Интерьере ... 21
2.2. Психологические и физиологические потребности ... 22
**3-Лекция. Интерьер общественных зданий** ... 26
3.1. Дизайн Интерьера как система ... 27
3.2. Способы структурирования пространства ... 28
**4-Лекция. Разделить внутреннее пространство на секции. Использование конструкции как средства организации пространства** ... 31
4.1. Важность строительства в дизайне Интерьера ... 32
4.2. Восприятие пространства во время движения человека ... 37
**5-Лекция. Элементы, характеризующие Интерьер** ... 39
5.1. Форма ... 40
5.2. Натуральные и искусственные материалы ... 41
**ГЛАВА II. СВЕТ И ЦВЕТ В ИНТЕРЬЕРЕ** ... 44
**6-Лекция. Эффект света** ... 44
6.1. Гармоничные соединения ... 45
6.2. Функции света ... 46
**7-Лекция. Художественные инструменты, создающие единство** ... 49
7.1. Единица стиля ... 50
7.2. Художественные средства создания образа ... 50
**8-Лекция. Масштаб как средство божественного выражения. Синтез искусства и Интерьера** ... 52
8.1. Масштаб и архитектура ... 53
8.2. Монументальное искусство в Интерьере ... 54
**9-Лекция. Гигиенические требования и система отдыха** ... 55
**10-Лекция. Функционально-плановая организация дома** ... 57
10.1. Создание климатических условий в Интерьере ... 59
10.2. Влияющие факторы ... 60
**ГЛАВА III. ИНТЕРЬЕР ЖИЛЫХ ЗДАНИЙ** ... 63
**11-Лекция. Соединение между комнатами** ... 63
11.1. Характерные способы зонирования ... 63
11.2. Типы номеров ... 64
**12-Лекция. Элементы комнат** ... 67
12.1. Функциональные зоны ... 67
12.2. Общая комната, спальня и детская комната ... 69
**13-Лекция. Сан узлы и прихожая** ... 73

**14-Лекция. Некоторые способы организации комнат Интерьера** ....... 77
14.1. Соединение Интерьера с окружающей средой ............................ 78
14.2. Свет и материал.......................................................................... 79
**15-Лекция. Характеристики изменения площади помещения** ............ 82
15.1. Способы изменит пространство.................................................. 83
15.2. Внутреннее пространство ........................................................... 84
**16-Лекция. Оборудование в Интерьере. Виды оборудования** .............. 85
16.1. Функциональные характеристики устройств.............................. 86
16.2. Архитектурно-планировочные признаки оборудования............. 87
**17-Лекция. Общие принципы размещения оборудования в Интерьере**.......................................................................................... 88
17.1. Композиционная целостность...................................................... 89
17.2. Серия оборудования.................................................................... 89
**ГЛОССАРИЙ**............................................................................................ 91
**ПРОМЕЖУТОЧНЫЕ И ЗАКЛЮЧИТЕЛНЫЕ ВОПРОСЫ** ...................115
**САМОСТОЯТЕЛНЫЕ ОБУЧАЮЩИЕ ЗАДАЧИ** ...................................118
**ТЕСТЫ**......................................................................................................119
**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**...................................148

## TABLE OF CONTENTS


**INTRODUCTION** ........ 12
**CHAPTER I. GENERAL FACTORS DETERMINING THE INTERIOR** ........ 13
**1-lecture. Requirements for organizing and shaping the interior** ........ 13
1.1. Functional feasibility ........ 15
1.2. Social foundations of the interior ........ 16
**2-Lecture. Natural conditions and urban planning are the basis of interior design. Psychological and physiological human needs for interior design** . 19
2.1. Nature in the interior ........ 21
2.2. Psychological and physiological needs ........ 22
**3-Lecture. Interior of public buildings** ........ 26
3.1. Interior design as a system ........ 27
3.2. Ways to structure space ........ 28
**4-Lecture. Divide the interior space into sections. Using structure as a means of organizing space** ........ 31
4.1. The importance of construction in interior design ........ 32
4.2. Perception of space during human movement ........ 37
**5-Lecture. Elements that characterize the interior** ........ 39
5.1. Form ........ 40
5.2. Natural and artificial materials ........ 41
**CHAPTER II. COLOR AND LIGHT IN THE INTERIOR** ........ 44
**6-Lecture. Color effect** ........ 44
6.1. Harmonious connections ........ 45
6.2. Functions of light ........ 46
**7-Lecture. Artistic Tools That Create Unity** ........ 49
7.1. Style unit ........ 50
7.2. Artistic means of creating an image ........ 50
**8-Lecture. Scale as a means of divine expression. Synthesis of art and interior** ........ 52
8.1. Scale and architecture ........ 53
8.2. Monumental art in the interior ........ 54
**9-Lecture. Hygienic requirements and rest system** ........ 55
**10-Lecture. Functional planning organization of the house** ........ 57
10.1. Creating climatic conditions in the interior ........ 59
10.2. Influencing factors ........ 60
**CHAPTER III. INTERIOR OF RESIDENTIAL BUILDINGS** ........ 63
**11-Lecture. Connection between rooms** ........ 63
11.1. Typical zoning methods ........ 63
11.2. Room types ........ 64
**12-Lecture. Room elements** ........ 67
12.1. Functional areas ........ 67
12.2. Living room, bedroom and children's room ........ 69
**13-Lecture. Bathroom and hallway** ........ 73
**14-Lecture. Some ways to organize interior rooms** ........ 77
14.1. Connecting the interior with the environment ........ 78

14.2. Color and material ........ 79
**15-Lecture. Characteristics of changes in room area** ........ 82
15.1. Ways to change the space ........ 83
15.2. Inner space ........ 84
**16-Lecture. Equipment in the interior. Types of equipment** ........ 85
16.1. Functional characteristics of devices ........ 86
16.2. Architectural and planning features of equipment ........ 87
**17-Lecture. General principles for placing equipment in the interior** ........ 88
17.1. Compositional integrity ........ 89
17.2. Equipment series ........ 89
**GLOSSARY** ........ 91
**INTERMEDIATE AND FINAL QUESTIONS** ........ 115
**INDEPENDENT LEARNING OBJECTIVES** ........ 118
**TESTS** ........ 119
**REFERENCES** ........ 148

# ANNOTATSIYA

Mazkur qo‘llanma 60210400 – “Dizayn” (interyer) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun yaratilgan bo‘lib, “Interyerni loyihalash” kursi bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturi asosida yozilgan. O‘quv qo‘llanmada Interyerni aniqlovchi umumiy omillar. Interyerni tashkil etish va shakllantirishda quyiladigan talablar ko‘rsatilgan.

Dizayner faoliyatining keng doirasini turli sohalarga (arxitektura, ranglar fizikasi, kompozitsiya, dizayn va boshqalar) ta’sir qiladigan asoslarning mohiyati, fazo va jism, dizayn turlari va uslublarini o‘rganish, o‘qitish, uning bugungi kundagi hayotimiz farovonligini oshirish va uni go‘zallashtirishdagi rolini qanchalik ahamiyatliligini tushuntirish uchun talabalarga bu soha to‘g‘risida saboq berish ta’lim tizimining dolzarb vazifasi ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Qo‘llanma materiallari chet el xorijiy adabiyotlari ma’lumotlaridan foydalangan holda keltirilgan. Qo‘llanmada Interyer dizayni haqida keltirilgan ma’lumotlar dizayn talabalarini bu sohadagi bilim va ko‘nikmalarini shakllanishida yordam beradi.

## АННОТАЦИЯ

Данное пособие создано для студентов направления 60210400 – «Дизайн» (интерьер) образования на основе учебного плана по курсу «Дизайн интерьера». Указаны требования к организации и формированию интерьера.

Изучение и преподавание сущности основ, пространства, видов и стилей дизайна, которые затрагивают широкий спектр деятельности дизайнера в различных областях (архитектура, физика света, композиция, дизайн и т.д.), улучшение благосостояния нашей сегодняшней жизни и ее воплощение.

Чтобы объяснить важность их роли в благоустройстве, перед системой образования стоит насущная задача – обучить студентов этой области.

Материалы пособия представлены с использованием информации из зарубежной литературы. Информация о дизайне интерьера, представленная в пособии, поможет студентам-дизайнерам развит свои знания и навыки в этой области.

## ANNOTATION

This manual was created for students of the direction 60210400 - "Design" (interior) education based on the curriculum for the course "Interior Design". The requirements for the organization and formation of the interior are indicated.

Studying and teaching the essence of the fundamentals, space, types and styles of design, which affect a wide range of designer activities in various fields (architecture, color physics, composition, design, etc.), improving the well-being of our lives today and its implementation.

To explain the importance of their role in beautification, the education system has an urgent task to train students in this field.

The manual materials are presented using information from foreign literature.

The information on interior design presented in the manual will help design students develop their knowledge and skills in this field.

# KIRISH

«Interyerni loyihalash» fani mutaxassis uchun kasbning asosiy yo‘nalish fanlaridan biri bo‘lib, mutaxasisning professional sifatida shakllanishida yetakchi rol o‘ynaydi.

«Interyerni loyihalash» nomli qo‘llanmaning maqsadi talabani dizayner mutaxassis sifatida Interyer loyihasida duch keladigan muammolarni yechishni o‘rganishga qaratilgan, hajmli – fazoviy qurilmalar, Interyerda obraz tushunchasi, masshtablik, mutanosiblik kabi badiiy elementlar va dekorni Interyerda qo‘llay bilish hamda zamonaviy materiallar, rang, koloristika faktura kabilarni Interyerda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini oshirishdan iborat.

Jamiyatimizning turmush tarzida «Interyer»ga asosiy estetik mezon sifatida e’tibor beriladi va bugungi kunda bu sohani tushunadigan mutaxassislarga ham talab oshib bormoqda. Arxitektura va dizayn insonning yashashi va faoliyati uchun zarur bo‘lgan hamda unga hayotiy muhitni yaratib, berish bilan birga insonning nafosatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun ham xizmat qiladi. Keng tizimda tashkillashtirilgan makondan boshlab me’morchilik yordamida yaratilgan badiiy obrazlar insonning hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.

Moddiy muhitni yaratishda binoning ichki makonini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Interyerni loyihalash fani dizayn yo‘nalishining ixtisoslik fanlari qatoriga kirib, davlat standarti talablaridan kelib chiqqan holda talabalarning Interyer dizayni ixtisosligiga kirishishida asosiy fandir. Interyerni loyihalash fani talabalarni mutaxassis bo‘lib yetishishida ularni me’moriy kompozitsiya, konstruksiya, badiiylik, estetik funksionallik, jihozlar olami kabilarning uyg‘unlikda, kompozitsion mukammallikda yechilishini o‘rgatadi. O‘quv jarayonida talabalar Interyerni loyihalash jarayonida funksionallik, obrazlilik, go‘zallik kabi asosiy talablarga amal qilish va ularni jahonning zamonaviy estetik qarashlari va taraqqiyotiga mos namunalar asosida shakllantiriladi.

# I BOB
# INTERYERNI ANIQLOVCHI UMUMIY OMILLAR

## MA’RUZA №1

## INTERYERNI TASHKIL ETISH VA SHAKLLANTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

*Ma’ruza rejasi:*

Kirish.

**1. Funksiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqlik.**

Ob’ektni ijtimoiy mazmuni.

Turarjoy va jamoat binolari tipologiyasi.

Binoning ichki makoniga quyiladigan asosiy talablar.

**2. Interyerning ijtimoiy asoslari.**

Ijtimoiy talablar va turarjoy hamda binolarining rivojlanishi.

Kompozitsiyaviy usullarning o‘zaro ijtimoiy bog‘liqligi.

Tarixiy davrlar va me’moriy kompozitsiya prinsiplari (tarzlari)

Ijtimoiy mazmun va kompozitsiyaning badiiy prinsiplari.

Ichki makonni tashkillashtirish prinsiplari.

### TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Interyer - ichki makon muhiti.
2. Funksiya-binoning ichida bajariladigan vazifa.
3. Moddiy makon-hayotiy jarayonlarni o‘tkazish uchun chegaralangan makon.
4. Nafosat-Interyerda noziq did bilan ishlatilgan san’at va badiiy elementlar.
5. Binolar tipologiyasi-aniq ijtimoiy jarayonlarni o‘tkazish uchun optimal sharoitni yaratishga mo‘ljallangan bino turlari.
6. Ijtimoiy mazmun – jamoat va turarjoy binolarining ichki makonini jamiyat rivojlanishi talablari asosida shakllanishi.
7. Kompozitsion usullarning ijtimoiyligi - har bir tarixiy davrning fazoviy tuzilish tartiblari va o‘zining yetakchi me’moriy prinsipi.

### O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Interyerning mazmuni nimadan iborat?
2. Binolar tipologiyasining mohiyati.
3. Funksiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqlik qanday amalga oshiriladi?
4. Funksiya nima?
5. Ijtimoiy mazmunni qanday tushunasiz?

6. Ijtimoiy talablarning shakllanishi?
7. Tarixiy davrlar va kompozitsion usullar.
8. Ijtimoiy mazmun va kompozitsion usullarning bog‘liqligining ko‘rinishlari?

**Kirish**. Bino va inshootlarning umumiy kompozitsiyasiga Interyerning ahamiyati.

Arxitektura yashash uchun kerak bo‘lgan eng qulay hayotiy muhitni yaratib berish bilan birga insonning nafosatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun ham xizmat qiladi.

Keng tizimda tashkillashtirilgan makondan boshlab me’morchilik yordamida yaratiladigan badiiy obrazlar insonning hayotga bo‘lgan munosabatini shakllanishiga xizmat qiladi.

Texnik taraqqiyot, madaniyat va turmush sohasidagi o‘zgarishlar inson va jamiyatning yangi ehtiyojlarini paydo bo‘lishiga olib keladi va shu bilan birga bir qator moddiy muhitni tashkillashtiruvchi me’morchilikka xam uzluksiz talablar oshib boradi.

Moddiy muhitni yaratishda binoning ichki makonini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Me’moriy inshootlarda kechadigan hayotiy jarayonlar muayyan obrazdan tashqari tashkillashtirilgan ichki makon va u bilan bog‘langan predmet muhitisiz to‘liq rivojlana olmaydi. Interyerning ichki makonini yaratishda funksional va estetik vazifalar amalga oshiriladi.

Interyer so‘zi fransuz tilidan kelib chiqib, *«ichkari»* degan ma’noni bildiradi.

Interyer moddiy makon bo‘lib turgan holda umumiy prinsiplar bilan birga me’morchilik tarmoqlariga to‘g‘ri keladigan farqlarga ham ega.

Qanday farqlarga ega?

Turarjoy binolari Interyeri oilada kechadigan turmush jarayoni uchun makon muhitini yaratadi, jamoat binolari Interyerida insonlarning jamoat ishlari bajariladi, ishlab chiqarish binolari Interyeri insonlarning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyatini bajarish uchun makon muhitini tashkil etadi.

To‘laqonli me’moriy inshootni yaratishda, xoh turar joy bo‘lsin, jamoat yoki ishlab chiqarish binosi bo‘lsin, Interyerning yechimi, ichki makon muhitini yaratuvchi, sifatida, butun binoning funksional va me’moriy-kompozitsiya yechimidan kelib chiqishi zarur.

Binoni me’moriy loyihalashni, butun inshootning umumiy g‘oyaviy mazmuniga ta’sir qiluvchi uning Interyerining yechimidan ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun me’moriy muhitni yaratish ichki makon muhitini tashkillashtiruvchi Interyerda faol namoyon bo‘ladi.

Shu sababli Interyerni yaratish binoning tuzilishidan, funksional va hajmiy-fazoviy kompozitsiyasidan kelib chiqadi. Misol uchun: turar joy binolarining Interyeri kvartira rejasining tuzilishi va uning katta kichikligiga

bog‘liq. Shu bilan birga kvartira rejasining o‘zi turar joy binosi turiga qarab aniqlanadi.

Interyer inshootning har tomonlama kompozitsiyasini, binolarini loyihalashda ko‘proq mukammal ifodalanadi. Bunda hajmiy-fazoviy yechim, funksiya, konstruksiya Interyerning fazoviy tuzilishini oldindan aniqlab beradi. Shu bilan bir qatorda ichki fazoning kompozitsion g‘oyasi binoning umumiy kompozitsiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

**FUNKSIYA NUQTAI NAZARDAN MAQSADGA MUVOFIQLIK.** Turli binolarning Interyeri yechimida funksiya bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos farqlovchi xususiyatlari mavjud.

Turar joyda oila hayotining o‘tishi maktabda yosh avlodni shakllantirish, teatr va madaniyat saroylarida dam olish va madaniy ishlarni to‘plash va nihoyat ishlab chiqarish binolarida mehnat faoliyatini bajaradigan joylarni tashkil qilish, har safar o‘zgacha fazoni yaratishni talab qiladi. Yuqorida aytilganlar avvalambor binoda bajariladigan vazifaga muvofiq o‘tadigan ish jarayonlariga to‘g‘ri keladigan ravishda quriladi.

U yoki bu jarayonni o‘tkazishni ta’minlovchi ichki fazo va u yerda qulaylikni yaratib berish, jamiyatning iktisodiy va moddiy-texnik bazasining rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Misol uchun, turar joy binolarini jihozlash, turar joy maydoni, moddiy texnika bazasining imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib turgan holda kvartira va unda kechadigan hayot tarzini o‘zgartiradi.

Ichki fazo va uni shakllantiruvchi amaliy talablar ob’ektning ijtimoiy mazmuni bilan uzluksiz bog‘liq. Shuning uchun antik turar joy bilan o‘rta asrlardagi qasr, chet ellardagi sinfiy mohiyatiga ega bo‘lgan turar joy binolari bilan bizdagi ommaviy turar joylar bir-biridan prinsipial farq qiladi. Shunday qilib, turar joy binolarining xarakterini belgilovchi amaliy talablar bir vaqtning o‘ziga kim uchun yaratilgan bo‘lsa, o‘shalarning ijtimoiy mohiyati va turmush tarzini aks ettiradi.

Ichki fazo va uning Interyerida amaliy talablar bilan uzluksiz birgalikda estetik va ma’naviy ehtiyojlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

G‘orlarning devorlaridagi rasmlar, o‘zining aniq tashkil qilingan makonida, noziq did bilan shakllantirilgan turar joy binolari, o‘rta asrlar qasrining jiddiy hashamatliligi shuni ko‘rsatadiki, inson har doim nafosatni va o‘zini o‘rab turgan har narsani e’zozlab kelgan.

Ichki makonni tashkillashtirish uchun avvalambor topshiriqni, u yoki bu jarayonni bajarish uchun kerak bo‘lgan hamma talablarni, harakat grafiklari va alohida xonalar guruhining o‘zaro aloqalarini o‘rganish va hokazolarni o‘rganish zarur.

Hozirgi zamon me’morchiligi shunchalik qiyinlashdiki, shunchalik differensiallashdiki, natijada binolar tipologiyasi degan ilmiy fan vujudga keldi. Ushbu fan alohida turdagi binolarni to‘liq o‘rganib chiqib aniq ijtimoiy

jarayonlarni o‘tkazish uchun optimal sharoitni yaratib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Xonalarning o‘zaro aloqasi, jihozlar muammolari va uni joylashtirish, zarur bo‘lgan makonning o‘lchamini va formalari, yorug‘lik, akustika – bu ilmiy talablarning hammasi har bir turdagi turar joy binolari, jamoat binolari va alohida xonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki makonni tashkillashtirishda asosiy talablardan biri xonalarning funksiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligidir. Ichki fazoning muammolari loyihalash jarayonida birin-ketin savollar yechimini berish bilan amalga oshiriladi.

1. Zarur bo‘lgan makonni va xonalarning asosiy parametrlarini aniqlash. Shu maqsadda binoda o‘tkaziladigan jarayonning har bir qismini har tomonlama o‘rganish, jihozlarni tanlash va uni makonda joylashtirish.

2. Jarayonni o‘tkazish uchun optimal sharoitni yaratish. Buning uchun issiqlik va namlik rejimi talablarini amalga oshirish, yorug‘lik, akustika, psixologik, kayfiyatni yaxshilash talablariga javob berish va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish.

3. Xonalar va xonalar guruhining o‘zaro aloqalarining sxemalarini yechish. Buning uchun odamlarning makonda harakat grafiklarini va hamma aloqalarini o‘rganish va zarur bo‘lgan kommunikatsiyalarini aniqlash.

4. Xonalarning makonda joylashish tizimining mumkin bo‘lgan variantlarini aniqlash. Tanlangan joylashish tizimi funksiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqlik talablari va estetik talablarni qondirishi lozim. Xonalarning topilgan parametrlari va xonalarning kompozitsiyasini tanlash va kompozitsion usullarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Ushbu asos bir xil jarayonni uning mohiyatini o‘zgartirmagan har xil kombinatsiyalarni tashkil qilishga imkoniyat yaratib beradi. Bir bino uchun har xil hajmiy-fazoviy strukturalarni yaratish ijodiy jarayon xususiyati natijasidir.

**INTERYERNING IJTIMOIY ASOSLARI.** Ob’ektning vazifasidan kelib chiqqan holda, turar joy va jamoat binolari uchun qo‘yiladigan talablar har doim bir xilda turmaydi. Ob’ektning ijtimoiy mazmunining o‘zgarishiga qarab tarix davomida yangi o‘zgarishlar kiritilib, to‘ldirib borilgan.

O‘zining qadimiy kelib chiqish tarixiga ega bo‘lgan teatr misolida texnologik va sahna o‘zgarishlari bilan bir qatorda ijtimoiy ehtiyojlarning, Interyerning ichki makonini tashkil qiluvchi muhim qismlarni aniqlashga olib kelishini ko‘ramiz. Teatr rivojlanishi tarixida uning makonini shakllanishi, parametrlari va umumiy ko‘rinishlari o‘zgarib kelgan. Bu o‘zgarishlar asosida spektaklning xarakterini aniqlab beruvchi, spektakl mazmunidan (geroik, hayotiy, sirli) kelib chiqadigan talablar yotadi. Shu talablarga asosan zalning tuzilishi, uning jamiyatda tutgan o‘rni aniqlanib, shu orqali uning

hajmi, o‘lchami va tuzilishi aniqlanadi. Yuqorida keltirilgan dastlabki shartlar zalning fazoviy tuzilishi prinsiplari va uning Interyerini aniqlab beradi.

Geroik tragediyalarni qo‘yadigan qadimgi grek «gomer» teatrlari juda ko‘p odamga mo‘ljallangan. Shunga ko‘ra zal tuzilishi ichki majburiy talabga javob berishi kerak.

Birinchisi - juda ko‘p tomoshabinni joylashtirish (30 minggacha), ikkinchisi imkoniyat boricha ularga teatr harakatlarini yaqinlashtirish. Tomoshabinlari orkestr atrofida joylashtirilgan klassik grek teatri ana shunday yaratilgan edi. Tog‘ yon bag‘rida joylashgan ulug‘vor peyzajga yo‘naltirilgan katta amfiteatr juda ulkan tomosha manbaini tashkil etadi. Ellinistik davrda Gresiyadagi sinfiy bo‘linishlar teatrni zodagonlar uchun san’at manbaiga aylantiradi. Amfiteatrning o‘lchami ancha qisqardi. Teatr harakatlari orkestrdan sahnaga o‘tkazildi. Sahnaga yaqin joylashtirilgan kreslolar senatorlarga mo‘ljallandi. Shunday qilib, ijtimoiy buyurtma asosida teatr me’morchiligi jiddiy o‘zgardi.

XIX asrda portal, sahnali, klassik yarusli teatrning qiyofasi shakllandi. Yarusning tuzilishi, porter, shohning Ko‘shki (lojasi), alohida joylashgan foye, har bir sinfiy guruh uchun alohida kirish joylari - bularning hammasi teatrning sinfiy tuzilishini tavsiflaydi. XX asrda rivojlangan kapitalizm davrida teatrga qo‘yiladigan talablar o‘zgardi. Bular bino rentabelligini ta’minlash va ko‘proq tomoshabinlarni sig‘dirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda ssenadagi xarakterlarni zaldan yaxshi ko‘rishni tashkil qilish muammolari, teatr binosining yangi tuzilishlari - zal tuzilishida chuqur ichki balkonlarni ishlatishni vujudga keltirdi. Ammo bu usul hamma vaqt ham ko‘rish talablariga javob bermagani uchun keyinchalik rivojlantirilmaydi.

Hozirgi vaqtda zalning amfiteatrli tuzilishlari yo‘nalishi ko‘proq amalga oshirilmokda. Bu yo‘nalishda amfiteatr va zalning ichki fazosi birgalikda yechiladi. Tuladagi Teatr Avanssena bilan zal tuzilishining yechimi va uning Interyeri rejisserlik ish rejalarini va sahnali harakatlarni amalga oshirishda keng sharoit yaratib beradi.

**Kompozitsion usullarning ijtimoiy o‘zaro bog‘liqligi**

Har bir tarixiy davr o‘zining fazoviy tuzilish tartiblarini va o‘zining fazoviy tuzilish tartiblarini va o‘zining yetakchi me’moriy prinsiplarini yaratadi.

Jamiyatning moddiy va ma’naviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan makon o‘z navbatida ma’lum bir yo‘nalishdagi hayotiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishiga imkon yaratadi.

**Ijtimoiy mazmun** jamoat binolarining ichki makonining eng xarakterli tomonlarini shakllantirishda hamma vaqt aniqlovchi bo‘lib, kompozitsiyaning badiiy yo‘nalishlarining asosi bo‘lib kelgan.

Ye**gipet xramlari** yopiq hovlilar-zallar tizimi asosida tashkillashtirilgan bo‘lib, bo‘ylama simmetrik kompozitsiyani ifodalaydi. Makonning birin-ketin yopilish prinsipi bo‘ylama kompozitsiyaning, o‘zining umumiy xususiyatlaridan mustahkam saqlanish, jamiyatning shafqatsiz ierarxik talablariga javob beradi.

**Klassik yuksalish** davrida greklar o‘z xramlarini kolonnalar bilan o‘rab olib peripterlar qurishgan. Shunday qilib, ular ochiq tabiatga qaratilgan prinsipial yangi demokratik jamiyat makonini yaratishgan.

**Grek davlatining** demokratiyasi jamoat binolarining chegaralashning talab qilmagan. Grek me’morchiligidagi fazoning ochiq yechilishi, erkinlik xushmanzaralik, progressiv demokratik prinsiplardan hisoblanadi.

**Renessans** arxitekturasiga jamoat binolari uchun ham, xramlar uchun ham, turar joy binolari uchun ham markazlashgan yadroni tashkillashtiruvchi sifatida turg‘un fazoni yaratish xarakterlidir.

Bu yo‘l zich qilib qurilgan shaharlarda jamoat binolari uchun yangi makonlarni tashkil qilishdan kelib chiqadi. Buni hovlili turar joy binolarini tuzilish prinsiplari asosida kattaroq masshtabda va kattaroq maydonda yaratiladi.

**Klassitsizm** arxitekturasida ichki makonni muntazam yechish xarakterlidir. Bo‘ylama frontal va markazga qarab rivojlangan kompozitsiyalarda aynan shu formal sifatlar ta’kidlangan edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, fan va texnikaning umumiy ravnaqi jamiyat taraqqiyoti, davlatlararo va ichki aloqalarning paydo bo‘lishi, yangi har xil murakkab hayotiy ehtiyojlarga qoniqtiruvchi javob beradigan yangi turdagi binolar paydo bo‘ladi. Keng ko‘lamdagi iktisodiy o‘zgarishlar talabiga javob beradigan katta xalqaro ko‘rgazma zallari, temir yo‘l vokzallari, yopiq bozorlar kabi inshootlar paydo bo‘ladi.

Katta prolyotli konstruksiyalar, temir-beton oblochkalari va skladkalari hamda fazoviy konstruksiyalari yaratishga ehtiyoj tug‘iladi. Yangi texnik imkoniyatlar erkin, TAYANCHsiz ichki fazoni ochish imkoniyatini berdi. Birlikda yechilgan makon va erkin reja–bu XX asrning ichki makonini tashkil qilishning yangi prinsiplari bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy jamiyatimizdan ichki makon tuzilishining prinsiplari quyidagilardan iborat.

5. Zaruriyat tug‘ilgan holdagi makonni chegaralash.
6. Butun uzluksiz makonni tashkil qilish.
7. Bir xonani ikkinchi xona bilan gorizontal bo‘yicha birinchi qavat sathida va vertikal yo‘nalishda har xil sathlarda ham erkin bog‘lash.

## ADABIYOTLAR:

1. Rannev B.R. Interyer. Moskva. Vыsshaya shkola 1987.
2. Lisitsian M.V., Novыkova Ye.B, Petunina Z.V. Interyer obщestvennыx jilыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat 1973.
3. Ponomareva Ye. S. Interyer i oborudovanie grajdanskix zdaniy. Minsk «Vыsshaya shkola» 1976.

## MA'RUZA № 2

## TABIAT VA SHAHARSOZLIK SHARTLARI-INTERYER SHAKLLANISHINING ASOSI. INTERYERGA INSONNING PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK TALABI

*Ma'ruza rejasi:*

Tabiat.
**1. Interyerda tabiat.**
Shaharsozlik shartlari.
**2. Interyerga insonning psixologik va fiziologik talabi.**
Atrofni qabul qilish.
Dam olish uchun kontrast muhitni yaratish.
Rag'batlantiruvchi muhitni yaratish.
Me'morchilik emotsiya manbai sifatida.

## TAYANCH SO'ZLARI:

1. **Iqlim sharoiti**-ob-havoning tabiatdagi o'zgarishi.
2. **Sun'iy mikroklimat**-ichki makonda qulay sharoit yaratish.
3. **Tabiat elementlari -** suv, o'simlik, tabiiy materiallar (ishlov berilmagan).
4. **Shaharning fazoviy tuzilishi -** shahar makoni bilan alohida binolar o'rtasidagi aloqani shakllanishi.
5. **Qabul qilish -** hissiy aks formasi, tashqi va ichki dunyoning ko'rinishlarini qabul qilish, ajratib o'zlashtirish va obrazga keltirish.
6. **Analiz -** hamma sifatlarni farqini ajratib ko'rib chiqish.
7. **Sintez -** hamma sifatlarni yig'ib mukammal obrazga keltirish.
8. **Tonus -** odam organizmining bardamlik holati.
9. **Tetiklantiruvchi qo'zg'ovchilar**-arxitekturaning kuchli yorqin obrazlari**,** sovuq va issiq ranglar, sovuq materiallar, fakturalar va hokazolar.
10. **Emotsiya -** insonda bilib olishga talab hosil bo'lganda paydo bo'ladigan tuyg'u.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Interyerda optimal hayotiy sharoit yo‘llari qanday amalga oshiriladi?
2. Interyerda tabiat elementlarining ishlatilishi.
3. Interyerni tashqi tabiat, me’moriy elementlar bilan bog‘lash usuli qanday amalga oshiriladi?
4. Shaharsozlik sharoitlarining ichki makonni shahar makoni bilan bog‘lashga ta’siri?
5. Qabul qilish hissining tarkibi nimalardan iborat?
6. Analiz nima?
7. Sintez nima?
8. Kontrast muhit nima?
9. Qanday xollarda kontrast muhit yaratiladi va u qanday amalga oshiriladi?
10. Tonus nima?
11. Tonusni arxitektura yordamida ko‘tarish yo‘llari.
12. Ijobiy emotsiya nima va u qaysi sharoitlarda paydo bo‘ladi?
13. Me’moriy asarning yaratilishidagi qarama-qarshiliklar nimalardan iborat?

**Tabiat.** Inson o‘ziga optimal hayotiy sharoit yaratish uchun tabiatning ma’lum bir qismini o‘z ehtiyojiga moslab oladi. Iqlim va tabiiy sharoitlarning, landshaftning hamda shaharsozlik shartlarining ichki makonning ba’zi bir qismlariga ta’siri optimal yechimlarga olib keladi.

Bu narsa ayniqsa ob-havo keskin farq qilishidan (janub, shimol), atrofidagi landshaftning yaqqolligi va ma’noligida shaharsozlik g‘oyalarida alohida qismlarni umumiy birlikda bo‘ysunish prinsiplari kiritilganda yaqqol ko‘zga ko‘rinadi.

Iqlim ba’zi bir hollarda Interyerni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa chetki Shimolda va Janubda ushbu klimatik rayonlarda tabiiy muhit qulay sharoitlardan ancha farq qiladi. Shuning uchun optimal hayotiy sharoitning yaratib berishni sun’iy mikroklimat yo‘li bilan amalga oshirish mumkin.

Chetki Shimolda bir umrlik muzliklar rayonida turar joy komplekslarini imkoniyat boricha ixcham etish talab qilinadi. Jamoat binolarini turar joylarga yaqinlashtirish, ularni bitta hajmda bir yopma tagida yoki odamlarni $50^0$-$60^0$ sovuqda tashqariga chiqarmasdan ularni galereya bilan bog‘lash zarur.

Bu talablar natijasida bir nechta vazifalar paydo bo‘ladi.

1. Gorizontal va vertikal yo‘nalishlardan yig‘ilgan katta fazoni tashkil qilish.
2. Ichki makon bilan tashqi dunyoni bog‘lash (yarim yil davomida

shimoliy tunlar). Ichki makonni sun'iy yorug'likda to'la bo'lgan Shimoliy shaharga qaratilgan holda yechimini berish.

3. Interyerda sun'iy landshaftni tashkil qilish (tabiat burchaklarini tashkil qilish).

4. Interyerda sun'iy yo'l bilan sutkali yorug'lik ritmining o'sishini yaratish (boshqarib bo'ladigan yorug'lik ustanovkalari sonlik polyarnыy tunlar uchun va boshqarib bo'ladigan yorug'likni o'tkazgichlar polyarniklar kunlar uchun).

Janub iqlim sharoiti ham o'zining talablariga ega.

1. Radiatsiya va quyosh nurlarini muhofaza qilish.
2. Shamollatish ehtiyoji.

Quyosh nurlaridan va radiatsiyalardan muhofaza qilish uchun jalyuzalar, muhofaza panjaralari ishlab chiqilgan. Ular Interyerning ichki ko'rinishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Janubda makonni tashkillashtirishda an'anaviy usul ichki hovli hisoblanadi. Ichki hovli atrofida xonalar va xonalar guruxlari joylashtiriladi. Ichki hovli xonalari shamollatishga quyosh nurlaridan saqlanishga yordam beradi. Sun'iy yo'l bilan shamollatish usullari xam mavjud (shamollatish, havoni almashtirish). Bularning  xammasi Interyerni shakllantirishga ta'sir etadi.

**INTERYERDA TABIAT.** Insonning tabiatga yaqinlashishi, uning atrofdagi tirik mavjudot bilan xar tomonlama aloqalari, qulay sharoitni yaratib beradi.

Zamonaviy me'morchilikka ichki makonni tashqi, tevarak bilan qo'shib yuborishga intilish va ularni tashqi makonning bir bo'lagi deb qarash xarakterlidir. Bu narsa ichki makonni katta oynaviy yuzalar bilan devorlarni tashkillashtirish va tabiiy materiallar hamda ko'kalamzorlashtirish yordamida yechiladi. Tabiiy manzara elementlarini bino Interyerida ishlatish uning ifodaliligini ko'rsatuvchi  kuchli imkoniyatlaridan biri hisoblanadi.

Lekin Interyerning tabiat bilan aloqa nisbati uning vazifasiga to'g'ri kelishi kerak. Masalan, oshxonalar, xollar, vestibyullar, sanatoriyalar, dam olish uylari, turistik bazalarni imkoniyat boricha tabiatga ochish kerak. Shu binolarning yotoqxonalarida sirlilikni saqlash va kerak bo'lganda uni tabiatga ochish imkoniyatlarini ochish zarur.

Ichki makonni tabiat bilan bog'lashni ikkita usuli mavjud.

1. Ichki makon tabiatni qisman qamrab oladi, bular gullar, daraxtlar, suv, ishlov berilmagan tabiiy materiallar. Kompozitsiyaga ichki hovlilarni ham qo'shishi mumkin, ya'ni Interyerda tabiat.

2. Ichki makon o'zining ba'zi qismlari bilan rivojlangan parametri, murakkab hajmi va keng ochilishi bilan tashqi dunyoga u bilan bir butunlikni tashkil qilish uchun chiqqanday bo'ladi. Xonalar ichidagi tabiat elementlari bular – gazonlar, alohida ajratilgan joylarda guldonlar, o'simliklarni

guldonlarda guruhlarga bo‘lib qo‘yish, devordagi manzarali ko‘katlar, kustarniklar va boshqalar.

Ishlov berilmagan va yarim ishlov berilgan materiallar bilan tirik o‘simliklar bilan yaxshi kelishadi.

Interyerda tabiatning yana bir elementlaridan biri suv. Issiq iqlim sharoitida uning ahamiyati katta. Yoyiq chuqur bo‘lmagan, tagi mozaikali yoki tabiiy toshdan terilgan suv havzalari, katta bo‘lmagan fontanlarning shildirashi – bularning hammasi bino Interyeriga kiritilishi mumkin bo‘lgan formalardir. Ikkinchi kompozitsiyaviy usul – Interyerning tashqi tabiat bilan bog‘lanib ketishi quyidagilarni talab qiladi: Ichki makonning keng ochilishi va uning tashqi muhit bilan qo‘shilib ketishi. Bu katta vitrajlar, polgacha tushadigan lentasimon oynalar va hokazolar yordamida amalga oshiriladi.

Bino oldidagi ayvonchalarni Interyerning tabiatga chiqishi deb hisoblash mumkin. (Polning bir xil sathi, podokonnikning yo‘qligi, ichki makonning konfiguratsiyasi va ayvonlar tashqi va ichki makonlarning birligi ta’minlaydi). Naveslar va kozeryoklar ichki makon yopilmasining tashqariga chiquvchi tabiiy davomchisi hisoblanadi. Umumiy yopilma, umumiy usul va sun’iy yorug‘lik zarur bo‘lgan birlikni tashkil etadi.

Tabiat elementlarini Interyerga kiritish tabiiy va sun’iy yorug‘liklar tizimi issiqlik ventilyatsiyasi va bezaklash materiallari bilan bog‘liq. Shuning uchun u elementlar binoning yoki xonaning ichki makoni va kompozitsiyasining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

**Shaharsozlik sharoitlari.** Shaharning fazoviy tuzilishini aniqlovchi bo‘lgan shaharsozlik sharoitlari, shahar makoni bilan alohida binolar o‘rtasidagi aloqani shakllantiradi va shundagina u ichki makonni yaratuvchi asoslardan biri bo‘ladi. Quyidagi jamoat binosining uch xil joylashuvi misolida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

1. Uzaygan katta masofaga ega bo‘lgan jamoat markazi – turar joy kompleksi tutashgan ko‘cha.
2. Ko‘l bo‘yida joylashgan shahar va suvga yonlama qaratilgan markaz kompozitsiyasi.
3. Qishloqning geometrik markazida joylashgan jamoat markazi.

Jamoat markazining uch xil joylashgan urni uning kompozitsion prinsipini va ichki makon yechimini aniqlab beradi.

**INTERYERGA INSONNING PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK TALABI.** Ichki makon yashash, ish, dam olish joyi bilan bir vaqtda inson ruhiga ta’sir qiluvchi muhit hamdir. Bu muhit inson ongida aks etishi natijasida uning ma’naviy dunyosining shakllanishida faol qatnashadi. Ichki makon aniq berilgan sharoitda inson ongida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan tasavvuri va tuyg‘usiga mos tushadigan holda yaratilishi o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun me'mor atrof-muhitning insonga xar tomonlama psixologik va fiziologik to'g'risidagi bilimlarni bilishi zarur. Bu narsa inson tuyg'ularini va kayfiyatini boshqarish, uning jismoniy holatiga ijobiy ta'sir qilish va ishlash qobiliyatini oshirish imkoniyatini yaratishga yordam beradi.

Psixologik markazi savollaridan biri atrof-muhitning va me'morchilikning insonga ta'sirini ochib beradigan va uning psixikasiga ta'sir qiluvchi masala qabul qilish hissi hisoblanadi.

Qabul qilish. Zamonaviy psixologiya qabul qilish jarayonini sub'ekt amaliy faoliyatining oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, uning sabablari va maqsadini xis qilish. Bu degani atrof-muhitning inson psixikasiga ta'sirini aniq jarayon sharoiti belgilangan vazifani bajarish muhiti sharoitini hisobga olgan holda ko'rib chiqish zarur.

Atrofni qabul qilish ikkita katta elementdan iborat:

Analiz – xamma sifatlarni farqini ajratib ko'rib chiqish.

Sintez – xamma sifatlarni yig'ib mukammal obrazga keltirish.

Miyaning analitik ish qobiliyati, farqni o'zlashtirayotganda butun diqqat e'tiborni va energiyani sarflashni talab qiladi. Shuning uchun forma, material, kattaligi rang, faktura va ularning bir-biriga nisbati aniq va ravshan tavsifga ega bo'lishi kerak. Interyerda ortiqcha sifatlar – ranglar, materiallar, xar xil formalar farq qilishda kerak bo'lmagan va qiyinchilik tug'diradigan ishga olib keladi. Bu narsa nerv energiyasini saqlash uchun imkoniyat boricha kamaytirilishi lozim.

**Sintez** – har xil sifatlarni yig'ib mukammal obraz yaratish. Bu yerda qilish murakkab hislar assotsiatsiyasi majmuasiga asoslanadi.

Shuning uchun badiiy obrazni yaratishda zaruriyat va yetarli degan talablardan kelib chiqish zarur. Xarakteristikalarni tanlash – makon, forma, faktura, rang, materiallar shunchalik o'ylangan bo'lishi kerakki, yaratilayotgan obraz eng kam vositalar orqali to'la va ravshan tavsiyaga ega bo'lsin.

Sintezda miyaning vaqt davomida ishlashini hisobga olish zarur. Miya xar bir aniq momentda qandaydir bitta hodisa kategoriyasini qabul qiladi, o'rganadi. Bu nerv sistemasining xususiyati Interyerni ishlab chiqish, birlik tushunchasi va me'moriy asarning mukammalligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

Ichki makonni inson tomonidan qabul qilish muhitning sifatiga qarab har xil kechadi.

1) Kuzatuvchi bir-biriga bog'liq bo'lmagan yangidan-yangi taassurotlarni ketma-ket oladi. Bu Interyer bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan mukammallashgan har xil obrazlardan iborat bo'ladi (bunday Interyer inkor qilinadi).

Ikkinchi holda agar xamma elementlar va detallar birinma-ketin bitta mavzuni ifodalash uchun buysundirilsa va bir g'oya bilan bog'langan bo'lsa,

u holda Interyer vaqt davomida bir butunlay qabul qilinadi. Vaqt davomida alohida inson miyasida ketma-ket qabul qilingan xarakteristikalarning birlashib ketishi natijasida bir butun ravshan mukammal obrazga yig‘iladi. Bu hol badiiy obrazni yaratish sharti bo‘lib, mohiyati jixatidan me’morchilikning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Dam olish uchun kontrast muhitni yaratish.** Aqliy faoliyatni charchashini yo‘qotish va ish qobiliyatini tiklash muammolari inson organizmini sog‘lomlashtirishda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Charchashga qarshi kurash yaxshi natija beradigan vositalardan biri taassurotlarni o‘zgartirib turish hisoblanadi. Bu narsa ko‘proq jamoat binolari me’morchiligida amalga oshiriladi.

Aqliy toliqish xar xil sabablarga ko‘ra bo‘lishi mumkin. Bu toliqishni keltirib chiqaradigan ishning xarakterini bilish zarur.

1) Bir xil impulsda ishlaydigan ishlab chiqarishdagi taassurotlarni kun va yil davomida o‘zgartirib turish zarur.

2) Aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilardagi toliqish nerv energiyasini boshqa tomonga qaratishni talab qiladi.

Birinchi va ikkinchi hollar dam olish uchun kontrast sharoitlarni yaratish talab qiladi.

Shuning uchun bino ichidagi dam olish sharoiti insonlarga har xil xarakterli ko‘p yangi taassurotlarni berishi kerak.

Kontrast dam olish sharoitini yaratishda odamlarning yoshiga qarab xususiyatlari va mijozlarini hisobga olish kerak.

Tomosha, sport, o‘quv binolarida yuqoridagi talablarni hisobga olib bo‘lmaydi. Sanatoriya, dam olish uylari, madaniyat uylarida shaxsiy ishlarini hisobga olish kerak.

Tomosha binolarida ichkarida o‘tkaziladigan jarayonning o‘zi ahamiyatga ega. Bu yerda Interyer odamlarni sahnadagi harakatga va uni ma’lum darajada qiziqtirishga tayyorlashi kerak (Me’moriy lakonizmni yaratish, yuqori kolorit, ko‘tarinkilik kabilarni yaratish kerakki, toki tomoshabin spektaklni xayajon bilan kutsin, muzeylarni qiziqish bilan tomosha qilsin va hokazolar).

Xonalarda – xollarda, mexmonxonalarda, kurortlarning restoranlarida va kutish zallarida kutilmagan qiziqishni tashkil qilish zarur. Ba’zi hollarda kundalik hayotimizda yetishmaydigan «Romantika» ko‘proq restoranlar, xalq qovoqxonalarida, choyxonalarda romantik sharoitlarni yaratish bilan odamlarni kundalik tashvishlardan va bir xillikdan (turg‘unlikdan) boshqa tomonga jalb qilmoq mumkin.

**Rag‘batlantiruvchi muhitni yaratish.** I.P. Pavlov tomonidan xar qanday faoliyat uchun odam organizmi bardam bo‘lishi kerakligi yoki faoliyati uchun aniq bir tonus zarurligi aniqlangan.

Toliqishning kuchayib borishi holatida ushbu tonusni keraklicha yuqori darajada saqlash kerak. Bu narsa maxsus tetiklantiruvchi qo‘zg‘ovchilar yordamida bajariladi. Shunday ta’sir qiluvchilardan biri arxitektura hisoblanadi. Arxitektura o‘ziga xos vosita bilan kayfiyatni yaxshilashi va tonusni ko‘tarishi mumkin. Bu funksiya ko‘proq jamoat binolarida amalga oshirilishi mumkin va ikki yo‘nalishda shakllantiriladi.

1. Arxitekturaning kontrast muhitni yaratishda inson psixikasiga kuchli va yorqin obrazlar orqali ta’siri Reymsdagi totik soborning Interyeri misol bo‘ladi.

2. Elementar qo‘zg‘atuvchilar ta’siri.

Bunga yorug‘likning o‘zgarib turishini misol qilsa bo‘ladi. Bu holat yorug‘lik ravshanligini ko‘chaytirish va yangi yorug‘lik manbalarini kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Buni tabiatdagi o‘zgarishlar bilan solishtirish mumkin. Quyosh nurlarining shu’lasi, bulutlar va daraxtlar harakati biologik rag‘batlantiruvchi bo‘lishi mumkin. Sovuq qo‘zg‘atuvchilar xam tetiklantiruvchi bo‘lishi mumkin. Bunga bezak material sifatida foydalaniladigan marmar va granitlar kiradi. Bular sovuq yeyish hissini tasavvur qildiradi.

Rang, forma, faktura kabi elementlar orqali xam tetiklashtirish mumkin. Bularga sovuq va issiq ranglar, qiziqarli formalar, silliq bo‘lmagan fakturalar va boshqalar kiradi.

Arxitekturaning tonusni ko‘tarishdagi imkoniyatlari ko‘p. Lekin bu masala hali oxirigacha yechilmagan. Shu boisdan bu muammo keyinchalik o‘rganilishi kerak.

**Me’morchilik emotsiya manbai sifatida.** Jamoat binolarining ichki makonni me’morchiligi o‘zining yorqin obrazlari bilan inson psixikasining u yoki bu qirralariga ta’sir kilgan holda murakkab estetik vazifalarni xam yechadi. Arxitektura odamning emotsional doirasiga ta’sir etadi, roxat keltiradi, ijobiy emotsiya paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ikki xil sharoitda ijobiy emotsiya paydo bo‘lishi mumkin.

1. Emotsiya bilib olishga talab hosil bo‘lganda paydo bo‘ladi. Bu qoniqtirishga san’at va shu bilan birga arxitektura xam xizmat qiladi.

2. Emotsiya paydo bo‘lishi uchun estetik talablarni qondirish oldinda zarur bo‘lgan informatsiya haqiqatda bor san’at asari beradigan informatsiyadan kamroq bo‘lishi mumkin.

Me’moriy asardagi nafosat bir kancha qarama-qarshiliklarni yengish orqali tushuniladi.

1) Misol uchun, tasodifiy funksional jarayonlarni me’mor makonni tashkillashtirish qonuniyatlarini buysundirishga harakat qiladi.

2) Ichki makonni bilan birgalikda uni ochib ko‘rsatishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. U yoki bu yo‘l bilan ochilgan makon yordamida yopiqlik qarama-qarshiliklari yechiladi.

3) Konstruksiyaning og‘irligi, uning mustaxkamligiga ishonchsizlik, materiallarning ishlashini ochib beradigan badiiy obrazlar yordamida yo‘qotiladi.

4) Ba’zi inshootlarning ulkan makonlari va inson orasidagi kontrast, odam bilan o‘zaro masshtab nisbatini yaratishga olib keladi.

Shunday qilib, binolarni loyihalashni va ichki makonni tashkillashtirishni Interyerga aniqlik kirituvchi umumiy asoslarini o‘rganishdan boshlash kerak. Aynan talablar majmuasi asosida ichki makonni tashkil qilish prinsiplari ularning ijtimoiy bog‘liqligi va optimal funksional o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi.

## ADABIYOTLAR:


1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.B. , Petunina Z.V, Interyer obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973.
2. Zaporojes A.V. «Vospriyatie i deystvie». M. 1967.
3. Aronin J. E. Klimat i Arxitektura. M. 1959.


## MA’RUZA № 3

## JAMOAT BINOLARI INTERYERI

**1. Ichki makonni tizim sifatida loyihalash.**
**2. Makonni tuzish yo‘llari va prinsiplari.**
Ravnaq makon tuzilishining asosiy prinsipi sifatida.
Ichkariga rivojlanadigan makon.
Konsentrik rivojlanadigan makon.
Makonning erkin tuzilishi.
Murakkab makon.

## TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Interyerda tizim – hamma bog‘lanishlarning jami va uni aniqlovchilarning mantiqan tuzilishi.

2. Shaharsozlik talablari – shaharning fazoviy tuzilishini aniqlashga yo‘naltiruvchi shartlar.

3. Makonning birligi va rivojlanish – makonning alohida qismlarining o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlari va makonning tashqi muhit bilan umumiy bog‘lanishlari hisoblanadi.

4. Prinsip – makonning alohida qismlarini bir tizimga yig‘ish.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ichki makon tizimi nima?
2. Ichkariga rivojlanadigan makonning yo‘nalishi?
3. Bo‘ylama rivojlanish nima?
4. Konsentrik rivojlanadigan makonning ko‘rinishlari.
5. Makonning erkin tuzilishi.
6. Murakkab makon.

Jamoat binolari ularda har xil hayotiy jarayonlarni o‘tkazish maqsadida yaratiladi. Bunga ta’lim va tarbiya, jamoatga xizmat qilish, madaniyat, sport, dam olish va boshqalar kiradi. Bu ijtimoiy va biologik jarayonlar ularni tashkillashtirish uchun kerakli bo‘lgan sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

U yoki bu jarayonni muvaffaqiyatli o‘tkazish, hamda psixikani shakllantirishda bosh zveno hisoblangan inson kayfiyati ko‘p jixatdan sun’iy muhitni qanday yaratilganligiga bog‘liq.

Jamoat binolarining ichki makonini tashkillashtirish juda murakkab hisoblanadi. U umuman arxitektura singari o‘zaro bog‘lanishlarning tizimi sifatida insonning ko‘p tarmoqli jamoat va shaxsiy ehtiyojlarini, jamiyatning g‘oya va estetik qarashlarini, shaharsozlik va tabiiy sharoitlarini va moddiy – texnikaviy imkoniyatlarni aks ettiradi.

Insonning atrofni qabul qilishi va baholashday murakkab jarayonida asosiy joyni makon xarakteristikasi keyin devorlarning materiali va formasi, rang xarakteristikasi, yorug‘lik, jihozlar egallaydi. Tashqi fazodan chegaralangan ichki makon – binoni yaratish uchun asosiy hisoblanadi. Shuning uchun makon, uning o‘lchamlari va tuzilish prinsiplari Interyerni shakllantirishda eng muhim va mas’ul bo‘g‘in (zveno) hisoblanadi.

## ICHKI MAKONNI TIZIM SIFATIDA LOYIHALASH

Jamoat binolarining Interyerni yaratish o‘zining mohiyatida ichki makonni shakllantirish bilan uning o‘lchamlarini, formasini, qismlarining nisbatini, bo‘linishlarning xarakterini, ochilish prinsiplaridan boshlanadi.

Makon qulaylik, komfort va kayfiyatni yaratishda hal qiluvchi bo‘lib, insonda erkinlik va cheklanganlik, osoyishtalik va tanglik, xushvaqtlik va tushkunlik xislarini paydo qiladi. Interyerni shakllantirishda tizim yo‘li kerak. Interyerga tizim sifatida qarash kerak. Bu tizim xamma bog‘lanishlarning jami va uni aniqlovchilarining mantiqan tuzilishiga bog‘liq.

Shularning ichidan makonni shakllantirishda xal qiluvchi talablar qo‘yidagilar. Birinchidan ob’ektning vazifasi va ijtimoiy burchi bilan bog‘liq bo‘lgan talablar majmuasi, bu talablar ichki makonni tashkillashtirish mohiyatini aniqlab beradi.

Ikkinchidan hajmiy-fazoviy tuzilishning umumiy prinsiplarini aniqlab beruvchi shaharsozlik talablari hisoblanadi.

1) Ba’zi bir inshootlar guruhining tarixiy rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki, utilitar funksiya talablari, ijtimoiy mazmun va shaharsozlik xamma xam bir-biriga to‘g‘ri kelavermaydi. Masalan, tekis shift va ikki kiyali tom siginuvchilarni joylashtirishdagi amaliy talablardan kelib chiqadi. Keyinchalik xramlarni boshqa binolar orasidan ajratib ko‘rsatishga to‘g‘ri keladi. Ichki makon va tashqi hajm orasidagi birlikni buzgan shater paydo bo‘ldi. Keyinchalik bu nomunosiblik boshqa xramlarda to‘g‘rilanib ichki makon va tashqi hajmning yechimi g‘oyaviy mazmunga javob bergan holda bir-biriga to‘g‘ri keldi.

Yegipet xramida funksional talablar bilan ob’ekt mazmuni kelishmasligi aniq ko‘rinadi.

2) Shahar miqyosidagi va keng g‘oyaviy mazmunli binolarni shaharsozlik talablariga ko‘ra alohida urg‘u berilib, ajratib ko‘rsatiladi. Misol uchun, Flarensiya soborining gumbazi, me’moriy obidalardagi gumbazlar, arklar, minoralar, Chorsu-bozorlaridagi gumbazlar majmuasi va hokazolar. Yangi binolardan hokimiyat binosi va mustaqillik maydoni atrofidagi binolar kiradi.

Ichki makonni me’moriy tizim sifatida yechish, ichki bog‘lanishlarni shakllantirishda, ichki makon elementlarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda va funksiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqlik talablariga javob berish bilan bog‘liq.

Bu vazifani yechish makon tuzilishining prinsiplarini va yo‘llarini bilishni talab qiladi. Bu keyinchalik berilgan tasavvurga to‘g‘ri keladigan makon tuzilishining shakllanishi uchun zarur.

## MAKONNI TUZISH YO‘LLARI VA PRINSIPLARI

### *1. Rivojlanish makon tuzilishining asosiy prinsipi sifatida.*

Ichki makonning eng umumiy kerak bo‘lgan prinsiplarini, kiritilishi zarur bo‘lgan tartiblar, uni umumiy makonning bir bo‘lagi deb qarashni, dunyo rivojlanishining ob’ektiv qonunlari va tabiat qonunlaridan axtarish kerak.

Umumiy makon elementlaridan bittasi bu inson tomonidan hayotiy zarur bo‘lgan muhitni tashkil qilgan makon bo‘lishi kerak deb tasavvur qilish juda muhim. Shuning uchun ichki makonning birligi va ketma-ket rivojlanishining sharti deb shu makonning alohida qismlarining o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlari va makonning tashqi muhit bilan umumiy bog‘lanishlari hisoblanadi.

Bundan chiqadiki, makonning alohida qismlarini bir tizimga yig‘uvchi prinsiplar mavjud bo‘lishi kerak. Bular o‘q bo‘yicha yig‘ilib ichkariga qarab rivojlantirilgan makon, yonlama o‘q bo‘yicha makon, shu front davomida uzayib rivojlangan makon. Markaziy yadro atrofida yig‘ilib

rivojlangan makon, ham gorizontal va ham vertikal yo‘nalishlarda rivojlantirilgan murakkab makon, geometriya, jarayon mohiyati va atrofdagi tabiat bilan bog‘lanib rivojlangan erkin makonlar hisoblanadi. Fazoning uch o‘lchovi bilan bog‘lanib tizimga tartib kiritadigan bu prinsiplar Interyerning fazoviy asoslari hisoblanadi. Tashqi va ichki tizimlar birga qo‘shilganligi sababli umumiy prinsiplar tashqi va ichki bog‘lanishlarni shakllantiradi.

***2. Ichkariga rivojlanadigan makon***

Ichkariga rivojlangan makon o‘zining ko‘lami, o‘q yo‘nalishi bo‘yicha tuzilishi, asosiy o‘q yo‘nalishida ko‘rsatib berilishi, ichkariga qarab bo‘ylama tuzilishni ta’kidlovchi tuzilishlar, xarakterli formani ta’kidlovchi konstruksiya bilan tavsiflanadi.

Teatr va kinoteatrda makon g‘oyasini tashkillashtirish tomoshabinlarning sahna yoki ekranda bo‘layotgan xarakterlarni ko‘ra bilishini ta’minlashdan iborat. Eng ko‘p qo‘llaniladigan sxemalarda teatrning xamma elementlari va asosiy xonalari (vestibyul, foye, zal, sahna) – o‘q yo‘nalishida tuziladi. Makon ichkariga qarab ketma-ket rivojlanib ekran yoki sahna bilan yakunlanadi.

Bu holda, makonning ichkariga qarab tuzilish yo‘li jarayonni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan funksional talablar va alohida xonalar orasidagi bog‘lanishlar bilan ta’minlanadi.

Zamonaviy yo‘nalishlarning ma’lum darajada erkinlikka, ochiqlikka intilishini nazarda tutib, ichkariga rivojlangan makonning bir yo‘nalishda rivojlanishi, tuzilishda qat’iy ramkalarni o‘rnatishi bu usuldan keng ko‘lamda foydalanmaslikka olib keladi.

U yoki bu jarayon uchun foydalanish zaruriyati tug‘ilganda bu usul o‘zgartiriladi va o‘ziga xoslikni, erkinlikka ega bo‘ladi.

Ba’zida Interyerda bo‘ylama makon shaharsozlik muloxazalaridan kelib chiqadi. Misol uchun, ansambl kompozitsiyasining bir qismi sifatida bo‘ylama o‘q bilan ta’kidlab tugatilgan hajmni yaratishga to‘g‘ri keladi (A. Navoi nomli opera va balet teatri).

Bo‘ylama kompozitsiya bir nechta katta xonalarni bir joyga to‘plash natijasida paydo bo‘lishi mumkin. Bu holda asosiy o‘q ko‘pgina boshqa xonalar tuzilishini shakllantiruvchi hisoblanadi. (Festival zali Tokioda).

***3. Bo‘ylama rivojlanadigan makon***

Bo‘ylama tuzilgan makonni keng ko‘lamda tashqi muhitga qaratilgan, atrof bilan bog‘langan makon sifatida tavsif qilish mumkin.

Hozirgi kunda jamoat binolarinig ichki makonini bo‘ylama tuzilishida amaliyotda har xil variantlarni ko‘rish mumkin.

1) Maydonga qaratilgan, odamni qabul qiluvchi va unga qaratilgan makon. Bu usul magazinlarga, avtovokzal va hokazolarga xos.

2) Ichki makon binoga kirish, shovqinli ko‘cha yoki maydon tomonidan yopiq bo‘lib ichkaridan chiroyli ko‘rinishlarga qaratilgan.

Bu usul sanatoriylarga, dam olish uylariga, ko‘rgazma zallariga va hokazolarga xos.

3) Makonning cho‘ziqligi bilan aniqlanadigan bo‘ylama tuzilish ikkala tomonga ham birday ochiladi. Bu usul ko‘rgazma binolariga, restoranlarga, yopiq stadionlarga, park ichidagi binolarga xos. Binoning butun ko‘lam bo‘yicha ochiqligi uning tashqi makon bilan maksimal bog‘lashga imkoniyat yaratadi.

***4. Konsentrik rivojlanadigan makon***

Asosiy yadro atrofida tuzilgan konsentrik makon boshqaruvchi prinsip sifatida zamonaviy me’morchilikda keng qo‘llaniladi. Bu yerda ikki yo‘nalishni kuzatish mumkin. Birinchisi – yopiq, tashqi dunyodan chegaralangan makon; ikkinchisi – perimetri bo‘yicha keng ochilgan makon. Bu chekkadan markazga qarab va markazdan chetga qarab rivojlangan makon. Yopiq makonga o‘tiradigan joylari, sport maydoniga, arenaga qaratilgan stadionlar va sirklar kiradi.

Bundan tashqari xollning, tomosha zalining, ichki hovlining markaziy makonlari o‘zining atrofida boshqa xonalarni tashkil qiluvchi kompozitsiyaning boshlovchisi va asosiy elementi bo‘lishi mumkin.

Konsentrik ochiq va tashqi muhit bilan makon markazdan chetga qarab rivojlangan va tashqi makon bilan bog‘langan murakkab tizimdan iborat. Bu usul ichki va tashqi makonning organik bog‘lanishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

***5. Makonning erkin tuzilishi***

Erkin makon tuzilishi va rivojlanishi asosida berkitilgan va aniqlanmagan, lekin ba’zida o‘ta noziq, o‘ta muhim bog‘lanishlar kiritilgan. Makon tuzilishida ma’lum darajadagi erkinlik, oldindan berilgan parametrlarning qat’iy geometrik formalari bilan bog‘langan.

Erkin tuzilgan makon hamma uslublarni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘qlik tuzilishi qat’iy simmetriyaga o‘zgarishlar kiritish bilan yumshatiladi. (Berlindagi filarmoniya zali, Sidney teatri) bo‘ylama kompozitsiyalarga erkin joylashtirilgan alohida elementlar kiritiladi. (Vilnyusdagi ko‘rgazmalar zali). Konsentrik rivojlanish makon tashqi makon bilan har xil bog‘lovchilar yordamida atrof-muhitga organik qo‘shilib ketadi.

Erkin makonga va erkin kompozitsiyaga har nuqtadan tavsif berish mumkin.

1) Asosiy harakatlar yo‘nalishida binoning ichki funksional bog‘lanishlariga asoslangan holda ataylab yaratilgan erkinlik, asosiy xonalarning joylashuvidagi erkinlik.

2) Ichki jarayon va qabul qilish talablariga asoslangan formalar, chegaralangan konstruksiyalarning asosiylariga nisbatan joylashuvidagi mustaqillik va erkinlik.

3) Tabiatning xushmanzaraligiga asoslangan erkinlik.

Bu uchala yo‘nalish erkin makonni yaratuvchilardan hisoblanadi. Ba’zi hollarda uchala yo‘nalish bitta ob’ektda qatnashadi.

***6. Murakkab makon***

Ichkariga bo‘ylama va bir joyga jamlanib rivojlanadigan makonlarni uzilishning boshlang‘ich elementlari deb hisoblash mumkin. Ba’zi ob’ektlarda u yoki bu asosiy prinsip boshqa usullar bilan qo‘shiladi. Bu yerda murakkablik ikki bir necha prinsiplarning yig‘indisi bilan ifoda etilib, ulardan biri, asosiy aniqlovchi, qolganlari yordamchi hisoblanadi. Misol uchun, Kalugadagi Siolkovskiy muzeyi.

Kompozitsiyaning asosi yaxlit makonning bo‘ylama o‘q yo‘nalishi bo‘yicha cho‘zilgan hajmga joylashishdan iborat. Birlik va yaxlitlik bir necha usullarning - hamma hajmlar uchun umumiy potolok, yorug‘lik sistemasi, qavatlararo yopilmalarning teshiklari, zalning bor balandligiga ishlangan mozaikali panno bilan ta’kidlangan. Boshqa tomondan bu asosiy makonga muzeyni ko‘rib chiqish bilan bog‘langan vertikal bo‘yicha rivojlangan murakkab tizimli makon qarama-qarshi qo‘yilgan. Bu usul kompozitsiyani murakkablashtiradi, hamda bir vaqtning o‘zida uni boyitadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Lisitsian M.V., Novikova Ye. B., Petunina Z.V. Interyer obщestvennыx i jilыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Ponomareva Ye.S. Interyer i oborudovanie grajdanskix zdaniy. Minsk. «Vыsshaya shkola». 1976 g.
3. Rannev V.R. Interyer. Moskva. Vыsshaya shkola. 1987 g.
4. Arxitektura proektirovanie obщestvennыx zdaniy. Moskva. 1995 g.
5. Pojarskoy A.E. Interyer obщestvennыx zdaniy. Pod. red. Gosstroyizdat. 1963 g.

## MA’RUZA № 4

## ICHKI MAKONNI BO‘LAKLARGA BO‘LISH. KONSTRUKSIYANING MAKONNI TASHKILLASHTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA QO‘LLANILISHI

***Ma’ruza rejasi.***

**1. Interyerni shakllantirishda konstruksiyaning ahamiyati**

Yaxlit, erkin va ajratilgan makonlarning birikish usullari.

Ichki makonning bo‘linish usullari.

Makonning mutloq o‘lchovlari va kompozitsiyaviy usul.

**2. Inson harakati davomida makonni idrok qilishi.**

## TAYANCH SO'ZLAR:

1. Yaxlit makon – bitta katta hajmda yechilgan umumiy makon.
2. Alohida yacheykali makon – mayda hajmli xonalar.
3. Nisbiy bo'linish – insonning taqqoslab baholay olishi mumkin bo'lgan elementlar va insonning o'zi bilan tavsiflanishi mumkin.
4. Ritm – bir-biriga mos tushgan tartibda qo'yilgan bir xil elementlar, ustunlar qatori yordamida amalga oshiruvchi tuzilish.
5. Absolyut o'lcham (mutloq o'lcham) – faqat ma'lum chegaralardagi o'lchovlarda bo'ladigan o'zgartirishlar.
6. Makonni idrok qilish – makonni idrok qilish kirishdagi taassurot, harakat davomidagi va oxirgi mo'ljalga yetgandagi holatlarda akslanadi.
7. Harakat oqimi – odamlarning asosiy jarayon kechadigan xonalarga qarab yo'nalishi.
8. Konstruksiya – bino qismlarining tarkibi va o'zaro joylanishi.
9. Tektonika – bino qismlarining tarkibi va o'zaro joylashishida badiiy mukammallikka erishishi va binoning ichki ko'rinishida badiiy qatnashishi.
10. Element – binoning tarkibiy qismi, komponent.

## O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Yaxlit, erkin va ajratilgan makonlarni birikish usullari?
2. Ichki makonning bo'linish usullari?
3. Makonning mutloq o'lchovlari bilan kompozitsiyalarning o'zgarishidagi bog'liqliklar?
4. Insonning Interyerdagi harakati davomida makonni idrok qilish holatlarini aniqlang?
5. Konstruksiyaning funksiyasi nimadan iborat?
6. Interyerni shakllantirishda konstruksiyaning ahamiyati?
7. Makon tuzilishida konstruksiyani tanlash va yo'nalishini aniqlang?

## INTERYERNI SHAKLLANTIRISHDA KONSTRUKSIYANING AHAMIYATI

1) Konstruksiya devor hisoblanadi. Konstruksiya ichki makonni tashqidan ayirib olib unga kerak bo'lgan izolyatsiyani yaratadi.

2) Konstruksiya yordamida ichki makonni ochish masalasi yechiladi. Konstruksiya bergan kattalikdagi o'rinlarni ochish, butunlay oynavand devorlar o'rnatishgacha, bo'lgan imkonni beradi.

3) Konstruksiya ichki makonni alohida turuvchi ustunlar yoki devorlar kabi elementlar yordamida bo'lib chiqadi. Konstruksiya inter'erning obrazini talqin qilishda, yaratishda bemalol qatnashadi. Shuning uchun

konstruksiyani me’morchilikning organik qismi sifatida va tektonik qism sifatida tanlash va tushunib yechish juda muhim masala hisoblanadi.

Tektonik tizim-bu badiiy formada binoning konstruktiv turg‘un tizimi.

Konstruksiyani tanlash va uni keyin ishlab chiqish avvalambor me’moriy vazifani quyilishi bilan aniqlanadi.

Konstruksiyani tanlashning inter’erning talablaridan kelib chiqadigan ikki katta prinsipial shartini ajratish mumkin.

1. Binodan foydalanish ustunlarni qo‘yib chiqishga imkoni beradi. (shunda, konstruksiyalarni yengillashtiruvchi va makonni bo‘lib tashlovchi ustunlar qo‘yiladi)

2. Ustunlarni qo‘yish mumkin bo‘lmagan (tomosha zallari, sport arenasi) yoki xonalar o‘lchovini kichikligi uchun maqsadga muvofiq emas.

Konstruksiv tizimning bu prinsipial shartlari makon tuzilishini va konstruksiyani shakllantirishni ikki farq qiluvchi yo‘nalishini paydo bo‘lishiga olib keladi.

1. Xonalar balandligining chegaralanishi, katta prolyotli konstruksiyalarni qo‘llashga imkon bermaydi. Bu holda ustunlar inter’erni muhim elementlari bo‘lib qoladi. Yopilmalarni ushlab turuvchi ustunlar bilan bo‘lingan makon har xil tuyg‘ularni sababchisi bo‘lishi mumkin. Bular-erkinlik yoki qisilganlik, og‘irlik va yengillik, sokinlik-ziddiyatliklardan iborat, o‘zingiz bilganingizdek turg‘un balkali konstruksiyalarni asosiy elementlardan biri ustunlar hisoblanadi. Ko‘p asrlar davomida ustunlar har tomonlama ishlanib, kanonik shakllarga keltirilib har bir davrda o‘zining tugallangan orderli munosabatiga ega bo‘lgan.

Zamonaviy me’morchilik, texnika rivojining o‘sishi bilan katta prolyotli konstruksiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu o‘z navbatida har xil temir beton ustunlarni yaratishiga olib keldi (Samarkanddagi temir yo‘l va avtovokzallar, Chandigarxdagi assambleya binosi, Turin ko‘rgazmasi va hok.).

Konstruksiyaning shakllanishiga yuk ko‘taruvchi va ko‘tarmaydigan qismlarning uyg‘un nisbati kolonna ustuni va ustida turgan balkalar, hamda elementlarga ishlov berish xarakterlari o‘ta muhim hisoblanadi.

Inter’er makonini tashkillashtiruvchi ustunlarni konstruktiv tizimda joylashish usullari bir vaqtning o‘zida inter’er makonini tashkillashtiruvchi ham bo‘lib, har xil bo‘ladi.

Bu kolonnali bo‘ylama joylashtirish hovlini yoki zalni kolonnalar bilan o‘rash, ustunlar qatori bilan ko‘chaytirilgan ichkariga rivojlangan kompozitsiyalar.

Ikkinchi yo‘nalish bu ichki makonni butun, bo‘linmagan holda saqlashga imkon beruvchi perimetr bo‘ylab qo‘yilgan ustunlardan iborat konstruksiya.

Bu konstruksiyalar ichki makonning formasini aniqlashi va berilgan formaga kiritilishi mumkin. Bu yo‘nalish ikki holdagi holat. Birinchisi-yuk ko‘taruvchi konstruksiya optimal qilib yaratilgan bo‘lib, o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan ichki makon formasini va xonaning qirqimdagi ko‘rinishini aniqlaydi. Rimdagi katta sport arenasini kupoli misol bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi holatda makonning gabaretlari berilgan bo‘lib, konstruksiya bu talabga moslandi. Bu berilgan ko‘rinishga qarab tanlanadi. Bir xil balandliklarda tekis tuzilmalar ramalardan foydalanildi; murakkabrok ko‘rinishlarda osiluvchi potoloklar ishlatiladi. Bu holda me’mor ichki makonning gabaretlarini, yuzalarining tavsiflarini va hokazolarini aniqlaydi. Birinchi holda zarur bo‘lgan makonni yopuvchi optimal konstruksiyani yaratish uni klassik ishlab chiqarish alohida qismlarning yaxlitga mos tushishi. Makonni masshtabga muvofiq bo‘laklarga bo‘lish, konstruksiyaning to‘g‘ri mohiyatini ochish, maqsadiga xizmat qilishi talablariga javob beradi.

Shu vaqtgacha biz yuk ko‘taruvchi konstruksiyaning inter’erda ochiq, g‘oyalar va nuqtai nazarlarni amalda badiiy tadbiq qilish holatlarini ko‘rib chiqdik.

Yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarning ko‘rinmas holatini va ichki makon formasini devor konstruksiyasi yaratganda ham me’mor yechishi kerak bo‘lgan muammolar paydo bo‘ladi. Bu konstruksiyaning tavsifi bilan bog‘liq-og‘irlik, statik ishi, materialning kuchlanganligi mustahkamli zaxirasi. Inter’erning mantiqan yaratilishiga oid ikki qonuniyatlarni. Birinchisi predmetning og‘irligini idrok qilishning makondagi holati bilan bog‘lash.

Bu yoki u moddiy element qancha baland ko‘tarilgan bo‘lsa idrok qilishda u shunchalik og‘irday tuyuladi. Inson uning og‘irligini ma’lum bir balandlikda o‘tkir idrok qiladi va shu element yerda yotganda uni sezmaydi. Bu qonuniyatli hodisa ko‘p ming yilliklar davomida me’morchilikda hisobga olinib kelgan.

Asosiy vazifa yuqorida yotgan elementlarni ko‘zga yengil qilib ko‘rsatishdan iborat. Masalan, ship o‘zining yuqorida joylashtirilishi sababli og‘irroq ko‘rinadi.

Misol uchun, klassitsizm davridan binolarda ship frizlaridagi rospislar, kessonlangan (bezak uchun ishlangan kvadrat yoki ko‘p burchakli chuqur naqsh gumbazlarida, devorlarda shipga ishlatiladi), shiplar. (rimliklarning gumbazlarda, devorlarda shipga ishlatiladi), zamonaviy binolarda ship va devorlar orasidagi perimetr bo‘ylab qo‘yilgan yorug‘liklar, yengillashtirish vazifasini bajaradi. Shipning yengil osma choyshabga o‘xshab ko‘rinishi, qorong‘u shipda yonib turgan, chiroyli joylashtirilgan yorug‘lik nuqtalarining yulduzli osmonni tasvirlashi ham shipni yengillashtirishga intilishni ko‘rsatadi.

Ikkinchi qonuniyat makonning geometrik o‘lchovlari va konstruksiyalari og‘irligini idrok qilish bilan bog‘liq.

Konstruksiyaning hamma o‘lchovlarini uch o‘lchovda proporsional kattalashtirish, konstruksiya materialidagi ichki zuriqishni ko‘chaytirib chiziqli o‘lchamlarini proporsional oshiradi. Shuning uchun katta zallarda ship va devorlarni yengillashtirish masalasi qo‘yiladi. Shunday usullardan biri sun’iy yaratilgan yordamchi yorug‘liklar. Ular uning og‘irligini yo‘qotib ko‘rsatadi.

Ifodali obraz yaratish talabalariga javob bergan holda konstruksiya inter’erni aniqlab beruvchi bo‘lishi mumkin.

Bu holda konstruksiya obrazni yaratish muammolariga ko‘ra shakllanadi va uning plastik ishlashi inter’erni aniqlaydi.

Misol uchun, Tokiodagi ko‘rsatma zali, olimpiada suv stadioni.

Bu misollar zamonaviy arxitekturaning chegaralanmagan imkoniyatlaridan darak beradi.

Jamoat binolari har tomonlama ko‘p qirrali va ularga qo‘yiladigan alohida talablarga qaramasdan ichki makonni tuzilishi uchun bir xil metodikani yaratishga imkon beruvchi umumiy mohiyatga ega.

Har xil vazifalarga javob beradigan yaxlit erkin makon bilan alohida yacheykali makonlarning birikish usullarining klassifikatsiyasi mavjud.

Yaxlit erkin makon alohida yacheykali makonlarning joylashishiga bog‘liq.

Yaxlit va alohida makonlarning birikish yo‘llari.

A) Bu ikki turdagi xonalarni har xil hajmlarda joylashtirish. Bu yo‘l alohida xonalarning ko‘psonligi va ularning ma’lum darajada umumiy makondan alohida mustaqil ishlashi mumkin bo‘lganda maqsadga muvofiq bo‘ladi.

B) Ikkala kategoriyadagi xonalarning qavatlarda joylashishi. Bunday yechim serxasham asosiy qavatning keng ma’noda ifodaliligini ko‘rsatish zarurligidan yoki ajratilgan uchastka sathining kichikligidan paydo bo‘ladi.

V) Mayda alohida xonalarni bosh umumiy makon atrofida uning bir, ikki, uch, to‘rt yorug‘lik tomonidan foydalanib joylashtirish. Asosiy makonning katta-kichik balandligiga qarab ikki – uch va ko‘proq qavatda yechilishi mumkin.

G) Alohida hajmning erkin qo‘yilishi yoki xammasini bitta binoning yaxlit, katta ochiq maydonga yig‘uvchi hajmlar guruxi.

Tanlangan yaxlit ochiq makonning alohida ajratilgan xonalar bilan mantiqan ketma-ket tugallangan usuli Interyerning aniq va qonuniyatli tuzilishini yuzaga keltiradi.

Qabul qilingan fazoviy tizim, makon tuzilishi uchun asosiy deb qabul qilingan – o‘qli, bo‘ylama, yig‘ilgan, erkin yoki murakkab birlashgan prinsiplar bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

**Ichki makonning bo'linish usullari.** Ichki makonda o'tkaziladigan jarayon va uning badiiy ko'rinishi yaxlit makon va uning bo'linishini farqlashni talab qiladi. Bu devorlar yuzasini va potolokni bo'lish, hajmiy bo'linish va makonning o'zini bo'lish. Bo'linish insonga makonni baholashni, u to'g'risida tasavvurga ega bo'lishni va unda o'z o'rnini aniqlashga imkon beradi. Shuning uchun bo'linish muhim hisoblanadi.

Inson uchun makonni o'lchamlari to'g'risida shartli tavsifini olish tabiiy ehtiyoj hisoblanib, uning shu makonda to'g'ri yo'nalish olish va uni o'rganish uchun zarur. Misol uchun, klassik arxitekturada makonni o'lchovli modul bo'lib order hisoblanadi. Uning balandligi va o'lchamlariga qarab makonning umumiy hajmi katta va kichik bo'laklarga yoki bo'lmasa unga javob bergan bo'ladi.

Zamonaviy me'morchilikda o'lchamiga muvofiq keladigan va tushunish oson bo'lgan elementlar ishlab chiqilmagan, aniqlanmagan.

Makonning nisbiy bo'linishi insonning taqqoslab baholay olishi mumkin bo'lgan elementlar – barerlar, eshiklarning o'rni, mebellar va insonning o'zi bilan tavsiflanishi mumkin.

Makonning bo'linishi turli xil variantda bo'lishi mumkin. Hajm, makon tuzilishining asosiy prinsipini ta'kidlovchi bo'lishi mumkin (ko'rgazma zallari, sport zallar va hokazolar).

Ikkinchidan, yuk ko'taruvchi ustunlar, devorlar, diafragmalar bilan bo'lingan makon.

Uchinchidan, makonning ritm bo'yicha tuzilishi, bir-biriga mos tushgan tartibda qo'yilgan makon tuzilishi bilan bir aniqlikda birikkan yuk ko'taruvchi ustunlar qatori yordamida amalga oshadi.

To'rtinchidan, murakkab bo'linish. Buni ritm bo'yicha qo'yilgan ustunlarning erkin quyilgan maxsus chegaralovchi diafragmalar-to'siqlar yoki yopiq ichki makon hajmlarining birikish yo'li bilan tuziladi.

**Makonning mutlak o'lchovlari va kompozitsiyaviy usul.** U yoki bu kompozitsiyaviy usul shakllanuvchi ichki makonning ma'lum darajadagi kattaligida bo'lishi mumkin.

Bu holatni misolda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Ichki hovlisi bor bo'lgan bir ob'ektni olaylik. Mantiqiy tajriba o'tkazamiz. Tasavvur qiling ko'rib chiqilayotgan hovlini bir xil balandlikda deb qarab oldin ketma-ket kichraytirib boramiz, keyin kattalashtiramiz.

1. Absolyut o'lchamlar kichraytirilganda hovlining masshtabi sifat tomonidan o'zgaradi. Hovli sirli, miniatyurali bo'lib qoladi. O'lchamlarni bundan keyingi kichraytirishida hovlilik kompozitsiya mantiqan to'g'ri kelmaydi. Hovli o'rniga yuqoridan yoritiladigan zar paydo bo'ladi. Usulda sifatli o'zgarishlar paydo bo'ladi.

a) Usul masshtabga to'g'ri kelmaydi.

b) yaxlit makon tuyg'usi yo'qoladi.

Hovlini o‘rab turgan ichki makonni bo‘lish zaruriyati tug‘ilib yangi murakkat kompozitsiya paydo bo‘ladi. Interyerga nisbatan u hovli tashqi makon bo‘lib koladi. Hovli atrofida tashkil qilingan hovli anfilad tavsifidagi tuzilishga aylanadi. O‘tkazilgan mantiqiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, makonning bo‘linish nisbati uning mutloq o‘lchovlari bilan bog‘langan. Faqat ma’lum chegaralarda o‘lchovlarda qandaydir o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin, shu bilan birga ulkanlik hissi ham o‘zgaradi, bu degani masshtab ham o‘zgaradi. Shu chegaralarning ortida kompozitsiyaning sifatli o‘zgarishi kelib chiqadi.

Shunday qilib, makon tuzilishining u yoki bu kompozitsiyaviy usuli mutloq o‘lchovlar bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Lekin me’mor topshiriqdan va obrazni bo‘rttirib yaratishdan kelib chiqqan holda mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar foydalanishi mumkin.

**INSON HARAKATI DAVOMIDA MAKONNI IDROK QILISHI**

Insonning makonda faraz qilingan holatini, unda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan zarur ta’sirlanish, his va tuyg‘uni programmalashtirish maqsadida o‘rganish, jamoat binolarini loyihalashda alohida ahamiyatga ega.

Ichki makonni idrok qilishning uchta muhim lahzasi mavjud.

1) Bino ichiga kirishdagi taassurot.
2) Inson harakati davomida makonni qabul qilishi.
3) Insonning oxirgi mo‘ljalga kelgandagi holat

Birinchi xona-vestibyulga kirganda tashrif buyuruvchida mazmuniga mos keladigan his paydo bo‘lishi kerak

Moskvadagi S’ezdlar Saroyida, Toshkentdagi Oliy Majlis binosidagi vestibyulda ulkanlik, ijtimoiy hayotdagi muhim o‘rni his qilinadi yoki mexmonxonaga, restoranga, turbazaga tashrif buyuruvchini sirli idrok qilishga tayyorlashini misol qilish mumkin.

Vestibyul insonni makonda yo‘naltirishi kerak. Bu yerda albatta asosiy harakat yo‘nalishi berilishi kerak (zinapoyalar, o‘zidan keyingi xonalarga o‘tishni ta’minlovchi ochiq makonlar).

Me’mor o‘z faoliyatining boshlanishidan insonning makondagi harakatiga aniq bir yo‘nalishi berganday bo‘ladi va uning kayfiyatini ma’lum miqdorda boshqarib beradi. Bu yerda insonni yo‘naltiruvchi, mo‘ljalga yetkazuvchi, insonning o‘rnini aniqlab beruvchi, uni atrof bilan aloqasini bog‘lovchi bosh yo‘nalishlar ajratiladi. Bu harakat davomida ko‘rish taassurotlari, makonda ochiladigan tomonlar, ko‘rinish nuqtalari, rakurslar, shaharga yoki tabiatga qaratilgan keng ko‘rinishlar muhim ahamiyatga ega. Arxitektor uchun bu muammo ushbu yo‘nalishlarni qanday tashkil qilish, tashrif buyuruvchilarga nimalarni ko‘rsatishdan iborat. Bu vaziyatda qo‘yidagi muammolardan kelib chiqish kerak.

4) Inson energiyasini tejash talablari.

Bino makonida odamlarning eng qisqa harakat yo‘lini, shu vaqt ichida zarur bo‘lgan jarayonlarni ta’minlagan holda ishlab chiqish (eng qulay kommunikatsiyalar sxemasini ishlab chiqish).

5) Odamning harakat yo‘lida aniq ijobiy taasurot olish binoning har xil tomonlarini hissiy idrok qilish. Bu yerda kayfiyatning bino mazmuni va vazifalariga – maktab, teatr, muzey va boshqalarga munosib kelishi juda muhim.

Birinchi muammo odamning optimal harakatlari bilan yechiladi. Ikkinchisi odam aniq bir sharoitga quyilishi bilan yechiladi.

Makonda odam va guruhlar harakati binoning vazifasi bilan va me’morning o‘ylagan fikri bilan ham bog‘liq ravishda kelib chiqadi.

Yoyib yuborilgan harakat oqimi maktab bloklari, klub xonalariga xarakterli. Odamning harakat yo‘lida makonlar ketma-ket joylashtiriladi. Bular o‘quv xonalari, klubning xonalari, biblioteka zali va boshqalar. Xar xil maqsadli tomosha binolariga bosh yadroga qarab harakat qiladigan odamlar oqimi xarakterli. Ketma-ket o‘qiladigan joylar vestibyul, foye, zal-kulminatsiya.

Muzeylar va ko‘rsatma zallarida harakat tashrif buyuruvchidan ko‘rish bilan bog‘langan uzluksiz e’tiborni talab qiladigan yo‘lovchi hamma yo‘nalishda ma’lum maqsadga qaratilgan harakat bo‘lishi kerak. Shu bilan birga muzeyni tomosha qilishda ma’lum erkinlik yaratilishi kerak, alohida bo‘linmalarga ajratilgan, ya’ni qismlarga bo‘lingan ko‘rgazmalar.

Turli jamoat binolari makonining tuzilishi, har qaysi holatda zarur bo‘lgan inson kayfiyati va tuyg‘usi ko‘rinishlarini hisobga olishi kerak.

Me’morchilikda yaratiladigan bu ichki holatlar bu o‘sha ba’zi bir tizimda yig‘iladigan inson-arxitektura inson qayta bog‘lanishlaridir.

## ADABIYOTLAR:


1. Lisitsian M.V. Novikova Ye.B. Petunini Z.V. Inter’er obщestvennыx i jilыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Rannev V.R. Inter’er. Moskva. Vыsshaya shkola. 1987 g.
3. Barxin G.B. Metodika arxitekturnogo proektirovanie. Moskva Stroyizdat. 1993 g.
4. Arxitekturnoe proektirovanie obщestvennыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1995 g.
5. Gidion Z. Prostranstvo-Vremya-Arxitektura. Moskva. 1978 g.
6. Kirillova L.I. Pokravskiy I.A. Rojin I.V. Kompozitsiya v sovremennoy arxitekture. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
7. Savchenko V.V. Mnogfunksionalnыe zreliщnыe i sportivnыe zalы. Izd. Vo. «Budivelnik» 1979 g.

# MA'RUZA № 5

# INTERYERNI XARAKTERLOVCHI ELEMENTLAR

*Ma'ruza rejasi*

**1. Shakl. Forma**
Tuzilish qonuniyatlari
Formaning tavsifi
Formalarning birikishi
Material va faktura
**2. Tabiiy va sun'iy materiallar**

## TAYANCH SO'ZLAR:

1. Forma – bu funksional mazmunni me'moriy kompozitsiya tiliga o'tkazish.
2. Statik forma – makonda muvozanatga keltirilgan forma.
3. Dinamik forma – insonni biron bir harakatni kutishga, yuksalishga, intilishga undovchi me'moriy forma.
4. Plastik forma - hissiyot yordamida aniqlanadigan kelishgan chiroyli forma.
5. Keskin forma – mantiqan va ratsional aniqlanadigan burchakli keskin formalar.
6. Kontrast birikish – alohida formalarning kichikdan kattaga, pastdan balandga, to'g'ri burchakdan aylanaga o'tadigan aniq badiiy effekt beruvchi formalar.
7. Ritmik birikish – alohida formalarning tuzilishi asosida bir xil prinsip, bir xil qonuniyat.
8. Faktura – material yuzasining o'ziga xos xususiyatda ishlangan sifati.
9. Tabiiy materiallar – yog'och, tosh, granit, mramor, tuf va boshqalar
10. Sun'iy materiallar – plastiklar, xar xil qo'yilmalar, kartonlar, smolalar, sun'iy ranglovchilar.

## O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Statik forma nima?
2. Dinamik forma nima?
3. Kontrast birikishlar qanday amalga oshiriladi?
4. Ritmik birikmalar qanday tashkil qilinadi?
5. Tabiiy materiallardan foydalanish yo'llari?
6. Sun'iy materiallardan foydalanish yo'llari?
7. Materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish?

8. Materiallardan Interyerdan foydalanishda quyiladigan talablar?

**SHAKL. FORMA.** Forma – ichki makon tavsifining eng muhimlaridan biri hisoblanadi.

Forma – bu funksional mazmunni me’moriy kompozitsiya tiliga o‘tkazishdir, bu yerda nafaqat bo‘lajak fazoviy formaning xarakteri, balki ularning plastik ishlanish prinsiplari, bo‘linishlar va ritmga keltirishlar, masshtab va koloristik yechimlari belgilanadi.

Me’moriy forma ikki ob’ektiv xususiyatga ega.

1. Shaxsiyligi uning geometriyasi, o‘lchovlari, makonligi holati bilan aniqlanadi.
2. Insonning idroki bilan bog‘liq.

Interyerda forma makonni egallovchi obolochka, so‘ngra shu makonni to‘ldiruvchi hajmlar sifatida tasavvur qilinadi.

Insonning tashqi va ichki formalarni bilib olishi – bu uning tuzilish qonuniyatlarini bilishi demakdir.

Bilish ikki pog‘onada amalga oshadi. Bevosita (hissiy - obrazli) va biror vosita orqali ko‘ringan (mantiqan namoyon bo‘luvchi) formalarning oson anglab yetishini ko‘zlovchi qonuniyatlar asosida tuzilgan formalar insonga ma’lum qoniqishni beradi.

**Formaning tavsifi** Xonalar o‘lchovining nisbati – ichki makon formasining muhim tavsiflaridan biri hisoblanadi. Funksional sharoitlar va talablar formani yaratishga chorlovchi, mayl qildiruvchi birinchi sabablaridan hisoblanadi. Fazoviy formaning o‘lchovlari va alohida elementlari bajariladigan vazifaga qarab aniqlanadi. Ularning yordamida nima qilish kerakligi aniqlanadi. Formani aniqlash va uyg‘unlashtirish uchun mutanosiblik xizmat qiladi. Bu me’morga aniq formani, qismlar va yaxlitlikning qonuniyatli bog‘lanishlarini topish imkonini beradi.

Forma turg‘un, muvozanatli yoki unga qarama-qarshi o‘suvchan deb tavsiflanishi mumkin. Kvadrat, aylana, ko‘pburchak rejada turg‘un, muvozanatli makon formalarini tuzishni mo‘ljallaydi. Bunday makonda inson o‘zini ruxan sokin va mustaqil his qiladi.

Makonning o‘suvchan formasi ichki makonning qayoqqadir tashqariga qaratilishi va insonni nimanidir kutish, bog‘liqlik holatiga qo‘yishni oldindan mo‘ljallab qo‘yadi.

Ba’zida turg‘un formalar tashkillashtiruvchi bo‘lib, o‘suvchan qayoqqadir qaratilgan formalarni o‘ziga bo‘ysundirganday bo‘ladi. Formalar plastik (kelishgan), keskin, burchakli bo‘lishi mumkin.

Keskin formalar mantiqan va ratsional aniqlanadi (xuddi shunday formalarning bahosi oldindan aniqday).

Plastik formalar murakkab ko‘rish – sezish assotsiatsiyasi ya’ni hissiyot (tuyg‘u) yordamida aniqlanadi. Zamonaviy me’morchilikda

qaytarilmaslik izlanishlari xarakterlidir. Plastik formalar rejadagi egri chiziqli ko‘rinishni, qo‘shilgan yoki osilgan shiplar, mebellar plastikasi, jihozlar, yorug‘lik uskunalari jamoat binolari Interyeriga xarakterli hisoblanadi.

**Formalarning birikishi.** Formani baholash yig‘ilgan tajriba asosida hamda formalarni solishtirish va taqqoslash yo‘li bilan bajariladi. Bu solishtirishda kontrast birikmalar eng yorqin va ifodali bo‘ladi. Kichik makondan kattaga, pastdan balandga, to‘g‘ri burchakdan aylanaga o‘tishlar aniq badiiy effekt berishadi.

Kontrast formalardan farqli o‘laroq ritmik birikmalar bo‘lishi mumkin – alohida formalarning tuzilishi asosida bir xil prinsip, bir xil qonuniyat yotadi.

Alohida formalarning ritmik birikishlari prinsipi Interyerning har xil elementlarini bir joyga yaxlit yig‘adi (Finlyandiya saroyi, Politexnika institutining auditoriyasi). Bu jihozlar, mebellar, yorug‘lik kabi elementlarga tegishli bo‘lishi mumkin (Ukraina saroyining Interyeri).

Xonaning rejadagi ko‘rinishi shiplarning formasi yorug‘liklar teshigi, mebellar Interyerni eng yorqin ifodalovchi hisoblanadi.

**TABIIY VA SUN’IY MATERIALLAR.** Forma o‘z xolicha mavjud bo‘lmaydi. U moddiy, ichki makon devorining yuzasi har xil xarakterlanadi, materiallarni tanlash bilan bog‘liq. Me’mor Interyerni obrazini ifodalaganda materiallarning xususiyatlarini ongli ravishda bilib foydalanadi.

Ular bilan qo‘yidagilarni his qilish – issiq va sovuq, og‘ir va yengil (mustahkam), qattiq va yumshoq, faktura va rang kabilar bog‘liq.

Interyerda qo‘llaniladigan materiallarni tabiiy va sun’iylarga bo‘lish mumkin.

Tabiiy materiallar – yog‘och, tosh, granit, metall, beton, mramor, tuf va boshqalar.

Yog‘och – uni qimmatli dekorativ materialga aylantiruvchi, ko‘pgina sifatlarga ega; unga teginganda iliq, har xil bezaklash imkonini beradi, konstruktiv sifatlarga ega, boshqa bezaklash materiallari bilan yaxshi birikadi.

Tabiiy tosh Interyerda qo‘yidagi ko‘rinishlarda qo‘llaniladi: tabiiy ishlov berilmagan (shag‘al, yumaloq katta toshlar, plitalar, mayda toshlar); maydalangan (uvoqlar, xarsangtosh); kesilgan (plitalar, brekchiya); qayta ishlangan (maydalangan tartilgan toshlar + bog‘lovchilar); sun’iy (beton, g‘isht) va imitatsiya qilib ishlangan.

Ularning tovlanishi darz ketishi (sinishi), rangi, fakturasi (silliq, g‘adir - budir) materialning estetik sifatlarini aniqlaydi.

Ular ko‘pincha magazin, restoran, kafe, kinoteatrlar va hokazolarning Interyerida ishlatiladi.

Ishlov berilishiga qarab yuzaning ustki qismida har xil fakturalarni olish mumkin (qoya, g‘adir-budir, taram-taram va hokazolar).

Marmar, granit, tuf va ohaktoshlarning tuzilishi hamma murakkablikni, turlilikni, ifodalilikni va o‘zining tabiiy kuchini, o‘z tuzilishini saqlab qoladi.

Sun’iy materiallar-plastiklar, har xil qo‘yilmalar, kartonlar, smolalar, sun’iy ranglovchilar o‘zining xilma-xilligida jamoat binolarida keng ko‘lamda qo‘llaniladi.

Faktura har xil rasmli, eng noziq nyuanslarda ranglarga ega bo‘lgan turli yuzalarga ega.

Ular Interyerda oldindan beriladi va boshqariladi. Qurilish materiallarining og‘irligi va mustahkamligi ikki o‘zaro bog‘langan sifatlardan iborat bo‘lib insonga nimagadir o‘xshashlik, qaerdadir qurganlik (assotsiatsiya) taassurotini beradi. Shunday qilib teginganda iliq bo‘lib tuyuluvchi materiallar – yog‘och, tabiiy tuflar, probkalar (g‘ovvaklar).

Sovuq materiallar – granit, mramor, metall, tosh. Materiallarni sovuq va iliqqa ajratish ularning og‘irlik, issiqni o‘tkazish, issiqni qabul qilish xossalariga mos keladi. Yog‘ochdan Interyerda foydalanish, unga iliq va yumshoq ko‘rinish beradi. Tabiiy tosh, granit, mramor, g‘isht, ochiq beton, shishalar qattiq materiallar bo‘lib rasmiy xonalarda ishlatiladi. Bular – vokzallar, vestibyullar, xollar, magazinlar va hokazolar – odam kam vaqtini o‘tkazadigan joylar. Bu yerda materialning qattiqligi kontrastni ta’kidlab, taassurotni ko‘chaytiradi. Yumshoq materiallar – teri, yog‘och, bezak fanerasi, g‘ovak dam olishga mo‘ljallangan, sokinlik, tinchlik va zo‘riqishni tushiradigan xonalarda foydalaniladi.

Materiallardan Interyerda foydalanish bir qator talablarga javob berishi zarur.

1) Materialning ob’ekt mazmuniga to‘g‘ri kelishi. Material bino ichidagi jarayonlarni o‘tkazishga mos bo‘lishi kerak.

Sokin sirli restoranlar-yog‘och va toshlardan foydalanishi.

Vestibyullar – ko‘chadan ichki makonga o‘tishni tashkil qiluvchi tabiiy toshlar.

2) Har xil materiallarning garmonik birikmasini topish. Bu yerda Interyerda bosh boshqaruvchi materialni tanlash kerak. Qolgan materiallarni boshqaruvchi materialga mos qilib tanlash kerak. Bu yerda iliq va sovuq materiallarning keskin solishtirish yoki iliqni iliq bilan, sovuqni sovuq bilan solishtirish.

3) Konstruksiyaviy mantiq talablari

Og‘ir va yengil, mustahkam va joyiga qarab mustahkamligi kamroq bo‘lgan materiallarni turgan o‘rniga qarab foydalanish (konstruksiya nuqtai nazaridan).

## ADABIYOTLAR:

1. Lisitsian M.V. Novikova Ye.B. Petunina Z.V. Interyer obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Ayrapetov V.D. Arxitekturnoe materialovedeniya. Moskva. 1983 g.
3. Ponomareva Ye.S. Interyer i oborudovanie grajdanskix zdaniy. Minsk. «Vыsshaya shkola» 1976 g.

# II BOB
# INTERYERDA RANG VA YORUG‘LIK

## MA’RUZA № 6

## RANGNING TA’SIR QILISHI

*Ma’ruza rejasi*

1. **Uyg‘un birikmalar**
2. **Yorug‘likning vazifalari**

### TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Rang – biron narsani yorug‘lik toni, Interyerning ichki ko‘rinishini yaratuvchi va uning badiiy obrazini talqin qiluvchi elementlardan biri.
2. Garmoniy birikmalar, uyg‘unlik – toklarning bir kompozitsiya asosida mujassamlanishi. Ba’zi bir ranglar va elementlarning o‘zaro kelishtiruvchi va bir makonga keltiruvchi birikmalar, kompozitsiyalar.
3. Monoxramatik gamma – bir bo‘yoq atrofida tanlangan ranglar toni.
4. Axromatik gamma – yorug‘lik bo‘yicha bir makonga teng bo‘lgan kul ranglar.
5. Sun’iy yorug‘lik – atrof-muhitni ko‘radigan qiluvchi nurli energiya, yorug‘lik manbai. Bino ichki ko‘rinishiga badiiy mukammallikni kirituvchi vositalardan biri.
6. Polixromatik – ko‘p ranglilik.

### O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ranglarning xususiyatlari va ulardan Interyerni shakllantirshda foydalanish yo‘llari?
2. Ranglar va ko‘rish xususiyatlaridan Interyerda qanday qo‘llaniladi?
3. Kontrast birikmalar qanday tashkillanadi?
4. Nyuans birikmalar qanday tashkil qilinadi?
5. Interyerda polixromatik shakllantirish yo‘llari?
6. Tabiiy yorug‘lik nima?
7. Yorug‘likning vazifalari nimalardan iborat?
8. Interyerni yoritishga yondashish usullari?
9. Sun’iy yorug‘likning Interyerni badiiy shakllantirishdagi ahamiyati?
10. Interyerda yorug‘lik yordamida yechiladigan masalalar?

Ranglar uyg‘unligi qonuniyatlari, rangning Interyer kompozitsiyasida qatnashishi – bu Interyerni yaratishdagi muhim masalalardan biri. Odamlarning ranglar birikmasini bilib olishi emotsional va estetik hayajonlanishning boshlanishi hisoblanadi. Rangning psixologik ta’siri omillaridan biri assotsiatsiya hisoblanadi. Odam tasavvurida har qanday rang yoqimli va yoqimsiz assotsiatsiyaga ega bo‘ladi.

Ba’zi ranglarning assotsiatsiyasi ko‘pchilikka mos keladi. Ular umumiy qabul qilingan baholash bilan bog‘liq. Misol uchun, sovuq va iliq tonlarga bo‘linishi tajribada tasdiqlangan. Bu guruxlar psixologik qarama-qarshilikda yotadi. Bu tonlar inson psixologiyasi va fiziologiyasiga qarama-qarshi ta’sir qiladi. Iliq tonlar quvvat beruvchi, sovuq tonlar tinchlantiruvchi sifatida ta’sir qiladi. Eng ko‘p uchraydigan assotsiatsiyalarga qarab ranglarni bo‘lish keng tarqalgan. Misol uchun, qizil – uyg‘ontiruvchi, jonli issiq – olov, xavfli, qiziqib intilish, oranjevыy – bayram, xursandchilik, issiqliq beruvchi – quyosh, yaltirash assotsiatsiyalanadi; yashil – tabiat rangi, tabiiy, yengillashtiruvchi xavfsizlik bilan assotsiatsiyalanadi; moviy – keng osmon, aniqlik, sokinlik, ko‘k – chuqurlashgan, bosiqday idrok qilinadi; to‘q qizil – kuchli, qudratli, baquvvat-qon, kuch-qudrat bilan assotsiatsiyalanadi.

Rang bilan alohida elementlarning ma’naviy belgisi ajratiladi yoki uchiriladi. Ranglarni idrok qilishda ko‘rishning ba’zi xususiyatlari ta’sir qiladi. Xromatik aberratsiya degan ibora mavjud. Sariq ranglar setchatka yuzasida aniq nuqtaga yig‘iladi, spektr oxirida qizil ranglar setchatka oldida, binafsha ranglar setchatkadan keyin turishidan iborat.

Shuning uchun, sovuq ranglar tomoshabindan uzoqlashtirilganday ko‘rinadi, iliq ranglar unga yaqinlashtirilganday ko‘rinadi.

Interyerda ko‘rish nervi xoriganida namoyon bo‘ladigan ranglar toni va ko‘rish maydonida yotgan predmetning rang bilan ko‘chaytirilishiga bog‘liq bo‘lgan yorug‘lik ta’sirini hisobga olish kerak.

Eng yaxshi sharoit neytral ranglar atrofida, ya’ni uch xil ranglarni his qiluvchi apparatlar bilan bog‘langan yuklarni nisbatdan teng bo‘lishda yaratiladi.

Shunday qilib, rangni idrok qilishning fiziologik va psixologik talablari, hamda ranglar garmoniyasi, nazariyasi Interyerni yaratish asoslaridan biri hisoblanadi.

## UYG‘UN BIRIKMALAR

Ranglar uyg‘unligi insonning tabiiy ehtiyoji hisoblanadi. Interyerda u uyg‘unlashgan rang muhitini yaratishda bo‘lishi shart hisoblanadi.

Ranglar uyg‘unligi – bu insonda mavjud bo‘lgan mutanosiblik hissiga mos tushadigan qarama-qarshi qo‘yilgan ranglarning birligi.

Ranglar uyg‘unligi ikki guruhdan iborat. Birinchisi, ranglarning qarama-qarshi qo‘yilishiga asoslangan bo‘lib, kontrast birikmani tashkil

qiladi. Ikkinchisi ranglarning yaqinlashishiga asoslangan. Bu nyuans birikmalarni beradi.

Kontrast birikmalar o‘zaro to‘ldiruvchi, ranglar nafaqat to‘ldiruvchi balki qo‘shni ranglar bilan ham tuziladi;

- Ikkita to‘ldiruvchi rang va oradagi rangdan ham foydalaniladi.
- Bo‘linib tashlangan gamma, ikkita oradagi ranglar turi;
- Ranglar uchligi – ranglar diagrammasi uzunligida teng turadigan ranglardan tuzilgan gamma.

Bu sxemalarga noziq farqli nyuans uyg‘unliklarni solishtirib murakkablashtirilgan sxemalarni olish mumkin.

Noziq farqli uyg‘unliklar bo‘lishi mumkin.

- Monoxromatik (bir xildagi och kulrang ranglar)
- Gamma (o‘zaro uyg‘un) bitta rang tusi (bu rang turlicha ko‘rinishi) atrofida yig‘ilgan ranglar turi (och olovrang, jigar ranglar birikmasi)
- har xil rang tusidan yig‘ilgan ranglar gammasi (qizil va olovli, ko‘k va ko‘k yashil moviy rangning qatnashishi bilan);
- Oraliqdagi ranglar gammasi, ulardan biri ikkita asosiy rangning qo‘shilishidan tuzilgan (sariq, yashil va gorchitsa) ranglardan tuzilgan;
- Axromatik gamma kulrang ranglarning birikmasi (eng chiroyli birikma erkinligi bo‘yicha teng turadigan ranglar birikmasi);
- Axromatik va xromatik ranglar birikmasi (kulrang va ko‘k, kulrang va jigarrang, oq va terraktовыy, qizg‘ish-jigarrang);

Noziq farqli uyg‘unliklar sxemasini murakkablashtirish va kengaytirish mumkin.

Besh-oltita ranglardan nyuans sxemasini tashkillashtirish mumkin.

Ranglar uyg‘unligini tuzish, ranglarning rang turini tanlash bilan chegaralanib qolmaydi. Ranglar tavsiflari orasidagi moslikni topish, yorqinlik va kuchaytirilganlik bo‘yicha rangning egallagan maydoni bo‘yicha juda muhim.

Zamonaviy Interyerga tabiiy materiallar bilan qo‘shilib polixromik uyg‘unliklarni tashkil etadigan yengil va yumshoq tusdagi ranglardan foydalanish xarakterli.

Kuchaytirilgan yorqin tuslardan ulkan ta’sir kuchiga ega bo‘lgan ranglar nisbatini yaratish mumkin. Amfiteatrning qizil rangi yog‘ochning tilla rang turi bilan qo‘shilib tantanavorlikni yaratadi.

Shunday qilib, Interyerni yaratish vazifalarida ranglar sifatini ham kiritish zarur bo‘ladi.

## YORUG‘LIKNING VAZIFALARI

Yorug‘lik – Interyerni eng muhim tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi. Yorug‘lik inson kayfiyatining turli holatini paydo qiladi. U kayfiyat g‘amgin va sirli, sirli va yengillik beruvchi, uyg‘otuvchi va sergak bo‘lishi mumkin.

Interyer yorug‘ligini loyihalashda quyidagi vazifalar birga yechiladi;

- funksional – xonada aniq ishni bajarish uchun kerak bo‘lgan yorug‘lik sathini ta’minlash;
- Me’moriy – Interyerning badiiy ifodaliligini yaratish;
- iqtisodiy – yorug‘likni, funksional va me’moriy talablarga asoslanib optimal, eng qulay variantini aniqlash.

Yorug‘likning uchala vazifalari tomonini jamlaganda – utilitar, psixologik va estetik, Interyerning yorug‘lik me’morchiligi paydo bo‘ladi.

Yorug‘likdan badiiy maqsadda foydalanish yangilik emas. Rus klassitsizmi me’morlari zallarga serxashamlik, bayram va fazoviylikni berish uchun qandillar va oynalardan yaxshi bilib foydalanishgan. Toshkentdagi Navoiy nomidagi opera va balet teatridagi har bir viloyatni bildiruvchi zallardagi naqshinkor qandillar va hokazolar. Zamonaviy inter’erda yorug‘likning ahamiyati shunchalik ustinki, ko‘p hollarda inter’er arxitekturasini idrok qilish yorug‘lik bilan aniqlanadigan bo‘lib qoldi.

Inter’erni yoritish yo‘nalishi tabiat yaratadigan yorug‘liklardan olingan nisbiy yorqinlikka qarab baholanadi.

Inter’erni yoritish yo‘nalishi tabiat yaratgan yorug‘liklar yo‘nalishi bo‘yicha olingan nisbiy yorqinlikka qarab belgilanadi. Tabiatdagi yorug‘lik ko‘zni quvontiradi.

Pikasso tabiatdagi yorug‘likning insonga psixologik ta’siri to‘g‘risida shunday degan edi: «Inson xohlaydimi yo‘qmi u tabiatning jihozidir. U insonga o‘zining ko‘rinishi va xarakterini ko‘rsatadi (tutashtiradi). U bizning eng kuchlimizdan kuchliroqdir». Korbyuze aytgan edi: «Haqiqat shundaki, tabiat nima to‘g‘risida aytadi, faqatgina undan nimani so‘rashni bilsangiz».

Tabiiy yorug‘likning xarakterli tomonlari

1) Ko‘z tushish maydonida yorug‘liklar bo‘linishiga ma’lum aniqlik kiritilganligi. Osmon maydonining yuqori qismi eng yorug‘, yer pastki qism - eng kam yorug‘likka ega. Gorizontdagi narsalar o‘rtacha yorug‘lik bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar insonga inter’erda ham o‘rganilgan holday bo‘ladi.

2) Yorug‘likning tekis maydonlarda teng bo‘linishi va qiyshiq-qing‘ir maydonlarda va notekis bo‘linishi inter’erda tekis bo‘lingan yorqinlik, tekis yuza bilan notekis yorqinlik qiyshiq chiziqli yuza bilan assotsiatsiya qilinadi.

3) Tabiiy yorug‘lik yo‘naltirilgan tarqalish va har xil nisbatda turli sharoitlarda aks ettirilgan nurlar bilan yaratiladi. Inter’erda soyalar bilan erkin ifodalangan kontrast yorug‘lik quyosh nuri bilan yoritilganlikni-soyasiz esa bug‘iq kun yorug‘likni eslatadi.

4) Tabiiy yorug‘likning yo‘naltirilganligi. Uning yordamida me’moriy ritm, yorug‘lik-soya ritmi bilan uzatib boriladi. Anolog bo‘yicha,

inter'erda agar uning tabiiy ko'rinishi zarur bo'lsa, yorug'lik-soya ritmi me'moriy ritmga mos tushishi kerak.

5) Yorug'likni yuqoridan yo'naltirilishi. Yuqoridan yoritilgan inter'er tabiiylik tuyg'usini uyg'otadi; pastdan yoritilgani o'zgacha, teatrlashtirilgan tuyg'uni uyg'otadi.

6) Konstrast yorug'lik. Ko'rish. Quyosh yaratadigan kontrastlarga o'rgangan. Tabiatning ba'zi kontrastlariga o'rganib qolganlik inter'erda ham insonni tashlab qo'ymaydi.

Yuqorida aytilganlardan qo'yidagi xulosalarni qilish mumkin. Inter'erni yoritishga ikki xil yondashish mumkin.

1. Yorug'likning tabiiy sharoitlariga intilib borish-maktablarning o'quv xonalari, sport zallar, kasalxonalar va hokazolar.

2. Xonada «teatr» effektini berish-bu tomosha zallari, restoranlar, ko'rgazma zallariga to'g'ri keladi.

Saroylar xarakteridagi muxtasham binolarda yorug'lik muhim me'moriy badiiy rolni bajaradi. Me'moriy ifodalikni yaratadi. (S'ezdlar Saroyi Moskvada, Ukraina saroyi, Toshkentdagi xalqlar do'stligi saroyi va hokazolar).

Yig'ilishlar zali, konferensial zal va shunga o'xshash boshqa xonalarda me'moriy talablarga ega qurilish bilan bog'liq bo'lgan funksional talablar qo'shiladi.

Yorug'lik aksentini yaratish yordamida inter'erda asosiy kompozitsiya nuqtasini ajratib ko'rsatishi mumkin.

Inter'erda yorug'lik yordamida tektonik masalalar yechiladi. Formalar aniqlanib olinadi, konstruksiyaning mohiyati, uning turg'un ishi ochiladi.

Nuqtali yoritgichlar yordamida yulduzli osmon illyuziyasi (aldanish) yaratiladi, shipni ko'rish yo'qotiladi va hokazolar.

## ADABIYOTLAR:

1. Lisitsian M.V. Novikova Ye.V. Petunina Z.V. Inter'er obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Ponomareva Ye. S. Svet v inter'ere. Minsk. «Vысshaya shkola» 1984 g.
3. Frimet G. «Chelovek, svet, prostrantvo» M. 1973 g.
4. Gusev N. M. Svetovaya arxitektura. Moskva. 1978 g.

# MA'RUZA №7

## BIRLIKNI YARATUVCHI BADIIY VOSITALAR

*Ma'ruza rejasi*

1. **Uslub birligi**
2. **Obraz yaratishning badiiy vositasi sifatida**

Mavzuning vaqt davomida va makonda rivojlanishi

Mavzu va assotsiatsiya

## TAYANCH SO'ZLAR:

1. Stil (badiiy birlik) - me'moriy elementlarni va jihozlashlarni badiiy, ijodiy birlikga keltirib ishlangan yakuniy holat.
2. Obraz - tashqi dunyodan predmet va hodisalarni inson ongida aks ettiruvchi forma.
3. Sintez-ob'ektning har xil elementlarini mukammal bir san'at turlarining birikmasi.
4. Binoning ichki ko'rinishini badiiy kompozitsiyasini ishlashda tanlangan mavzu.
5. Assotsiatsiya-obrazni qaerdadir qurilgan yoki solishtirish analoglariga asoslanib shakllantirish yoki tanish hodisalarni aksi sifatida qurish.

## O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. O'xshashlikni yaratish usullari?
2. To'plamdan umumiylikni yaratish vositalari?
3. Inter'erda stil birligini yaratish talabi?
4. Inter'erda mavzuning rivojlantirish usullari?
5. Inter'erda ijod qanday qo'llaniladi?

Birlikni ko'plikdan yaratish shartlari. Inter'erning o'ziga xos xususiyatlari uni tashkil qiluvchilarning sonini ko'pligida. Birinchidan, asosiylari ichki makon va uni chegaralovchi yuza. Ikkinchidan, eshik va derazalarning o'rni, to'siqlar, makonni bo'lib tashlovchi yoritgichlar, maxsus jihozlar, mebel va boshqa predmetlar. Shu tashkil qiluvchilardan har biri sifat tavsifiga ega bo'lishi kerak. Forma va o'lchovlar, meterial va faktura, rang va yorug'liklar alohida elementlar va butun inter'erning tavsifi bo'lishi mumkin.

Inter'er qismlarining tavsiflaridan har biri qandaydir talablar bilan asoslangan bo'lishi kerak, ba'zida bir qator omillar bilan, funksiya, iqlim, shaharsozlik situatsiyasi, texnik, moddiy va iqtisodiy imkoniyatlar.

Shu omillardan har biri o‘sha bitta vazifaning mumkin bo‘lgan yechimlarining ko‘pchiligi orasidagi bittasini aniqlab beradi.

Inter’erda uyg‘unlashgan birlikni yaratish bir qator badiiy vositalar bilan amalga oshadi.

1. Me’morchilik bilan inter’erni to‘ldirib turgan hamma predmetlarni bog‘lovchi uslub birligi.

2. Mazmun va fazoviy yaxlitlik rejasini ochib beruvchi ba’zi tashkil qiluvchilarning o‘lchamlari, ranglari, formasi, fakturasi, san’at sintezi kabi o‘lchovga to‘g‘ri kelmaydigan sifatlarini jamlovchi masshtab va mavzu kabi badiiy usullar.

## USLUB BIRLIGI

Ichki makon me’morchiligini va uni to‘ldiruvchi predmetlarni qamrab oluvchi uslub (stil) birligi talabi ko‘proq inter’erda o‘z aksini topadi. Masalan, klassitsizm va ampir uslubida me’morchilikni, mebelni, qandillarni hamda soatlar, shamdonlar, yozish anjomlari kabi predmetlarni birlashtiruvchi badiiy usul ishlab chiqilgan. Ichki makon me’morchiligi inter’erning hamma detallarining yig‘indisiz tasavvur ham qilinmagan.

Buyuk me’morlar o‘z g‘oyalarini amalga oshirishda polning, mebelning, dekorativ materiallarning rasmidan boshlab eshikning qo‘ligacha xamma narsani o‘zlari chizishgan. 1920 yillarda yangi estetik qarashlarning shakllanishi bilan, yangi me’morchilik, yashash predmetlarining, mebellarning, yoritgichlarning, gazmollarning yangi uslubda yaratishni vazifa qilib qo‘ydi. Ular ommaviy sanoat ishlab chiqarishiga mo‘ljallangan edi va shuning uchun industrlashgan edi.

Predmetning funksional kerakligi sifat kafili bo‘la olmas edi. Rassom-dizayner bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun da’vat qilingan.

Mashina maxsuloti o‘zining xususiyatini yo‘qotmagan holda chiroyli bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda ichki makonning ta’sir doirasida va uni bir yaxlitlik sifatida talqin qilishda estetik tasavvurlar rivojlanmoqda. Inter’erni to‘ldiruvchi predmetlarga, makonga umumiy munosabatlar shakllanadi va uslub birlikning dastlabki sharti bo‘lib qoldi.

Uslub me’morchiligi uchun qandaydir umumiylikni taqoza qilsada, baribir har turdagi binolar uchun masalani aniq yecholmaydi.

## OBRAZ YARATISHNING BADIIY VOSITALARI

Mavzu rangtasvirda. Adabiyotda va musiqada aniqroq tavsifga ega. Adabiyotda mavzu. Sabablarda, ko‘rinishlarda ishlab chiqilib, mavzu alohida faktlarni. Hodisalarni, tiplarni bir yaxlitlikka birlashtiradi.

Musiqada mavzu - bu musiqiy tuzilish. Me’morchilikda mavzu yaxlit obrazni shakllantirishda badiiy vosita sifatida muhim turkum (kategoriya) hisoblanadi. Ba’zilar aytishadiki, me’mor avvaldan boshlab qanday rasmiy

(formal) vositalar uning binosining kompozitsion tuzilishida asosiy va zur taassurot qoldirishni tasavvur qilishi kerak. (Joltovskiy)

Mavzu mazmun va formaning o‘ziga xos bog‘lovchisi hisoblanadi. Bu degani mavzuni, qarab chiqish g‘oyaviy mazmunni ifodalovchi rasmiy vositalar bilan va aniq formada ko‘ringan badiiy mazmun bilan ham bog‘liq.

Me’morchilikda mavzu keng abstraktlik bilan tavsiflanadi. Mavzu bosh yo‘llantiruvchi elementlarni aniqlashda, mavzuli va badiiy turli xil o‘lchovga tushmaydigan va taqqoslab bo‘lmaydigan sifatlarni bir xil yaxlitlikka bog‘lashda va ularni badiiy obrazni shakllantirishda asos hisoblanadi.

1. Mavzuning vaqt davomida va makonda rivojlanishi

Me’morchilikda mavzu vaqt davomida va makonda rivojlanadi. Ba’zi formalarni, makonni, ranglarni, materiallarni ritmli navbatlash yo‘li bilan uning insonga ta’sirini ko‘chaytiruvchi mavzu rivojlantiriladi. Inter’erda mavzuni tanlash muallifga bog‘liq emas. Ob’ektning mazmuni mavzuni tanlashda aniqlovchi hisoblanadi. Bu mazmunning rasmiy badiiy ifodalash butunlay me’morning g‘oyasiga bog‘liq.

Makonda ustunlar tizimi, har xil zallarning umumiy bir xil materialdan foydalanish, devorda, ichida, zinapoyalarda va hokazolar - hammasi mavzuning rivojlantirish usullari hisoblanadi.

2. Mazmun va assotsiatsiya

Loyihalashda ijodiy g‘oyani shakllantirish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Misol uchun, aerovokzalning mavzusini tuzish uning sof utilitar funksiyasiga asoslanadi. Bu yerda asosiy bo‘lib yo‘lovchilarning kelishi va ketishi hisoblanadi. Makonda yo‘lovchi, eng qisqa kommunikatsiyalar (harakat, yo‘l), axborotni tezkorlik bilan berish - bu talablarning hammasi me’moriy vositalar bilan yechilishi kerak.

Inter’erni yaratishda aniqlovchi yo‘nalishlar boshqa tashkil qiluvchilardan ham bo‘lishi mumkin. Masalan, konstruksiya. Plastik ishlangan va obrazi talqin qilingan konstruksiya, o‘zining aniq ifodasida, me’moriy mavzu bo‘lishi mumkin. Tokiodagi olimpiada suv stadioni misol bo‘la oladi.

Ba’zida jamoat binolari inter’erida assotsiativ ijod qo‘llanadi, ya’ni obrazni qaerdadir qurilgan yoki solishtirish analoglariga asoslangan holda assotsiatsiya sifatida shakllantirish, tanish hodisalarni aksi sifatda ko‘rsatish.

Bu yerda ko‘proq ijodiy elementlar zarur. Chunki me’moriy solishtirish mumkin bo‘lmagan holatlarni uddaburonlik bilan o‘zgartirib ishlash lozim.

## ADABIYOTLAR:

1. Lisitsian M.V. Novikova Ye.B. Petunina Z.V. Inter’er obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.

2. Gidion Z. «Prostranstvo – vremya-arxitektura» Moskva. 1978 g.
3. Kirillov L.I. Pokraskiy I.A. Rojin I.V. Kompozitsiya v sovremennoy arxitekture. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
4. Shvidkovskiy O.A. Garmoniya vzaimodeytviya. Arxitektura monumentalnoe isskustvo. Moskva. Stroyizdat. 1984 g.

## MA'RUZA №8

## MASSHTAB BADIIY IFODA VOSITASI SIFATIDA. INTER'ERDA SAN'AT SINTEZI

*Ma'ruza rejasi.*

Masshtab badiiy ifoda vositasi sifatida.

**1. Me'morchilikda va inter'erda masshtab.**

Inter'erda san'at sintezi.

**2. Inter'erda rangtasvir va monumental san'at**

### TAYANCH SO'ZLAR:

1. Masshtab (nisbiy o'lcham) - binoning ichki va tashqi elementlarini o'zaro bog'lovchi, uyg'unlashtiruvchi nisbiy o'lcham.
2. Solishtirish - bino qismlarini ichki makon bilan va me'morchilikni inson bilan taqqoslash.
3. Sifat tavsifi - masshtab yordamida makon va uning obrazini har xil talqin qilish.
4. Me'moriy elementlar - badiiy obrazni yaratishda foydalanadigan har xil forma va detallar.
5. San'at sintezi - me'morchilik, rangtasvir va skulptura elementlaridan tuzilgan birikma.
6. Plastika - chiroyli san'at asari.

### O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Inter'erning masshtabi qanday asosda quriladi?
2. Masshtabning sifat tavsifi qanday yaratiladi?
3. Konstruksiyaning inter'er masshtabini yaratishdagi ahamiyati?
4. Me'morchilikda san'at sintezining turlari?
5. San'at sintezi inter'erda qanday qabul qilinadi?
6. Plastik san'atning me'moriy makon bilan bog'lanish yo'llari?

**Masshtab badiiy ifoda vositasi sifatida.** Inter'erning shakllanishining muhim muammolaridan biri ifodalovchi sifatida va birlikni tashkillashtiruvchi shartlardan biri masshtab hisoblanadi. U loyixa va inter'er ustida ishlash davomida kompozitsion usullar va konstruksiyani tanlash,

o‘lchovlarni aniqlash va alohida qismlarning o‘zaro nisbatli va har bir alohida qismning yaxlitga bog‘liq ahamiyatini tanlash kerak bo‘lganda paydo bo‘ladi.

## ME’MORCHILIKDA MASSHTAB

Masshtab me’morchilikda alohida bog‘lanishlarni belgilaydi. Interyer ikkita masshtabni solishtirish asosida quriladi – bino qismlarini ichki makon bilan me’morchilikni inson bilan.

Shuning uchun Interyerning formasi kichikroq va insonga yaqinroq. Binoning tashqi hajmida uchinchi bog‘lanish qatnashadi – bino kattaligining umumiy atrofdagi makon kengligi bilan bog‘lanishi. Interyerda bu bog‘lanish bo‘lmaydi.

Greklarning xramlarida tashqariga butunlay bo‘yicha katta order quyiladi va peripter fazoda qabul qiladi.

Interyerda balandligi bilan tashqi orderga teng bo‘lgan ikki yarusli ustunlar majmuasiga nisbatan katta bo‘lmagan makonda qabul qilinadi.

Italiyaning uyg‘onish davridagi saroylarida tashqaridan bir qavat balandligida uch qismga bo‘lingan fasadlar katta terishlar bilan to‘ldiriladi, binoning balandligi bilan muvofiq keladigan katta tugallovchi karnizlar ishlatiladi. Interyerda hovli arkalarining va ichki xonalarining mayda detallarga bo‘linishi katta asosiy me’moriy elementlar va ichki makon orasidagi mutanosiblikni yaratadi.

Masshtab yordamida makonning, uning obrazi har xil sifat tavsifi yaratiladi. Kichkina zallarda me’morchilikning ahamiyatliligiga masshtabning kattaligi bilan erishiladi. Bu yerda makonning o‘lchovlari emas, balki katta me’moriy elementlar ustun turadi. Moskvadagi Soyuzlar uyining ustunli zali, zamonaviy Interyerlarga katta bo‘lmagan xonalar, mexmonxona xollari, vestibyullari imkon boricha ixcham va detallardan holi.

Ustunlarning, yoritgich plafonlarining, mebelning bu makonda ahamiyati o‘sadi. Chunki makon kichik masshtabi esa katta. Katta davlat teatrlarning zallarida Moskvadagi katta teatr, Kievdagi, Odessadagi teatr zallarida balandligi 15-20 metr bo‘lgan katta ustunlar makonni uzini og‘irligi bilan bosib qoladi. Zalni yaruslarga bo‘lib ishlash, ko‘p bo‘laklarga bo‘lish, zal katta bo‘lgani uchun masshtabini buzmadi. Bu yerda taassurot elementlarining kattaligi bilan emas, balki ularning ko‘pligi bilan va shu bilan birga makonni anchagina ko‘paytirib topshiradi.

Hozirgi katta Interyerlarda keng ko‘p ustunli zallar, ko‘p yarusli xollar, murakkabroq bo‘lingan, ham vertikal (balandligi), ham gorizontal yo‘nalishlar bo‘yicha me’morchilikning bo‘linish nisbati oddiydan murakkabgacha balandligi bilan birga o‘sadi.

Interyerda masshtabning tavsifi va uni taqqoslash vaqt davomida amalga oshadi. Interyerni bu qabul qilish shartidan badiiy effekt va katta me’moriy kontrastlarni olish uchun foydalaniladi.

Interyerda katta bo‘linish va katta masshtabni yaratish vositalaridan biri konstruksiya hisoblanadi.

Zamonaviy me’morchilikda katta konstruksiya obrazning eng kuchli va kutilmagan tavsifini yaratadi. Yangi katta proletli konstruksiyalar va konstruktiv elementlardan foydalanish masshtab to‘g‘risida yangi tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Bu yerda shu konstruksiya qismlarini yaxlit bilan nisbatini topish juda muhim. Rimdagi katta sport arenasi. Ko‘polning umumlashtirilgan masshtabi (d=128 m) solishtirilganda mazmuniga javob beruvchi aniq badiiy effekt yaratilgan. Solishtirish asosiy mavzuning ahamiyatini ta’kidlovchi har xil masshtabdagi elementlarni taqqoslash, Interyerda juda muhim hisoblanadi.

**Interyerda san’at sintezi.** Me’morchilikning, rangtasvirning, va xaykaltaroshlikning sintezi – ta’sir qiluvchi va taassurot qoldiruvchi badiiy ifodalilik vositalaridan biri hisoblanadi.

Aniq badiiy obrazlarda va simvollarda ob’ektning mazmuni to‘liqroq ochilib berilishi mumkin.

Ob’ektning vazifasi va mazmuni ijodning asosi hisoblanadi. Ichki makonni o‘lchovlarini, uning konfiguratsiyasini hamda Interyerning badiiy g‘oyasini faqat mazmun aniqlab beradi.

## INTERYERDA RANGTASVIR VA MONUMENTAL SAN’ATI

Yaratilayotgan makonda rangtasvirga, plastikaga, polixromiyaga, xaykaltaroshlikka ajratilgan joy chegaralangan bo‘ladi. U me’mor tomonidan Interyerda aniq bir kompozitsiyaviy aksent sifatida tanlanadi.

Tomoshabin tasvirni qanday holda qabul qilishi juda muhim harakat davomida yoki turg‘unlikda, rakursda, qisqartirilgan yoki buzilmagan frontal kompozitsiya sifatida.

Zamonaviy Interyerlarda alohida ahamiyatga ega bo‘lmagan freskalar, xaykaltaroshlik san’ati va hokazolar boshqalar bilan birlikda yechiladi. Mebelning rangi, matosi, polning materiali boshqaruvchi element – monumental rangtasvirga bo‘ysundirilishi kerak.

Interyerda me’moriy asarning mohiyatini ochib berovchi, ko‘proq intensivlikda bo‘luvchi mazmun ochib berishi kerak bo‘lgan mas’uliyatli joylar mavjud. Shunday joylarga haykallar, freskalar, mozaikalar va hokazolar tashkil qilinishi kerak. (Toshkentda bilimlar uyi pannosi, A. Temur muzeyi va hokazolar). Plastik san’atning me’moriy makon bilan o‘zaro bog‘lanishi muhim shartlaridan biri o‘zaro bog‘langan masshtab hisoblanadi. U hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyatini saqlab qolgan. Tasvirlanuvchi predmetlarning o‘lchovini aniqlash, ularning inson va makon Interyeri bilan nisbatini aniqlash, tasvirning bo‘linish va kattalik me’yorini aniqlash monumental rangtasvirning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

## XULOSA

Me'morning ijodida ikkita muhim shart mavjud.

1. U hamma vaqt ijodiy g'oyaning izlashni ob'ektning mazmunidan boshlaydi. U hamma vositalar yordamida shu mazmunni eng yuqori darajada ochib berishini kerak va ob'ektda aniqlovchi, asosiycini qurishi kerak.

2. Interyer o'zining moddiy tomonidan asosiyni shunday topishi kerakki, u Interyerning hamma elementlarini bir joyga to'plab badiiy obrazni aniqlab berishga asos bo'lishi kerak.

Shuning uchun jamoat binolari Interyeri ustida ishlashni binolarni loyihalashdagi bir ijodiy jarayon deb qarash mumkin. Bu yerda shaharsozlik, tipologik, makon va uning ko'rinishini shakllantirish vazifalarini ilm va san'at masalalarini qo'shib birgalikda yechish kerak.

## ADABIYOTLAR:

1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.B., Petunina Z.V. Interyer obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Minkavichyus I.K. Interyer i monumentalno – dekorativnoe iskusstvo. Moskva. 1974 g.
3. Stepanov G.P. Kompozitsionnыe problemы sinteza iskusstvo. Leningrad. 1984 g.
4. Shvidkovskiy O.A. Garmoniya vzaimodeystviya. Arxitektura, monumentulnoe iskusstvo. M. Stroyizdat. 1984 g.

## MA'RUZA № 9

## GIGIENA TALABLARI VA REKREATSIYA TIZIMI

*Ma'ruza rejasi*

1. **Gigiena talablari**
2. **Rekreatsiya tizimi**

## TAYANCH SO'ZLAR:

1. **Vestibyul –** binoni tashqi muhit bilan bog'lovchi makon.
2. **Foye –** tomoshabinlarning tanaffus vaqtida dam olishi uchun makon.
3. **Kontrast muhit –** keskin farq qiluvchi dam olish muhitini yaratish
4. **O'quv xonalari –** sinflar, laboratoriyalar, kabinetlar va hok.
5. **Rekreatsiya –** sinflarni joylashishini va bolalarning dam olishini tashkil qiluvchi makon.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Madaniyat saroyi Interyerni qaysi xonalar yechadi.
2. Ichki makonni tashkillashtiruvchi kompozitsiyaviy vazifalari nimalardan iborat.
3. Maktabning Interyerini shakllantiruvchi xonalar guruxi nimalardan iborat.
4. Maktab Interyerini loyihalashda qo‘yidagi talablar nimalardan iborat.
5. Rekreatsiya – nima. Ularning qanday turlarini bilasiz?

**A. Gigiena talablari**

1) Yorug‘lik komforti: tekis yoritilish 1:5; doskaning uzoqligi; quyosh yorqinligini yo‘qotish.

2) Insolyatsiya, sinfning optimal orientatsiyasini ta’minlash – Sharqqa, janubga.

a) quyosh tusgichlar

b) shamollatish yoki sun’iy shamollatish

**B. Oliy nerv faoliyatining fiziologik va psixologik talablari**

1) Darslarga o‘suvchi stereotipdagi kayfiyatni tayyorlash. Sinf Interyeri kerakli darajada yorqin individual tavsifga ega bo‘lishi kerak.

2) Diqqatni yig‘ish. Hamma kerak bo‘lmagan seskantiruvchilarni yo‘qotish.

3) Kun davomida tabiiy muhitni o‘zgartirish bilan bosh miya qobig‘ining tonusini oshirish.

**V. Rekreatsiya tizimi.**

Rekreatsiya turi va uning o‘quv xonalari bilan boshlanishi maktabni umuman fazoviy tashkillashni va uning o‘z Interyerini tavsiflab berish.

4) Har bir sinf yoki ikkita sinf o‘zining rekreatsiyasiga ega. Odatda bu rekreatsiyalar ochiq osmon ostida bo‘ladi.

5) Sinflar guruhi uchun rekreatsiya

6) Zallik rekreatsiyalar – butun maktab uchun mo‘ljallangan.

Birinchi holda kommunikatsiyalar uzaytirilgan, taassurotlar o‘zgarishi kam. Shuning uchun hovlining yechimini ozroq murakkablash, o‘simliklarni ekish, ranglardan foydalanish va hokazo kerak.

Ikkinchi holda yoshiga qarab guruxga bo‘lish mumkin va bolalarning muloqoti shu guruh atrofida bo‘ladi. Rekreatsiyaning nisbatan katta o‘lchami turlilikni va kerak bo‘lgan makon kontrastini ham katta-kichikligiga, ham formasiga qarab yaratishi mumkin. U G-xarfiga o‘xshagan formada bo‘lishi mumkin.

Zallik rekreatsiyalar kichik hajmli maktablarga xos. Ular har xil iqlimli mintaqalarga xosdir. Ikki qavat balandlikda yorug‘likda har xil sathdagi zal, ikkinchi qavatda yuqoridan yoritilgan aylanma galereya va joyi munosib topilgan zinapoyalar va hokazolar.

## ADABIYOTLAR:


1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.B., Petunina Z.V. Interyer obщestvennыx i jilыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Barxin G.B. Metodika arxitekturnogo - proektirovanie obщestvennыx zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1993 g.
3. Arxitekturnoe proektirovanie obщestvennыx zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1993 g.
4. Frigmet G. «Chelovek – svet - prosranstvo» Moskva. 1979 g.
5. Pojarskoy A.E. Interyer obщestvennыx zdaniy. Pod. Red. Gosstroyizdat. M. 1973 g.
6. Ponomareva Ye.S. Interyer i oborudovanie grajdanskix zdaniy. Minsk. Vыsshaya shkola. 1976 g.


## MA’RUZA № 10

## UYNI FUNKSIONAL – REJALI TASHKILLASHTIRISH

*Ma’ruza rejasi*

Uyning makonini shakllantirishni aniqlovchi asosiy omillar.

**1. Interyerda iqlim sharoitini yaratish.**

Loyihada qo‘llaniladigan materiallar va konstruksiyalar.

**2. Ta’sir qiluvchi omillar**

Iqtisod – doimiy ta’sir qiluvchi omil.

Jamiyatning ijtimoiy darajasi omili.

## TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Uy – turar joy muhitining asosiy tuzuvchi yacheykasi bo‘lib, u yerda yashovchilarning talabini qondiruvchi hisoblanadi.
2. Mikroklimat – yashash uchun eng yaxshi iqlim sharoitini yaratish.
3. Iqtisod – uyning ichki makoni va uning Interyerini tashkil qilishga ta’sir ko‘rsatuvchi omil.
4. Funksiya – bu turar joy muhitini tashkil qiluvchi va shakllantiruvchi omil.
5. Ijtimoiy daraja – turar joylariga ehtiyojni keltirib chiqaruvchi jamiyatning tuzilishidagi uylarning o‘rni.
6. Uyning funksiyasi – individual hayot o‘rni va umum oilaviy muloqotlar joyi.

7. Uyning tuzilishi – uyning funksiyaviy aloqalar tizimi.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Turar joy nima?
2. Funksiya omili nimalardan iborat?
3. Iqtisod omili nima?
4. Jamiyat ijtimoiy darajasining turar joylarga ta’siri?
5. Kvartiraning makonini bo‘lish asoslari?
6. Uyning asosiy funksiyasi nimalardan iborat?
7. Uyning tuzilishi va uyning makonini bo‘lish.
8. Uyni xonalarga bo‘lish?

**Turarjoy binolari funksiyasi va kvartiraning makonini bo‘lish**

Xalq farovonligini oshirishning asosiy shartlaridan biror turar joy muammosini yechishdir. Turar joylar yashash uchun optimallashgan muhit, dam olish va ijodiy kuchni qayta tiklash uchun yordam berish, moddiy, ma’naviy va estetik talablarni uyg‘unlashib birikishiga olib keluvchi sharoitlarni yaratib berishga mo‘ljallangan.

Qulaylik tushunchasiga turar joylarning me’moriy makonlari yechimi, uning maydoni va hajmi, uyg‘unligi va xonaning balandligi kvartira jihozlarining tavsifi, turar joyning va turar joy kompleksining ijtimoiy turmush tarzini tashkil qilish, uning atrofdagi shahar muhiti va tabiiy muhit bilan bog‘lash kiradi.

Yuqorida aytilgan vazifalar me’mordan har xil oilalarning o‘zining uyiga qo‘yadigan o‘ziga xos xususiyatlarni bilishni, kvartirada bajariladigan asosiy funksional jarayonlarni bilishni, yonma-yon boruvchi va oralikdagi ilmiy ma’lumotlarni bilishni talab qiladi.

Uy – turar joy muhitining asosiy tuzuvchi yacheykasi. Ichki makonda jihozlarning elementlari bilan birga yaratilgan kompozitsiya uning Interyeri bo‘lib qoladi. Interyerning fazoviy tizimi turar joy yacheykasining rejali tuzilishini ifodalovchi hisoblanadi. Shuning uchun, uning asosi me’mor tomonidan loyihada, kvartira rejasini komponovka qilish jarayonida yaratiladi.

Uy Interyerini loyihalashda umumiy vazifa, funksional va estetik nuqtai nazardan u yerda yashovchilarning talablarini qondiradigan yacheykani yaratishga qaratilgan. Lekin me’mor bir tomondan bir xil tarkibli har xil oilalarning talabini qondirish va har qaysi alohida oilaning individual talabiga javob berishi kerak. Ikkinchi tomondan shu uyda har qaysi oiladagi o‘zgaruvchi talablarga bog‘langan holda Interyerni tashkil qilishda bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgartirishlarni hisobga olish kerak.

Bu vazifalarni birlashtirish, munosib keladigan yechimni topish me’morning vazifasi hisoblanadi.

## INTERYERDA IQLIM SHAROITINI YARATISH

I. Uyning makonini shakllanishini aniqlovchi asosiy omillar.

1. Uyning Interyerini loyihalashdagi asosiy vazifalar yashash uchun optimal muhitni yaratish hisoblanadi.

2. Interyerda eng yaxshi iqlim sharoitini yaratish.

Sovuq iqlim sharoitida sovuqdan saqlash muammosi.

Issiq va iliq iqlimli rayonlarda quyoshdan saqlagichlar, yaxshi shamollatishni tashkil qilish, sun'iy ventilyatsiya, insolyatsiya kabi vazifalar uyning ichki makonini tashkillashtiruvchi elementlar hisoblanadi.

Sovuq iqlimda sovuqdan saqlanish uchun uyning tashqi devorlar perimetrini qisqartirish ichki makonni tashkil qilishga ta'sir ko'rsatadigan elementlar hisoblanadi.

2. Loyixada qo'llaniladigan materiallar va konstruksiyalar.

Turar joy Interyerida kompozitsiyani ifodalash vositasi bo'lishi mumkin bo'lgan materiallarning dekorativ xossalari asosiy hisoblanadi. Yangi issiqlikni saklovchi xossaga ega bo'lgan effektiv materiallarni ishlatish devorlar qalinligi 15-20 smga kamaytirish imkonini beradi.

Bu yerda deraza o'rinlarining qiyaliklari o'zgaradi.

Qurilish materiallarini tanlash konstruktiv sxema va turar joy turi bilan mustahkam bog'liq.

Turar joyda konstruktiv sxema makonni uyda taqsimlanishiga ta'sir qiladi.

Bu yoki boshqa makon tizimi va ular orasidagi aloqa faqat ustunlarning o'rni va xarakteridan kelib chiqadi. Ko'ndalang devorlarning kichik qadami Interyer yechimiga keskin talablarni qo'yadi. Ko'ndalang devorlarning katta qadamida, makonlarni bo'lib chiqish konstruksiyaga bog'liq bo'lmasligi mumkin.

Turar joylarda konstruktiv sxemani tanlash binoni ko'rish uslubi va uning elementlari texnologiyasini joriy qilishga bog'liq. Konstruktiv elementlarni tipilizatsiyalash. Bu elementlar zavodlarda tayyorlanadi. Shuning uchun turar joyni uslubi ham o'zgaradi. Bir xil konstruktiv rejali usul bilan birlashgan va bir turdagi sanitar texnik jihozlarga ega bo'lgan har xil yuza va xonalar soniga qarab uylar seriyasi paydo bo'ldi.

Modul tizimi bazasida olib boriladigan seriyaga kiritilgan uylarni loyihalash xonalarning o'lchovlariga ta'sir qiladi va shunga ko'ra makonning uyg'unligini aniqlab beradi.

Xohlagan uyg'unlikka ega bo'lish uchun me'mor katta ijodiy ishni amalga oshirishi kerak.

Interyerni hajmiy elementlarni qo'llash asosida loyihalash o'ziga xos sharoitlarni yaratadi. Bu yerda bloklarning o'lchamlari va materiallari nimadan tayyorlanganligi ahamiyatga ega.

Hajmiy – fazoviy tizim bir nechta hajmiy elementlardan yoki butun uy ko‘rinishidagi bitta blokdan iborat bo‘lishi mumkin. Interyerning yechimiga oxirgi varianti ko‘proq erkinlik beradi.

## TA’SIR QILUVChI OMILLAR

**Iqtisodiy omil.** Iqtisod uyning ichki makoni va uning inter’erlarin tashkil qilishga ta’sir ko‘rsatadi. U boshqa omillar ta’sirini boshqarib boradi. Uylarda katta yuzalarni qabul qilishga qimmatbaho jihozlar va konstruksiyalardan foydalanishga qarshilik qiladi. Iqtisod turar joyning eng ratsional va to‘g‘ri yechimni izlashni qat’iy taqozo qiladi.

Keyinchalik xalqning farovonligi oshishi natijasida iqtisod omili ma’lum ahamiyatga ega bo‘ladi, lekin aniq sharoitlarga qarab tavsifi o‘zgarishi mumkin.

**Funksiya-doimiy ta’sir qiluvchi omil.** Makonning yaxshi tashkil qilinganligi va demak uyning inter’eri bo‘lishi faqat tashkil qilinganligi va demak uyning inter’eri bo‘lishi faqat funksional talablarga to‘liq mos kelgandagina amalga oshadi.

Funksiya - bu turar joy muhitini tashkil qiluvchi va shakllantiruvchi omillardan biri bo‘lib, doimiy ta’sir qiluvchi omillarga tegishlidir.

Turar joyda fiziologik ehtiyojlar va psixologik, estetik, ma’naviy xarakterdagi ehtiyojlar majmuasi keltirib chiqaradigan harakatlar bajariladi. Funksiya yaxshi yechilsa, demak hamma ehtiyojlar qondirilgan bo‘ladi. Funksional jarayonlar formani va makonni yaratadi. Shundan turar joyga xos ifoda kelib chiqadi.

Yaxshi topilgan makonning nisbatlari va to‘g‘ri yechilgan jihozlar sababli, ularning yordamida bajariladigan u yoki bu funksiya vaqtini, kuchni, energiyani sarflashni qisqartirishi mumkin.

Funksiyaning inter’er me’morchiligi yechimiga ta’siri ahamiyatli, lekin u boshqa omillar bilan birga harakat qiladi.

**Jamiyatning ijtimoiy darajasi omili.** U yoki bu turar joyga ehtiyoj, jamiyat tuzilishi va uyning ijtimoiy o‘rni bilan belgilanadi. Hozirgi kunda oilaning asosiy hayotiy jarayonlari uyda utadi. Lekin jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, ma’naviy o‘zgarishlarga qarab turar joylar funksiyasida ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. Uy ishlarini olib borish jamoat xizmat ko‘rsatish asosida bo‘ladi. Bu holda jamoa bo‘lib foydalanish va jamiyat tomonidan beriladigan moddiy manfaatlardan oilaviy-individual foydalanish formalarida bo‘lishi mumkin.

Uy mehnati qisman o‘ziga xizmat qilish ko‘rinishida saqlanib koladi.

Xar bir aytib o‘tilgan asosiy omillar ko‘p qirrali va har xil sharoitlarning yig‘indisi hisoblanadi. Alohida omillarning ta’sir darajasi bir xil emas. Lekin turar joy uchun funksional talablar murakkab majmua bo‘lgani holda, me’morchilikning inter’eriga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Funksional jarayonlarni o‘rganish «inson-predmet-muhit» tizimi orqali bo‘ladi va harakat davomining ob’ektiv bahosini beradi.

Zamonaviy hayot tarzida turar joylar kuchni tiklash funksiyasini saqlagan holda insonning fizik va ma’naviy kuchlarini rivojlantiruvchi joy bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari uyda har xil kundalik hayotiy jarayonlar va harakatlar bajariladi.

Shunday qilib, uyning asosiy funksiyalari qo‘yidagilar hisoblanadi:

1. Individual hayot o‘rni.
2. Umumoilaviy muloqotlar joyi.

Turar joylarning turli-tuman funksiyalari har xil oilalar uchun belgilarning umumiyligiga qarab qo‘yidagi guruhlarga bo‘lingan.

Biologik ehtiyojlar birligi bilan bog‘langan funksiya: (ovqatlanish, gigiena va hokazolar); bir yoki bir necha oila a’zolari uchun birga o‘tishi mumkin bo‘lgan jarayonlar funksiyasi; to‘liq birga bo‘lish mumkin bo‘lmagan jarayonlar funksiyasi.

Funksiyaning bu bo‘linishi uyning makonini bo‘lish va uning alohida xonalarini tashkillashtirish asosida yotadi. Har bir xona yuqorida ko‘rsatilgan guruhlardagi bir qator funksiyalarga mos keladi.

**Tuzilish.** Uyning funksiyaviy aloqalar (bog‘lanishlar) tizimi va uning makonini tashkil qilish, yashovchilarning soniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Har bir insonga uning ehtiyojlarini qondiruvchi o‘zining fizik makoni kerak bo‘ladi.

Uyning makonini bo‘lish aniqlovchi shart bo‘lib alohida funksional ehtiyojlarning birga bo‘lish omili xizmat qiladi. Har bir xonada qancha kam har xil funksiya bajarilsa, xona shuncha ko‘p nisbatda turmush qulayligiga ega bo‘ladi.

Lekin bir odamning dam olishi, ishi va uyqusi bitta xonada bajarilishi mumkin. Umumiy xonada ko‘p sonli funksiyalarning hammasi bir-biri bilan qo‘shilishi mumkin emas. Misol uchun, shovqinli dam olish sokin mashqlar bilan yoki bolalarning uyini, radio eshittirishlariga quloq solishi va televidenie dasturlarini ko‘rish bilan to‘g‘ri kelmaydi.

Bularni ajratib tashlash ko‘proq ko‘p bolali va katta oilalarga to‘g‘ri keladi. Kelajakda ikkita umumiy xonani loyihalashga to‘g‘ri keladi-shovqinli xona, sokin jarayonlar kechadigan xonadan ajratish.

Ovqat tayyorlash, oziq-ovqatlarni va har xil oshxonaning narsalarini saqlash funksiyasiga oshxona to‘g‘ri keladi. U hamma oila a’zolari uchun bitta ehtiyojni qondirishga to‘g‘ri keladi.

Shaxsiy gigiena bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar tozalik tugunlari xonalarida (san.uzlы) jamlanadi. Lekin hamma tadbirlarning bitta xonada jamlanishi ikkita odamdan ko‘p bo‘lgan oilalarda uyning qulayligini kamaytiradi. Shuning uchun cho‘miladigan xona bilan xojatxona alohida loyixalanadi.

Kirish xonasi (perednyaya) uyning alohida xonalarini bog‘lovchi hisoblanadi va uyni ko‘cha bilan ham bog‘laydi.

Uyning alohida xonalari bo‘lib yashash xonalari - umumiy xona, uyqu xonasi: yordamchi xonalar - oshxona, hammom, hojatxona va kirish xonalari hisoblanadi. Ulardan tashqari ochiq makonlar-lodjiyalar, terrasalar, balkonlar va hokazolarni bo‘lgani yaxshi. Ular uyda sog‘lomlashtiruvchi rolni bajaradi. Kelajakda xonalar tarkibi ko‘payishi mumkin; alohida umumiy xonalar bolalar va kattalar uchun oshxona oldida ovqatlanish xonasi, xo‘jalik xonalari, yotoqxonalar oldida kiyimxona, ikkita shaxsiy gigiena va hokazolar. Bular yashash uchun ko‘proq darajadagi qulaylikni ta’minlaydi.

## ADABIYOTLAR:

1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.E., Petunina Z.V. Inter’er obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Arxitekturnoe proektirovanie jilых zdaniy. Stroyizdat Moskva. 1973 g.
3. Memanov B.Sh. Sovremennaya kvartira. Moskva. 1975 g.

# III BOB
# TURAR JOY BINOLARINING INTERYERI

## MA'RUZA № 11

## XONALAR ORASIDAGI O'ZARO BOG'LANISH

*Ma'ruza rejasi*

1. **Zonalashning (chegaralashning) xarakterli usullar.**
2. **Xonalarning turlari.**

Bir tomonlama yorug'lik frontal kvartiralar.
Ikki tomonlama yorug'lik frontal kvartiralar
Uch tomonlama yorug'lik frontal kvartiralar.
Murakkab perimetrli kvartiralar.

### TAYANCH SO'ZLAR:

1. Funksional zonalash - uydagi asosiy jarayonlarni bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda tashkil qilish.
2. Yorug'lik fronti - xonalarga tabiiy yorug'lik tushishini ta'minlovchi devorlarga qo'yiladigan bo'shliqlar.

### O'ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Turar joylarini funksional zonalash qanday prinsiplarga asoslanadi?
2. Uylar nimaga asoslanib qanday guruhlarga bulinadi:
3. Bir tomonlama yorug'lik frontli uylarni tashkil qilish?
4. Ikki tomonlama yorug'lik frontli uylarning inter'erini tashkil qilishning xususiyatlari?
5. Uch tomonlama yorug'lik frontli uylarning inter'erini shakllanishi?
6. Murakkab primetrli kvartiralarni tashkil qilish?

### ZONALASHNING XARAKTERLI USULLARI

Xonada yashash qulayligi ko'p jixatdan xonalarning o'zaro joylashishiga bog'liq. Uydagi hamma asosiy jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshishi kerak.

Turar joyni funksional zonalash qo'yidagi xarakterli prinsiplarga asoslangan:

- yoshiga qarab, ota-onalar va bolalar zonasi ajratiladi va ularning har qaysisida kunduzgi va tungi funksiyalar quriladi;
- jarayonlarning har xilligi, shuning bilan jamoat intimli va ularni bog'lovchi xizmat qilish zonalariga ajratiladi;

- kecha-kunduz vaqti bilan, turar joy yacheykasi makonni ikki xarakterli xonalar guruhiga, kunduzgi va tungi foydalanishga bo‘linganda.

Xonalarni sokin va shovqinli zonalarga bo‘lish, ularning bir aniqlikda ajratish va o‘zaro aloqasi muhim momentlardan biri hisoblanadi. Turar joy yacheykasining makonini yaxshiroq tashkil qilish uyni ikki sathda yechimini berganda amalga oshadi (kunduzi kerak bo‘ladigan xonalar bitta qavatda, yotoqxona, hammom va boshqalar boshqa qavatda joylashadi).

Bitta sathda yechiladigan uylar uch xil variantda bo‘lishi mumkin:

1. Yotoqxonalar kunduzi bo‘lish xonalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan. Uylar zonalarga aniq bo‘linadi.
2. Yotoqxonalaradan bittasi kunduzi bo‘lish xonalari bilan bog‘langan.
3. Yotoqxonalar kunduzgi bo‘lish xonalaridan ajratilmagan.

## XONALARNING TURLARI

Inter’erni tashkil qilish turar joyning qabul qilingan turiga va uning (kvartiraning) o‘rnashgan joyiga bog‘liq bo‘ladi.

Uyni loyihalashdagi qiyinchiliklardan biri yorug‘lik frontalining qanchaligi. Yorug‘lik frontining joylashuvchiga qarab uylarni qo‘yidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

- bir tomonlama yorug‘lik fronti;
- ikki tomonlama yorug‘lik fronti, burchak bo‘lib yoki qarama-qarshi tomonlarda joylashgan;
- uch tomonlama yorug‘lik fronti;
- yorug‘lik urinlarini erkin perimetr bo‘ylab joylashtirish;
- murakkab perimetrli;

Har qaysi gurux uchun o‘zining xarakterli funksional-rejaviy imkoniyatlari mavjud.

**A. Bir tomonlama yorug‘lik frontli kvartiralar**

Ular asosan koridorli uylarga to‘g‘ri keladi, lekin seksiyali, galereyali, blokirovka qilingan binolarning uylarida ham uchrab turadi. Uyni rejasini tashkil qilishda kirish qismining holati ham ta’sir qildi. Kirish burchakdan yoki yorug‘likga qarama-qarshi devorning o‘rtasida o‘rnatilishi mumkin.

Kirishni burchakda joylashtirish kartiraning rejasini murakkablashtiradi. Bu holda uzun koridor va umumiy xonadan o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bunday joylashish bir va ikki xonali uylarga xarakterlidir. Uch-to‘rt xonali uylarda qiyinchilik xususiyatlari paydo bo‘ladi. Kirishni devor o‘rtasidan o‘rnatish. Uy rejasida bir qator ustunliklar kiritadi.

1. Umumiy xonalardan o‘tilmaydi.
2. Oshxona va tozalik tugunini ajratib loyihalash uyni aniq xonalar orasida zarur bo‘lgan aloqalar bilan zonalarga differensiatsiya qilinadi.
3. Kirish katta ahamiyatga ega.

Yorug‘lik frontining bir tomonlama holati ikki sathdagi uylarda uchraydi (koridorli, blokirovka qilingan, galereyali va hokazolar). Blokirovka qilingan binolarda uyning birinchi qavati rejasi qiyinlashadi. Umumiy xona o‘tuvchi bo‘lib qolishi yoki oshxona bilan umumiy xonaning aloqasi buziladi.

Bir tomonlama yorug‘lik frontli uylarning umumiy kamchiligi o‘tuvchi shamollashishning (skvoznoy) yo‘qligi, bu hol sanitar-gigienik holatni pasaytiradi.

**B. Ikkitomonlama yorug‘lik frontli kvartiralar**

Bu gurux har xil bo‘lgan xonalar bilan alohida ajratilib turadi.

1. Yorug‘lik fronti ikki qarama-qarshi devorlarga joylashgan. Kirishning joyi bu yerda bino turiga bog‘liq. Seksion uylarda kirish-daxliz odatda markazda bo‘ladi.

2. Oshxona, vannaxona va xojatxona bu turdagi binoda yoki kirishda, yoki uyning ichkarisida blokirovka qilinadi. Vannaxonani tashqi devorda joylashtirishning ustunligi, uni tabiiy yoritish, hamda uyning asosiy zonalarga bo‘lishda aniqlikka erishilishda. Bu holda uyning kompozitsiyaviy markazi bo‘lib ovqatlanish zonasi uzayadi.

Ikkita yotoqxonadan ko‘proq bo‘lgan uylarda funksional bog‘lanishlar buziladi. Uy ichidagi kommunikatsiyalar (koridorlar) uzayadi.

3. Oshxona va tozalik tugunining mustaqil joylashuvi uydagi xonalarni qulayroq joylashtirish imkonini beradi. Bu holda yorug‘lik frontining ikki tomonda joylashishi uyning makonini tashkil qilish har bir zonaning mustaqil qilishda turli kompozitsiyaviy usullarni qo‘llashga imkon yaratadi.

Ustunliklari ishlashi; zonalarni yotoqxonalardan biri orqali birlashtirish mumkin, shunda u shlyuz orqali ajratilmagan bo‘ladi. Zonaga o‘tish faqat kunduzgi zona orqali bo‘ladi.

Ikki tomonlama orientatsiyaga ega bo‘lgan kvartiralar koridorli, blokirovkali, galereyali uylarda ikki uch sathli qilib loyixalangan bo‘lishi mumkin.

Ikki qavat qilib yechiladigan uylar zinapoyalarning umumiy xonada yoki daxlizdagi joylashishiga qarab ajratib turadi.

Koridorli uylarda kvartiralar koridorning sathida uyning kengligining yarmini va to‘liq enini yuqoriga yoki pastki sathda egallaydi. Hamma kunduzgi xonalarni birinchi sathda joylashtirilganda umumiy xona kichik bo‘ladi. Oshxonaning o‘lchamlarini oshxona nishgacha kichraytirilsa umumiy xonaning yuzasini qo‘shni prolet hisobiga kengaytirilganda bo‘lishi mumkin. Ikki qavat balandlikdagi umumiy xonali uylar ham uchrab turadi. Umumiy xonaning bunday balandligida uning yuzasini anchagina ko‘paytirish kerak bo‘ladi (bo‘lmasam xonaning uyg‘unligi o‘zgaradi).

Ikki yon tomonlama turg‘un yorug‘lik frontlilik uylar burchakli yorug‘lik frontli kvartira turli tipdagi uylarning eng chetida joylashgan bo‘ladi. Murakkab konfiguratsiyalik va bitta seksiyada uylarda ham bo‘ladi.

Inter’erni funksional-rejaviy tashkil qilish kirish joyini o‘rnidan va oshxona bilan tozalik tugunining o‘zaro qanday joylashganiga bog‘liq.

Burchakdagi tashkil qilingan kirishdan, oshxonaning tozalik tuguni bilan blokirovka qilinganda funksional aloqalar to‘g‘ri yechilmaydi.

**V. Uch tomonlama yorug‘lik frontli kvartiralar**

Uyni uch tomonlama yoritish uni rejalashni yengillashtiradi. Bunday kvartiralar ikki xonali uylarda, bashnyali uylarda ham boshqa hamma uylarning chetida bo‘lish mumkin. Bu kvartiralar turi besh xonali qilib loyihalanadi. Eng yaxshi orientatsiyani tanlashi mumkin. Blokirovka qilingan oshxona va tozalik tugunlarida va ajratib qo‘yilganida kvartiralar bir xilda qulay bo‘lishi mumkin.

Erkin perimetrli kvartiralar bitta kvartirali uylarga xos. Kvartirani erkin loyihalashni tashkil qilish evaziga bu yerda inter’erning turli xil makon kompozitsiyasi yechimini olish mumkin.

**G. Murakkab perimetrli kvartiralar**

Bunday kvartiralarning katta guruhini ichki yarim yopiq va yopiq hovlilar bilan loyihalangan kvartiralar tashkil qiladi. Bu yerda yaxshi insolyatsiya va shamollatish amalga oshiriladi. Ichki hovlili kvartiralar funksional va me’moriy-badiiy makonni tashkillashtirishning hamma kerakli sifatlariga ega. Yorug‘lik frontining hovliga qaratilgani sababli tashqi devorlar hamma yog‘i berk bo‘lib yengil blokirovka qilish imkonini beradi va bunday kvartiralar «gilam» qurilishini tashkil qiladi. Bu esa o‘z navbatida qurilish zichligini tashkil etadi.

G-shaklli kvartiralar yarim yopiq hovlilarda ko‘proq qo‘llaniladi. Ular boshqa kvartiralarga nisbatan bir qator qulayliklarga ega.

1. Oson va aniq konstruksiyaviy sxemaga ega-kundalang devorlarning yoki karkasining bir qadami.
2. Xonalar orasidagi yangi bog‘lanishlar. Yotoqxonalar bir tomonda boshqa xonalar ikkinchi tomonda joylashgan.
3. O‘zaro oson blokirovka qilinadi.
4. Ularni ko‘p qavatli uylarda ham qullash mumkin.
5. Hovli orqali tabiat xonalar bilan zich bog‘lanib. Qulay sharoitlarni yaratishga imkon beradi. U yashil xona bo‘lishi ham mumkin.

**ADABIYOTLAR:**

1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.B., Petunina Z.V. Inter’er obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyidat. 1973 g.
2. Arxitekturnoe proektirovanie jilых zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1973 g.
3. Memanov B.Sh. Sovremennaya kvartira. Moskva. 1975 g.

## MA’RUZA №12

## XONALARNING ELEMENTLARI

*Ma’ruza rejasi*

1. **Funksional zonalar**
2. **Umumiy xona, yotoqxona va bolalar xonasi**

### TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Kvartira makoni - xonalarning soni va ularning o‘zaro bog‘lanishi.
2. Kvrtiraning qismlari - xonalarning o‘lchamlari, yuzasi, konstruksiyasi va hokazolar.
3. Xona funksiyasi - bir jarayon uchun aniq makon sharoitini yaratish.
4. O‘rnini o‘zgartiruvchi mebellar har xil tizimdagi va konstruksiyadagi seksiyali mebellar.
5. Joyida ishlab chiqiladigan - sanoatda modul asosidagi setkada ishlab chiqiladi va nimalarda qurilishi yoki shkav-devorlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.
6. Umumiy xona - oila a’zolarining umumiy muloqotda bo‘ladigan joyi.
7. Yotoqxona – dam olish, ishlash va uxlash sharoitini yaratib beruvchi xona.
8. Bolalar xonasi - bolalarning dam olish, uxlashi va o‘ynashi uchun ajratilgan xona.
9. Kiyimxona - kiyim, poyabzal va chemodanlar saqlanadigan xona.

### O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bo‘lajak kvartiraning loyihalash etaplari nimalardan iborat?
2. Kvartira jihozlarining ko‘rinishlari?
3. Umumiy xonaning funksional zonalash asoslari?
4. Ovqatlanish zonasi?
5. Dam olish zonasi?
6. Ish zonasi?
7. Umumiy xonani yoritish talablari?
8. Yotoqxonalarning turlari va xarakteri.
9. Bolalar yotoqxonasini tashkil qilish muammolari?
10. Kiyimxona nima?

### FUNKSIONAL ZONALAR

Inter’erni loyihalashda birinchi bosqich bo‘lajak kvartira makonining asosi va uning qismlari aloqasi aniqlanadi. Xonalarning taxminiy o‘lchovlari,

yuzasi hamda konstruksiyaga, tozalik tugunlarining joylashishi, yorug‘likka qarab makonni bo‘lib chiqish.

Ikkinchi bosqich - har bir alohida xonaning funksiyasi aniqlanadi va ularning o‘lchamlari uyg‘unligi aniqlanadi.

Har bir maishiy jarayon uchun o‘zining aniq makon sharoiti kerak.

1. Zarur bo‘lgan jihozlar yig‘indisini joylashtirish imkoniyatini yaratish.
2. Bu jihozlardan foydalanishda insonga qulaylik yaratish.
3. Hamma predmetlarga erkin yondashish.

Shunday qilib, kvartiraning har bir xonasi o‘zining hajmida funksional zonalarning yig‘indisini aks ettiradi.

Endigi vazifa xonalarning makonini funksional zonalar orasidagi aloqalarni, ularni ratsional joylashtirish, tashkillashtirish bilan bog‘liq.

Sxema tanlangandan so‘ng, kvartiraning inter’erini ishlashga kirishishdan oldin insonning kun kechirishi nuqtai nazaridan kvartirani ekspluatatsiya qilishni hisobga olib makonlarning o‘zaro aloqasini aniq tasavvur qilish kerak.

Tasavvur qilish uchun uyning rejasida hamma jihozlarni har bitta xonaga chizib chiqish kerak. Bu jarayonda bo‘lajak yashovchilarning ehtiyojlariga nisbatan javob beradigan hamma ko‘rinishda jihozlangan funksional zonalarni bo‘lishning har xil variantlari paydo bo‘lishi mumkin.

Funksional jarayonlarning murakkabligi va ko‘p xilligi qisilganlik hissini tug‘diruvchi makon yutishi mumkin bo‘lgan ko‘p nazaridan bog‘lanishi kerak.

Hozirgi vaqtda kvartiralarning ikki ko‘rinishidagi jihozlari mavjud - o‘rnini o‘zgartiruvchi va joyida qurilgan mebellar.

Eng yangi o‘rnini o‘zgartiruvchi mebellar har xil tizimdagi va konstruksiyadagi seksiyali mebellar hisoblanadi.

Joyida qurilgan mebellar nishalarda qurilishi yoki shkaf-devorlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Sanoatda bu yoki boshqa mebel rejaning modul asosidagi setkasida ishlab chiqiladi. (1 m. 20 sm)

Vertikal bo‘yicha bo‘laklarga bo‘linish alohida bo‘shliqlardan foydalanish uchun insonning fizik o‘lchovlariga bo‘ysundirilgan bo‘ladi.

Seksiyali mebel tayyor seksiya ko‘rinishida yoki keyin yig‘ilishi mumkin bo‘lgan alohida detallar shaklida bo‘lishi mumkin. Transformatsiya qilinadigan mebellar seksiyasi ham bo‘ladi.

Shkaf-devorlar eng zamonaviy jihozlar turi hisoblanadi. Ular bir vaqtning o‘zida devor bo‘lib xizmat qiladi va kvartirada mebelning katta qismini egallaydi. Har doimgi mebel yashash xonalari nomining 40% tashkil qilsa, shkaf-devorlarda, joyida qurilgan mebellarda polning 30% egallangan bo‘ladi.

Shkaf-devorlar bir va ikki qatorli kilinadi. Xizmat qilish xarakteriga qarab bir tomonlama va ikki tomonlama va hokazolar boʻlishi mumkin. Xonalar guruhiga xizmat qilish uchun uch-toʻrt tomonli shkaf-devorlar boʻlishi mumkin. Joyida qurilgan jihozlar elementlari uchun 45 sm, ustki kiyim va ichki kiyim uchun 60 sm boʻladi.

Joyida qurilgan shkaf-devorlarni oʻrnini topish konstruksiya tizimiga bogʻliq.

Zamonaviy kvartiralarni jihozlarida joyi oʻzgaradigan devorlar keng qoʻllaniladi. Bular xonani har xil rejalash imkonini beradi. Hamma xarakatchan qurilmalar konstruksiyasi asosida yoʻlakchalarning shipga oʻrnashgan boʻladi. Ularga maxsus roliklar yordamida devorlar polotnosi osiladi.

**Umumiy xona**

Umumiy xona kvartiraning rejasida markaziy joyni egallaydi va boshqa xonalardan yuzasining kattaligi bilan farq qiladi. Umumiy xonani tashkil qilish kvartiraning oʻtkazilishiga bogʻliq. Bir odamga qancha koʻp yuza ajratilsa umumiy xonaga shuncha kam funksiya toʻgʻri keladi. Umumiy xonada bajariladigan koʻpchilik funksiyalar gruppalarga boʻlinadi va har bir guruhga oʻzining makondagi zonasi tashkil qilinadi: dam olish zonasi, ovqatlanish zonasi, ish zonasi, uyqu zonasi va baʼzida bolalar zonasi.

Interʼerning kompozitsiyasida zonalardan biri boshqaruvchi hisoblanadi. Dam olish zonasidan soʻng dam olish uchun sharoit yaratadi. Shuning uchun uning yorugʻlikga nisbatan xohlaganday boʻlishi mumkin. Dam olish zonasining asosiy jihozlari divan, kreslolar, jurnal uchun, qoʻl mehnati, kitoblar polkasi va turli narsalar, radio, televizor apparatlari va hokazolar uchun stoliklar. Kreslo, divan va stoliklarni guruhlashga qarab dam olish zonasini tashkillash har xil boʻlishi mumkin.

Zonaning oʻlchamlari mebelni joylashtirishning har xil kombinatsiyalaridan va kvartiradan foydalanishda paydo boʻladigan koʻp xildagi talabalarga mos boʻlgan maxsus jihozlarning joylashuvidan kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtda umumiy xonada oʻtkaziladigan eng keng tarqalgan dam olish turi birgalikda tele eshittirishlarni koʻrish yoki musiqa eshitish hisoblanadi. Shuning uchun, kreslo va divanning gruppirovka qilish televizor yoki radioapparaturaga qarab boʻladi. Televizor alohida stol-tumbalarda boʻlishi mumkin. Bu qoʻshimcha yuzani talab qiladi. Bundan tashqari seksiyali yoki joyida qurilgan mebellarning maxsus polkalarida joylashishi mumkin.

3-zonasi ovqatlanish. Bu zonaning umumiy xonada joylashishi oshxonaning oʻrniga bogʻliq. Ovqatlanadigan stol erkin xizmat qilishiga imkon yaratadigan joyda oshxonaga yaqin joylashgan boʻlishi kerak. Koʻpincha devorlardan birining yoniga qoʻyiladi.

Ovqatlanish zonasining asosiy jihozlari ovqatlanish stoli va kerakli sondagi stullar. Rasmda ovqatlanish stoli holatining har xil variantlari va shu xildagi kerakli o‘lchamlari berilgan. Ulardan tashqari ovqatlanish zonasida idishlarni qo‘yadigan shkaflar va servirovka qiladigan stollar ham qo‘yiladi. Ko‘pincha oshxona bilan umumiy xona o‘rtasida juda qulay va kam joy oladigan shkaf devorlar qo‘yiladi.

Umumiy xonaning ish zonasi qaysidir darajada ajratiladi va kunduzgi qurilmalar nisbatan to‘g‘ri joylashadi.

Ish zonasi maxsus stollar, seksiyali mebellardan ochilib yopiladigan qurilmalar va devor-shkaflarning bo‘limlarida, bundan tashqari kitob qo‘yadigan polkalar bilan jihozlanadi.

Ko‘rib chiqilgan umumiy xonadagi funksional zonalarning har qaysisi aniq bir sharoit va yuzalarga ega bu o‘z navbatida umumiy xonaning o‘lchamlari va eshiklar o‘rnining joylashishiga bog‘liq. Xonaning mutanosibligi ham katta ahamiyatga ega. Umumiy xonalarning mutanosibligi turlicha bo‘lishi mumkin. Umumiy xonani tashkillashtirish uchun kvadrat yoki kvadratga yaqin formalar qulay hisoblanadi.

Shunday mutanosibliklarga ega bo‘lgan o‘tuvchi xonalar zonalarni boshqacha tashkil qilish imkonini beradi. Ularda hamma holat eshiklarining xonadagi o‘zaro o‘rniga bog‘liq. Eshiklarning o‘rni bir burchakdan bo‘lsa makonni bo‘lishda nisbiy erkinlik paydo bo‘ladi. Eshiklardan biri devorning o‘rtasida joylashgan ozgina zonalarga bo‘lishda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bu bo‘lakda qaysidir zonani tashkil qilish yo‘lakning uzunligi uchun iloji yo‘q. Eshiklarni diagonal bo‘yicha o‘rnatishda butun xonani kesib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Zonalarni tashkil etish bu holda xonalarning 1:1 yoki 1:1,5 nisbatda ham keskin qisqaradi. Hech qaysi zona kerakligicha ajratilgan bo‘lolmaydi. Eshiklarni diagonal bo‘yicha o‘rnatish eng yomon variant hisoblanadi.

Ba’zida xonani zonalarga bo‘lishga imkoniyat kvartirani loyihalashning birinchi stadiyasiga umumiy xona murakkab ko‘rinishga ega bo‘lganda paydo bo‘ladi. Xonada har xil o‘lchovdagi asosiy devorlar va to‘siqlar bilan chegaralangan nishalar paydo bo‘ladi. Bunday nishalarda krovatlar (alkov sifatida) yoki ovqatlanish stoli, stullari bilan va unga qulay yondashish imkoniyati bilan qo‘yiladi. Nishali va alkovli xonalar foydalanishda qulay va makonning yechimida qiziqarli bo‘ladi. Bu yerda yig‘iladigan to‘sinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikki sathda yechiladigan kvartiralarda umumiy xonadagi zinapoya evaziga nishalar paydo bo‘lishi mumkin. Bu joy ovqatlanish yoki dam olish zonasi bo‘lishi mumkin. Agar zinapoya yopiq bo‘lsa va unga kirish boshqa xonadon bo‘lsa, nisha paydo bo‘ladi va undan zonalardan biri uchun foydalanish mumkin.

*B. Umumiy xonani yoritish.* Umumiy xona inter’erida sun’iy yorug‘likni tashkillashtirish katta ahamiyatga ega. Bu yerda yorug‘lik manbalarini va sonini to‘g‘ri aniqlash juda muhim. Sun’iy yorug‘lik aniqlanganda kompozitsiyasida ahamiyatli rolni sun’iy yoritgichlarning funksional zarurligi bilan bir vaqtda inter’er kompozitsiyasida ma’lum darajadagi rolni bajaruvchi yoritgichlar holatining dekorativ xossalaridan bilib foydalanish kerak.

Umumiy xona uchun umumiy yorug‘lik zaruriydir. U yumshoq tarqatuvchi (plafonlar, butun shipning chiziqlari bo‘yicha yoki qisman o‘rnashgan lominitsent trubalardan chizilgan yorug‘lik bo‘ladi).

Dam olish zonasida torshenlar yoki pastga tushiriluvchi yorug‘lik formalaridan foydalanish mumkin. Ish zonasiga ham hamma vaqt foydalaniladigan turg‘un yorug‘lik zarur.

## Yotoqxonalar

Yotoqxona turar joyning asosiy xonalaridan biri hisoblanadi. Le Korbyuzening fikri bo‘yicha «U insonning hamma talablariga javob beradigan tugallangan va mukammal bo‘lishi kerak»

U yerda o‘zini atrofdagi shovqindan chegaralab olib shu sharoitda dam olishi, ishlashi va uxlashi mumkin.

Zamonaviy kvartiralarda uch xil yotoqxonalar loyixalanadi: ikki kishiga mo‘ljallangan - er-xotin uchun, bir xil jinsdagi ikki kishi uchun va bitta o‘rinli yotoqxonalar.

Yotoqxonalarning soni va xarakteri kvartiraning turini va uning rejaviy sxemasini aniqlab beradi. Turar joyning asosiy turi 3-4 xonali kvartiralar hisoblanadi. Yotoqxonalarning o‘lchamlari gigiena talablari va mebellarni qo‘yib chiqish imkoniyatlariga qarab aniqlanadi. Qabul qilingan eng kichik yotoqxona yuzasi ko‘p davlatlar 6 $m^2$. Bizda esa o‘rtacha 8-9 $m^2$ yuza qabul qilingan.

Mazkur yuza kattalar uchun ham, (kitob javonlari qo‘shiladi) bolalar uchun ham (o‘ynash burchagi yoki shug‘ullanish o‘rni) o‘zining fazoviy sharoitlarini yaratish imkonini beradi. Agar eshikning o‘rni oynaga perpendikulyar bo‘lgan devorda joylashsa eshikning derazaga yaqinroq joylashganida yotoqxona qulay bo‘ladi.

Ba’zi hollarda krovatning o‘rniga divan-krovatni qo‘llash mumkin. Ayniqsa yoshlar xonasida. U holda yotoqxonada ham mexmonlarni qabul qilish mumkin.

Yotoqxonada krovat uchun to‘g‘ri keladigan joyni topish mumkin. Yotoqxonada ikkita krovat qo‘yiladigan bo‘lsa ikkalasi uchun bir xil sharoit yaratiladi. Har bir krovatga erkin yondoshish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Yotoqxonalarning jihozlari - krovat, tualet stoli, banketkasi. Ichki kiyimlar, kiyimlar va poyabzal uchun shkaflar, ishlash uchun stol va stullar.

Yotoqxonaning inter’erini tashkil qilishda xonaning mutanosibligi va jihozlarning xarakteri muhim rolni uynaydi. Yotoqxonalarni mebellar garnituri bilan jihozlash ko‘proq er-xotinlarning xonalariga to‘g‘ri kelmaydi. Boshqa tipdagi yotoqxonalar ular uchun to‘g‘ri kelmaydi. Kiyim shkaflari katta bo‘lib, ko‘p joyni egallaydi va shu bilan birga ehtiyojni to‘la qondirmaydi.

Joyida qurilgan shkaflar sekretarlarning o‘rni, kitoblar uchun polkalar va har xil yashiklari bilan yotoqxonalar uchun eng yaxshi jihozlardan hisoblanadi. Joyida qurilgan shkaflarda qayirma krovatlarni o‘rnatish mumkin. Ularni kunduzi yig‘ishtirib o‘rnidan boshqa maqsad uchun foydalanish mumkin. Ikki kishilik yotoqxonada xonani mustaqil zonalarga bo‘lishning iloji bo‘lmaydi. Bunday xonalar umumiy uyqu va umumiy ish joyi zonalariga ega bo‘ladi. Ota-onalarning yotog‘ida hamma vaqt yorug‘likka ega bo‘lgan va erkin yondoshishning imkonini beradigan bolalar krovatini qo‘yishni nazarda tutish kerak.

Ba’zida yotoqxonada nishalar ham bo‘lishi mumkin. U yerda bolalar yoki ish zonasi tashkil qilish mumkin.

**Bolalar yotoqxonasi.** Ularning yuzasi boshqa yotoqxonalar bilan bir xil bo‘ladi.

Bolalar xonasini jihozlashda bolalarni uynashi uchun ko‘proq makon qoldirishi kerak. U yerda har xil yig‘iluvchi mebellar, ikki yarusli krovatlar va hokazolar bo‘lishi mumkin.

Yotoqxonalarning sun’iy yorug‘ligi funksional ehtiyojga javob berishi nuqtai nazaridan aniqlanadi. Xonaning markazida muloyim umumiy yorug‘lik o‘rnatiladi. Ish stoli, tualet stoli yonida, krovatlarning yonida qo‘shimcha yoritgichlar o‘rnatiladi.

**Kiyimxona.** Bu uncha katta bo‘lmagan kiyim, poyafzal chemodanlar va hok. saqlanadigan xona. Kiyimxonalarni joyida qurilgan mebellar bilan nisbatan qurish osonroq va arzonroq tushadi. Eng kichik yuzasi 1,2 $m^2$. Ba’zida kiyimxona joyida qurilgan shkaflar tizimi bilan birlashtiriladi. Agar shkaflar rejali kerakli xonalar bilan bog‘langan holda joylashgan bo‘lsa, ular maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ba’zida ular yotoqxonalar oldida joylashishi mumkin, u holda kiyimxonadan kiyimlarni almashtirish uchun foydalanish mumkin.

## ADABIYOTLAR:


1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.V., Petunina Z.V. Interyer obщestvennыx i jilыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 .
2. Arxitekturnoe proektirovanie jilыx zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1973 g.
3. Memanov B.Sh. Sovremennaya kvartira. Moskva. 1975 g.

4. Zinger B.I. Vstroennoe oborudovanie dlya jilых zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1984 g.
5. Markovski B. i dr. Kak obstavit sovremennuyu kvartiru. Texnika. Sofiya. 1972 g.

## MA’RUZA № 13

## OSHXONA, TOZALIK TUGUNLARI VA DAHLIZ

*Ma’ruza rejasi*

Oshxona
Tozalik tugunlari
Daxliz
Bir xonali kvartiralarning Interyerini loyihalash xususiyatlari
Bir xonali kvartiralarni loyihalashni aniqlovchi faktorlar.

### TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Oshxona – oziq-ovqatlarni va oshxona uskunalarini saqlash maxsulotlarni tozalash, ovqat tayyorlash, ovqatlanish va yig‘ishtirish tugunlaridan iborat bo‘lgan xona.
2. Tozalik tuguni – tozalikni va gigienani saqlash joyi.
3. Daxliz – kiyim shkafi va kirish vestibyuli uchun ajratilgan joy.

### O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Oshxona tugunlari nimalardan tashkil topgan?
2. Oshxona jihozlarining elementlari nimalardan iborat va u qanday guruxlarga bo‘linadi?
3. Oshxonani jihozlash usullarini yoritib bering?
4. Qanday oshxona turlarini bilasiz?
5. Tozalik tuguni qanday tashkil qilinadi?
6. Daxliz nima?
7. Bir xonali kvartiralarni loyihalashni aniqlovchi faktorlar nimalardan iborat?

### *Oshxona*

Hozirgi oshxona uyni rejalashda ahamiyatga ega bo‘lgan elementlardan biri hisoblanadi. Oshxonaning uy rejasidagi holati kvartira Interyerning butun makoniy boshlanishlariga ta’sir qiladi.

Oshxonaning hozirgi kundagi eng kichik o‘lchovi 8 $m^2$ qabul qilingan. Bu makonda oshxonani zamonaviy mebellar bilan yaxshi tashkil qilish mumkin. Qulay tashkil qilingan, texnikaviy jihozlangan oshxona vaqtni yaxshi o‘tkazadigan va oila a’zolari bilan hamma vaqt muloqotda bo‘ladigan joyga aylanadi. Hozirgi texnikaviy jihozlar kvartirani xid, bug‘,

tutunni tarqalishidan himoya qilishi natijasida oshxonani ajratib qo‘yishga hojat qolmaydi. U umumiy xonaning qismi bo‘lib qolishi mumkin. Oshxonani umumiy xonadan ayirish rasmiy bo‘lib, ochiq polkalar yoki shkaflar, harakat qiluvchi to‘siqlarni o‘rnatish yo‘li bilan amalga oshadi. Statistikadan berilgan rakamlarga qaraganda ayollar oshxonada kuniga 2 dan 4 soatgacha vaqtlarni o‘tkazishadi. Bunday holatda oshxonaning makonini tashkillanishi va jihozlari ayol mehnatini yengillatishga va ish vaqtini qisqartirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Buning uchun uylarni aqlga muvofiq rejalash, kvartiraga moslab ma’qul keladigan jihozlarni va uning turini tanlash asos bo‘ladi. Oila a’zolari va hajmga bog‘liq bo‘lmagan holda har qanday oshxonada asosiy texnologik tugunlarni shakllantiruvchi bir xil ish olib boriladi:

1. Oziq-ovqatlarni va oshxona uskunalarini saqlash - saqlash tuguni;
2. Sabzavotlarni tozalash, yuvish va ishlov berish – mahsulotlarni tayyorlash tuguni;
3. Issiq ishlov berish – ovqatni tayyorlash tuguni;
4. Ovqatni qabul qilish;
5. Idishlarni yuvish va quritish – yig‘ishtirish tuguni.

Har bir tugun o‘ziga mos o‘rnashgan jihozlar bilan ta’minlangan maxsus tayyorlangan joyda tashkil qilinadi. Ko‘rsatilgan tartib, elementlarni qo‘yib chiqish asosida yotadi va ularni ketma-ket o‘rnashishini aniqlaydi.

Ish zonasining jihozlari poldan ish yuzasigacha bo‘lgan joyni egallovchi sathdan iborat (85 sm), pastki elementlardan, ish yuzasining tepasiga joylashgan (60 sm) yuqoriga elementlardan va polning shipgacha bo‘lgan fazoni egallovchi baland elementlardan tashkil topgan.

Oshxonaning birinchi guruhi jihozlari – balandligi 85 sm, eni 30-60 smgacha bo‘lgan ish yuzasi.

Oshxonaning ikkinchi guruhi jihozlari – oziq-ovqatlar, idishlar va ularni quritish uchun osib qo‘yuvchi shkaflar (eni 30 sm).

Uchinchi guruh – idishlar, oziq-ovqatlar va har xil inventarlar uchun baland shkaflar.

Amaliy loyihalashda oshxonani jihozlashning uchta asosiy usuli qo‘llaniladi:

- o‘lchovlari o‘zaro bog‘langan, alohida predmetlardan tashkil topgan jihozlar yig‘indisi;
- seksiyalardan tashkil topgan mebellar;
- past va yuqori qatordagi baland shkaflar bilan umumiy o‘lchovlar va konstruksiyalar orqali birlashgan elementlarning seriyasi. Seksiyali mebellar ichiga qator va burchakli elementlarni oladi. O‘z navbatida ularning moslashuvchanligi ulardan ko‘proq foydalanish imkoniyatini beradi.

Joyida qurilgan jihozlar – uyni qurish jarayonida o‘rnatiladi. Jihozlarning elementlari zavodda qurish uchun loyihalanadi.

O‘lchamlariga qarab oshxonalar oshxona-nisha, oshxona-ovqat tayyorlovchi, oshxona-ovqatlanish xonalariga bo‘linadi.

Oshxona–nisha. Ularning yuzasi faqat ishlash zonasining jihozlarini qo‘yish imkonini beradi. Oshxona–nishaning ichkari eni 70 sm va bo‘yi 1,4 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

Ular hamisha umumiy xonada yoki dahlizda joylashishadi va elektrik jihozlarda ishlashadi. Shuning uchun yaxshi tortuvchi ventilyatsiya bilan ta’minlangan oshxona-nishalar mexmonxona tipidagi – bolasiz va bir kishilik oilalar uchun qo‘llaniladi.

Ishlash xonalari. Tabiiy yorug‘likka ega bo‘lgan ajratib qo‘yilgan xonalarda bo‘ladi. Bu yerda ovqat tayyorlanadi, ovqat yeyilgandan keyin yig‘ishtiriladi. Yig‘iladigan stoliklar, dazmollash uchun moslamalar qo‘llanilishi mumkin.

Ularning yuzasi 4,5 – 6 – 8 $m^2$, eng kichik eni 1,6 – 1,8 $m^2$.

Ovqatlanadigan oshxona. Ovqatlanadigan oshxona uning funksional vazifalariga mos tushadigan kengaytirilgan jihozlar tarkibiga kiradi.

Ish zonasi va ovqatlanish zonasi. Ovqatlanish mumkin bo‘lgan oshxonaning yuzasi 12 $m^2$ dan kam bo‘lmasligi kerak.

Oshxonaning boshqa xonalar bilan ichki bog‘lanishida eng yaxshi variant uning bir vaqtning o‘zida umumiy xona va daxliz bilan bo‘lgan bog‘lanishi hisoblanadi.

Oshxona uchun eng yaxshi orientatsiya g‘arb va g‘arb-sharq hisoblanadi.

Oshxonaning uyg‘unligi, konfiguratsiyasi deraza va eshiklarning o‘rniga qarab 4 xil sxemadan bittasini qabul qilishi mumkin.

Oshxonani yoritish. Ish yuzasi to‘g‘ridan yoki yonboshdan yoritilsa eng yaxshi hisoblanadi. Jihozlarni yorug‘likka qarama-qarshi tomonga joylashtirishi yomon variant hisoblanadi. Hozirgi vaqtda oshxona yechimining ikki yo‘nalishida izlanishlar olib borilmoqda. Birinchisi – jihozlarning an’anaviy elementlar tizimi, ularning blokirovkasi, o‘lchamlarini va o‘rnatish usulini ishlab chiqish.

Har xil oshxonalarda jihozlarni o‘zgaruvchan joylashuvini va ish yuzasining balandlik sathini, ehtiyojga qarab boshqarishni ta’minlash zarur. Industrializatsiyada ishlab chiqilgan oshxona kvartiraning xohlagan joyini egallashi mumkin bo‘lgan jihozlar tizimini yaratishdan iborat.

## Tozalik tugunlari

Tozalik tugunlari xonalari tozalikni va gigienani saqlash uchun zarur. Tozalik tugunlari ikki tipda loyihalanadi. Alohida vanna va xojatxona, bitta makonda qo‘shib ishlangan. Ularning umumiy yuzasi 3-3,5 $m^2$.

Hozirgi vaqtda tozalik tugunlarinig funksiyalarini kengaytirib, yuzasini oshirish tendensiyasiga harakat qilinmokda. Bundan kvartiraning qulayligi kelib chiqadi.

Ko‘p sonli oilalarda butun jihozlari bilan ikkita vanna qo‘yiladi.

Hozirgi vaqtda tozalik tugunlarining vanna, umыvalnik va bidelarni o‘z ichiga olgan texnikaviy bloklari mavjud.

## Daxliz

Daxliz – ustki kiyim shkafi va kirish vestibyuli degani. Jihozlari – kiyim ilgich, oyoq kiyimi uchun quti, banketka, jurnal stoli, oyna, xo‘jalik narsalari uchun shkaflar, turli stellajlar.

Bir-ikki xonali kvartiralar uchun daxlizning yuzasi 2-3,5$m^2$, 3-5 xonali kvartiralar uchun 3,5-5$m^2$. Umuman daxlizlarning yuzalari ko‘paytirilib ishlanadi.

## Bir xonali kvartiralarni loyihalash xususiyatlari

Bir xonali kvartiralarda bitta makonda hamma asosiy hayotiy jarayonlar birlashadi.

Bunday kvartiralar yolg‘izlar va ikki kishidan iborat oilalar uchun mo‘ljallangan.

### *Bir xonali kvartiralarni loyihalashni aniqlovchi faktorlar*

Yolg‘izlar uchun uyning turini aniqlovchi bosh omil insonning yoshi hisoblanadi. Ikki kishilik oilalar uchun esa ularning tuzilishi hisoblanadi. Birinchi guruhni 16-24 yoshli yoshlar tashkil etadi. Bular uchun markazlashgan va individual xizmat qilishni tashkillovchi yotoqxona turidagi uylar quriladi. Xonalarda joyida qurilgan shkaflar, ish stollari va krovatlar qo‘llaniladi.

Ikkinchi guruhni bolasiz oilalar va 25-55 yoshli yolg‘izlar tashkil qiladi. Ular uchun ko‘proq mexmonxona tipidagi uylar to‘g‘ri keladi. Uchinchi guruh 55-65 yoshlilar asosan nafaqa oluvchilardan tashkil topgan. Ular oilalilar uchun qurilgan va qarilar uyida yashashni ma’qul ko‘rishadi. Qariyalar uyida markazlashgan xizmat ko‘rsatish tashkillashgan. Yotoqxonalarni 2-3 kishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yuzasi 15-20$m^2$ ni tashkil etadi. Mexmonxonalari 10-40 kishi uchun mo‘ljallangan.

Shunday qilib, bir xonali kvartiralar xonalarning to‘liq yig‘indisi bilan, qisqartirilgan yoki to‘liq yordamchi xonalarsiz loyihalanishi mumkin.

## ADABIYOTLAR:


1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.V., Petunina Z.V. Interyer obщestvennыx i jilыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Memanov B.Sh. Sovremennaya kvartira. Moskva. 1975 g.
3. Zinger B.I. Vstroennoe oborudovanie dlya jilыx zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1984 g.
4. Markovskiy B. i dr. Kak obstavit sovremennuyu kvartiru. Texnika. Sofiya. 1972 g.

## MA’RUZA № 14

## KVARTIRALAR INTERYERINI TASHKIL QILISHNING BA’ZI USULLARI

*Ma’ruza rejasi*

**1. Interyerning atrof-muhit bilan bog‘lanish usullari.**

a. Kvartirani tashkil qilish tendensiyasi va uning Interyeri.

**2. Rang va materiallardan Interyer kompozitsiyasida foydalanish.**

a. Rangning makonni qabul qilishdagi ta’siri.

b. Interyerda bezak materiallarining dekorativ-badiiy xususiyatlarini hisobga olish.

Zamonaviy kvartira va uning Interyerini tashkil qilishda ma’lum tendensiyalar mavjud.

1. Yuqorida ko‘rib chiqilgan aniq funksional zonalarga bo‘lish.
2. Uning tashqi makon bilan xarakterli aloqasi.
3. Kvartiraning va xizmat xonalarining o‘zgaruvchi makonlarini tashkil qilish.

## TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Muhit bilan bog‘lanish – kvartiraning atrof-muhit bilan yorug‘liklar orqali bog‘lanishi.
2. Yorug‘liklar o‘rni – kvartiraning xonalarini tabiiy yorug‘lik bilan yoritish yo‘li.
3. Orientatsiya – kun davomida xonani quyosh nuri bilan ta’minlanishi.
4. Kvartiraning elementlari – balkonlar, lodjiyalar va terrasalar.
5. Interyer kompozitsiyasi vositasi – makon tizimida va uning jihozlari elementlarida qatnashuvchi materiallarning dekorativ – badiiy xususiyatlari.
6. Iliq ranglar – qizil, jigarrang, sariq va shu ranglar atrofidagi gammadan tashkil topgan ranglar.
7. Sovuq ranglar – yashil, ko‘k, moviy va shu ranglar atrofidagi gammadan tashkil topgan ranglar.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ichki va tashqi muhitning yorug‘lik frontining joylashishiga qarab bir-biriga ta’sirining o‘zgarishi?
2. Ichki makonning tashqi muhitga qaratilishi bilan xarakterlanadigan bo‘linish tizimlarini ifodalab bering?

3. Interyerning tashqi muhit bilan bog'lashda qatnashuvchi kompozitsion elementlarni aytib bering?
4. Qanday materiallar turar joy Interyerlarda ko'proq qo'llaniladi?
5. Rangning Interyerlagi asosiy xususiyatlari va ularda foydalanishi.
6. Ranglar yig'indisi muhitini qanday tushunasiz?
7. Rangdan me'moriy kompozitsiyaning elementi sifatida Interyer kompozitsiyasida foydalanish yo'llari?

## INTERYERNING ATROF MUHIT BILAN BOG'LANISH USULLARI

Tashqi muhit bilan bog'lanish insonning tabiiy ehtiyoji bo'lib, turar joy Interyeri kompozitsiyasining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ko'kalamlashtirilgan lodjiyalar, ayvonlar, balkonlar va har xil yashil qurilmalar haqli ravishda yuzaga keladi.

Inter'erni tashqi atrof bilan bog'lash xarakteri kvartira turadi va bu bog'lanishni amalga oshirishga yordam beruvchi elementlarga bog'liq bo'ladi.

Kvartiraning atrof-muhit bilan umumiy ko'rinishdagi bog'lanishi yorug'liklar o'rni bilan bo'ladi. Yorug'lik frontining joylashishiga qarab tashqi va ichki muhitning o'zaro ta'siri o'zgaradi.

Bir yo'nalish ichki makonning tashqi muhitga qaratilgani bilan xarakterlanadi. U ichki makonning qo'yidagi bo'linish tizimida ifodalanadi.

1) Bir tomonlama orientatsiya – kvartiraning hamma xonalari tashqi muhitga bir yo'nalishda qaratiladi (kompozitsiya yorug'lik fronti bo'ylab anfilada sifatida rivojlanadi. U ochiq o'rinlar tomonga perpendikulyar rivojlanib to'ldiriladi).

2) Yorug'liklar uning ikki qarama-qarshi tomonda joylashishi - inter'erning kompozitsiyasi bir vaqtning o'zida ikkala tomonga rivojlanadi.

3) Yorug'liklar o'rnini yonma-yon va uch tomonlama orientatsiyasi - atrofdagi landshaftni qurish maydonini oshirishga yordam beradi.

I.I. Ikkinchi yo'nalishga tashqi muhitning inter'er kompozitsiyasiga kiritishi xarakterlidir. Bu yerda ochiq makon fragment sifatida inter'erning qismi bo'lib qoladi va uning kompozitsiyaviy tizimining markazi hisoblanadi. Hamma asosiy yashash xonalari shu qismga qaratilgan bo'ladi. (Yopiq yoki yarim yopiq hovlilar, chuqur lodjiyalar shunday kompozitsiyani shakllantiradi).

Yumshoq iqlim sharoitida tashqi makonga inter'erni ko'proq ochishga harakat qilinadi (devorlar yuzasida ko'proq derazalar qo'yish).

**A. Kvartirani tashkil qilish tendensiyasi va uning Interyeri.** Kvartiraning elementlari balkonlar, lodjiyalar va terrasalar ma'lum bir vazifalarni bajaruvchi sifatida inter'erning kompozitsiyasini yaratishda qatnashadi.

1. Balkonlar va lodjiyalarning kvartira rejasidagi holatiga qarab inter'erning makon tizimi aniq yo'nalishga ega bo'ladi.
2. Balkonlar va lodjiyalar qaysi xonaga biriktirilgan bo'lsa o'sha xona inter'erining kompozitsiyasini ko'chaytiradi.
3. Ba'zi hollarda umumiy kompozitsiya lodjiya va balkonlar atrofida rivojlanadi.

Ichki va tashqi makonlarning birlashib ko'rinishga devor va yuzasining, shipning, polning inter'erdan tashqarida bir xilda davom ettirish usulidan foydalanishga yordam beradi.

Bir xil xarakterda, bir xil materiallardan, bir vaqtning o'zida inter'er va lodjiyalar, ayvonlarning makonida bajarilgan elementlar bog'lovchi bo'g'in rolini uynaydi.

## RANG VA MATERIALLARDAN INTER'ER KOMPOZITSIYASIDA FOYDALANISH

Inter'er kompozitsiyasining vositalaridan biri makon tizimida va uning jihozlari elementlarda qatnashuvchi materiallarning dekorativ –badiiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu yerda materialning rangi alohida rolni o'ynaydi (inter'erni ishlashga qurilish va bezak materiallarning rangi bilan hisoblanishga to'g'ri keladi). Inter'erga materialning (yuzasining) fakturasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Turar joylarda asosan silliq materiallar qo'llaniladi. Yog'och turar joy binosida keng qo'llaniladi. Har xil rangdagi keramik plitalar vannalar, xojatxonalar, balkonlar uchun. Plastmassalar – polni yopishda, oshxonani bezaklashda, vannada ishlatiladi (ular har xil rangda bo'lishi mumkin).

*A. Rangning makon qabul qilishdagi ta'siri*

Rang insonning psixo-fiziologik holatiga ma'lum mikdorda ta'sir ko'rsatadi.

Rang to'g'risidagi fan mavjud ranglarni o'rganish. Bu fan ranglarni va uning birikmalarini psixologik va ko'rishdagi taassurotlarini ishlab chiqadi (rang va yorug'lik munosabatlari qonuniyatlari, och va to'q tonlarga bo'yash).

Ranglar muhitining psixologik ta'siri (iliq va sovuq ranglar) va orintesiyaga qarab ulardan foydalanish muammolari ishlab chiqilgan.

Ranglar spektrda to'lqinlar chastotasiga qarab joylashadi va insonning ko'rish qobiliyatining ko'chayishi uning o'zgarishlari bilan bog'liq. Spektrda eng yuqori ko'rish sezgisi yashil rangga, qizil va binafsha ranglar chegarasidan nolgacha tushadi.

Binafsha-sokin, qizil-uyg'otuvchi, yashil-fizikaviy muvozanat rangi.

Rangning me'mor uchun asosiy xususiyatlaridan biri makonni, hajmni va formani qabul qilishda illyuziya kiritish hisoblanadi.

Kuchsiz tonli sovuq ranglar makon katta qilib ko'rsatadi. Och rangli fonlarda qora hajmlar aslida qaraganda kichikday ko'rinadi.

Ranglar illyuziyaga qarab «ichkariga kirgan» va «chiqib turgan» hajmga bo‘linadi, ya’ni ranglar nisbatni qo‘llab xonaning uyg‘unligini o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Uzun va ensiz xonalarning yon devorlarini sovuq va och chekinuvchi ranglarga, chetki qismini issiq ton «oldinga chiquvchi» ranga bo‘yasak kengroq ko‘rinadi.

Ranglar insonga o‘zidan-o‘zi emas balki ranglar muhitining yig‘indisi bilan ta’sir qiladi. Makonni qabul qilishda asosiy rangning holati va uning o‘rnashgan joyi juda katta ahamiyatga ega.

Ranglarni solishtirishda inter’erning kompozitsiyasida asosiy va qo‘shimcha ranglarni belgilab olish mumkin.

Inter’erda nyuansli va kontrastli (keskin) ranglar uyg‘unligidan foydalaniladi.

Nyuans va kontrast ranglar fonida xonaning funksional zonalaridan biri kontrast yechim bilan ajratilishi mumkin.

Axromatik ranglar (qora, oq, kulrang) xohlagan qo‘shilmalar uyg‘unligini nafis qilib to‘ldiradi yoki o‘zlari ranglar kompozitsiyasini tashkil qilishi mumkin.

*B. Rang inter’er kompozitsiyasining vositasi sifatida*

Rang me’moriy kompozitsiyaning elementi hisoblanadi. Inter’erdagi rang kompozitsiyasi inter’erning me’moriy kompozitsiyasi bilan birlikda yechilishi kerak. Rang bilan kompozitsiyaning u yoki bu sifatini ajratib ko‘rsatish, alohida elementlarni birlashtirish va uni tashkil etuvchilarni ko‘proq yaxlitlikga erishtirish mumkin.

Turar joy inter’eri uchun birlik va yaxlitlikni his qilish juda muhim. Har bir xonaning ko‘p funksiyali vazifasi uni zonalarga bo‘lishni talab qiladi. Shuning evaziga xona yaxlit bo‘lib ko‘rinmaydi. Rang yordamida bu kamchilikni yo‘qotish mumkin. Misol uchun, ko‘p xonalar uchun bir bo‘lgan elementlarning bir rangi-pol, devor, joyida kirilgan shkaflarning yuzasi, drapirovkalar bir qator alohida makonlardan o‘tib bir butun ko‘rinishga imkon beradi. Kichik kvartiralar uchun ko‘p detallar va elementlarni bir uyg‘un topilgan rang bilan birlashtirish mumkin. Bu yerda rang orqali topilgan birlik xonaning makonni ko‘rinishiga ta’sir qiladi, ya’ni xona kengroq ko‘rinadi.

Xuddi shunday imkoniyatlar ba’zi bir materiallarda ham uchraydi. O‘zining tabiiy rangi va fakturasi bilan ishlangan devorlarning yuzalari, shiplar, joyida qurilgan jihozlar xonani yechimiga yaxlitlik, birlik turini beradi. Masalan, yog‘och potolok yoki devor inter’erning boshqa elementlaridan keskin ajralib turadi.

Ko‘rish qonuniyatlariga ko‘ra, ular katta ifodaga ega bo‘lib boshqa elementlarni ikkinchi rejaga o‘tkazadi. Bir necha xonalardan o‘tib bunday yuza makonlarni birlashtirganday bo‘ladi va kompozitsiyaviy birlikka keltiradi.

Rang bilan makonni, hajmni bo‘lish va formani o‘zgartirishi mumkin. Misol uchun, umumiy makondan qaysidir qismi rang bilan ajralitib unga kompozitsion va funksional mazmun berilishi mumkin.

Turar joyda bu funksional zonalardan biri bo‘lishi mumkin. Inter’er me’morchiligida yuzalarni bo‘lish katta ahamiyatga ega. Har qanday bo‘linishni rang bilan amalga oshirish mumkin. Lekin turar joy inter’erlarida bu holat faqatgina bolalar xonasida ishlatish mumkin. Inter’er kompozitsiyasida bosh element bo‘ladi, qolganlari unga bo‘ysunadi. Har qanday yechimda rang va materiallarning dekorativ sifatlari asosini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Qaysidir xonaning kompozitsiyasida boshqaruvchi biron-bir zonaning mavzusi hisoblanadi. Misol uchun, umumiy xonada dam olish zonasi yoki ovqatlanish burchagi, yotoqxonada ishlash va shug‘ullanish zonalari bo‘lishi mumkin. Ba’zida bu zonalar rang bilan (jihozlarda, mebelda), ba’zida esa devorlar yuzasining rangini solishtirishda asosiy mavzu boshqa elementlarning umumlashgan fondida jaranglaydi.

Turar joy inter’eri kompozitsiyasida asosiy rolni alohida jihozlar elementlari ham bajarishi mumkin. Kvartirada shkaflar to‘siqlar bo‘lsa ular ko‘pincha asosiy mavzuga aylanadi. Materiallari, yonidagi devor materiallaridan ajralgan holda atrof muhitdan keskin farq qiladi. Bundan tashqari to‘siqdagi bo‘linishlar kombinatsiyasi, ochiq va yopiq yuzalarga rangni berish bilan joyida qurilgan shkaflar tizimini boy dekorativ devorga aylantiradi.

Ikkinchi misol, umumiy xonada devorlarning yuzasi va shkaflar materiallari va rangi bir xil yechiladi. Lekin shkaf-to‘siqlar yuzasining bo‘linishi alohida ifodalanmaydi.

Kompozitsiyada asosiy bo‘lgan boshqa elementlardan biri harakatlanuvchi to‘siqlar hisoblanadi. Devorga nisbatan kontrast materialda ishlangan (rangi va fakturasi bilan) to‘siq inter’erni boy dekoratsiyaday qilib ko‘rsatdi.

Shunday qilib, ranglarning roli va materiallarning dekorativ xususiyatlari kompozitsiyada asosiy ahamiyatini kuchaytirishga, muhim kompozitsiyaviy joyga aksent qilish, butun kompozitsiya tizimini birlashtirish va uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Kompozitsiyaga rangni kiritish koloritni tanlash masalasini qo‘yadi. Bitta me’moriy kompozitsiyaning koloristik yechimi har xil variantda bo‘lishi mumkin, lekin har biri qonuniyat asosida tuziladi. Buni rangtasvir ustalari – rassomlardan  o‘rganish mumkin. Ularning asarlarida ifodalilik ranglar sifati bilan ya’ni tirik topilgan ranglarning o‘zaro ta’siri belgilanadi. Ularning kaloristik tuzilish ustidagi izlanishlaridan me’morlar o‘z ishlarida foydalanishlari mumkin.

## ADABIYOTLAR:

1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.B., Petunina Z.V. Inter’er obщestvennых i jilых zdaniy. Moskva. Stroyizdat. 1973 g.
2. Ponomareva Ye.S. Sovremennaya kvartira. M. 1975 g.
3. Zinger B.I. Vstroennoe oborudovanie dlya jilых zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1984 g.
4. Markovskiy B. i dr. Kak obstavit sovremennuyu kvartiru. Texnika. Sofiya. 1972 g.

## MA’RUZA № 15

## MAVZU: XONA MAKONINING O‘ZGARTIRUVCHANLIK XUSUSIYATLARI

*Ma’ruza rejasi*

1. **Makonni o‘zgartirish usullari.**

Kvartira maydonining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan kvartiraning o‘zgartirish usullari.

2. **Interyer maydoni**

## TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Transformatsiya (o‘zgaruvchanlik) – bino va xonalarning ichki holatining o‘zgaruvchanligi.
2. Qisman o‘zgartirish – yonma-yon xonalarning siljiydigan to‘siqlar yordamida o‘zgartirish.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Kvartiraning turg‘un yuzasidagi makonni siljiydigan to‘siqlar yordamida o‘zgartirish usullari?
2. Erkin o‘zgaruvchan rejali kvartiralarning («o‘zgaruvchan reja», «variantili reja») imkoniyatlarini aytib bering?
3. Kvartira maydonini o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan kvartiraning o‘zgartirish usullari?

Turar joylarga ehtiyojning o‘zgarishi, birinchidan, oilaning o‘zida bo‘ladigan (hayotiy sikllarning etaplariga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar), ikkinchidan madaniyatining yuksalishi va jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda bo‘ladi. Buning natijasida qulay sharoitlarni yaratishga ehtiyoj oshadi, kasbiy, xohish bilan bog‘liq, dam olish va jismoniy tarbiya uchun kerakli bo‘lgan xonalarning zarurligi kelib chiqadi.

Kvartiraning makon tizimining o‘zgarish imkoniyatlari yashovchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlari kvartiraning o‘ziga kiritilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga turar joy oilaning turmush tarzining o‘sishiga mos ravishda o‘suvchan bo‘lishi kerak. Uyning «keskin» rejasi bu talablarga javob bermaydi.

Bundan tashqari makonning o‘zgaruvchanligi oilaning sonida kelib chiqqan ehtiyojlarga qarab kvartira ichining o‘zgarishi zamonaviy turar joyning ma’naviy ishdan chiqish vaqtini uzaytiradi (norma bo‘yicha 50 yilga mo‘ljallangan).

Bu muammoni yechish ikki yo‘nalishda olib borilmoqda:

1) Inter’erning makon tizimining foydalanish jarayonida, kvartira yuzasining turg‘unligida o‘zgartirish.

2) Kvartira makonini uning yuzasini o‘zgarishi bilan o‘zgartirish.

## MAKONNI O‘ZGARTIRISh USULLARI

Rejaning o‘zgarmaydigan kompozitsiyai asosida makonni qisman o‘zgartirish usuli eng ko‘p tarqalgan (har bir xona o‘zining doimiy joyini, o‘zining funksiyasi bilan saqlab qoladi). Yonma-yon xonalar siljiydigan to‘siqlar yordamida birlashadi. Bu usulda ko‘proq umumiy xonaning makoni unga daxliz, yotoqxona, oshxonaning ovqatlanish zonasini qo‘shishi bilan amalga oshadi. Shunga inter’erning kompozitsiyasi sifat jixatidan o‘zgaradi, ya’ni umumiy xona ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lib kompozitsiyaning markaziga aylanadi.

Alohida xonalarning o‘lchamlari va uyg‘unligini o‘zgartirish imkoniyati (ularning birini ikkinchisiga qo‘shish yo‘li bilan) va ularning sonini o‘zgartirish birinchidan funksional ehtiyojlarni qondirishda o‘zgaruvchanlikka imkon yaratadi, ikkinchidan Interyerni har xil tashkillashga yordam beradi.

Ba’zida yonboshdagi makonlarni birlashtirishga asoslangan o‘zgartiruvchanlik tizimiga kvartiraning hamma asosiy xonalari kiritiladi. Bu holda bitta reja asosida uyning butunlay boshqacha loyiha tuzilishlarini yaratish mumkin. Yonma-yon xonalarni birlashtirishda qo‘llaniladigan materiallarning rangi badiiy-dekorativ xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Bu yerda birlashadigan xonalar uchun rangning yechimi devorlar yuzasi, pol, shiplar umumiy bo‘lishi kerak. Rang aksenti bilan ishlangan alohida funksional zonalar muhim rolni o‘ynashi mumkin. Janubda lodjiyalardan yil davomida foydalanish mumkin. Ishlab chiqilgan o‘zgaruvchanlik lodjiyaning makonini umumiy xonaning yuzasiga qishda qo‘shish, yozda umumiy xonaning yuzasini kichraytirib lodjiya makonini kengaytirish imkonini beradi. Bu yerda bitta mustahkamlangan nuqta atrofida aylanuvchi yig‘iladigan to‘siq ishlatiladi. Yig‘iladigan xarakterlanuvchi to‘siq ko‘rinishdagi xohlagan joyga o‘rnatish mumkin bo‘lgan maxsus oynavand konstruksiyadan foydalaniladi.

Erkin o‘zgaruvchan rejali kvartiralar (o‘zgaruvchan reja. Variantli reja) – ehtiyojlarga qarab kvartiraning rejasini yanada ko‘proq o‘zgarishga imkon beradi.

Bu rejada o‘sha bitta foydali yuzada ekspluatatsiya qilish jarayonida ehtiyojlarning o‘zgarishiga va demografiya tarkibiga qarab birga tor variantlar rejasi yaratilishi mumkin. Ularni loyihalashda yuzasini, xonalar tarkibini va funksiyalarni o‘zgartirish uchun sharoitlar oldindan qurilgan bo‘ladi.

Erkin loyixani kvartiralarda uning chegaralari, jihozlarining va tozalik tugunlarining urni keskin belgilanadi. Hamma o‘zgarishlar yoki kaytadan loyihalashlar umumiy konsruksiyalar bilan bog‘liq bo‘lmagan yig‘iladigan va xarakatlanuvchi to‘siqlarning joyini o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Erkin kvartira uchun kundalang devorlar yoki 6 m va ko‘proq karkasli qadamlar juda qulay hisoblanadi. Erkin loyihalash yuzasi 32-34 $m^2$ boshlab unumli bo‘ladi. Joyida qurilgan shkafdan foydalanish imkoniyati juda muhim. Quruvchilar kvartirani to‘siqlarsiz, lekin yig‘iluvchi elementlar komplekti bilan topshirishadi. Erkin kvartiralarni loyihalashda katta imkoniyatlar yaratib beradigan ikki tomonlama orientatsiya juda qulay bo‘ladi.

Makonning mumkin bo‘lgan variantlarni tashkil qilishdagi nisbiy erkinlik tozalik tuguni va oshxona jixozlarining joylashuviga bog‘liq. Tozalik tugunini kvartiraning markazida joylashuvi makonni uchta yo‘nalishda bo‘laklarga bo‘linishini imkonini beradi. Tozalik tuguni va oshxona blokining daxliz oldida joylashishi loyixa yechimini tanlashni ozroq chegaralaydi.

## INTERYER MAYDONI

Oila kattalashib kvartiraning maydoni yetishmaydigan, kvartira noqulay bo‘lib qolganda nima qilish kerak. Oila a’zosining ikki kishiga noqulay bo‘lib qolganda nima qilish kerak. Oila a’zolasining ikki kishiga o‘sishi kvartirani almashtirishga to‘g‘ri keladi.

Kvartirani kengaytirish uning yonidan zaxiradagi makonlarning maydonini qo‘yish yo‘li bilan amalga oshishi mumkin. Buning uchun kvartira shunday zaxiralarga ega bo‘lishi kerak.

Shaxsiy uylarda bunday imkoniyatlar bo‘ladi. Bu yerda uyning hamma konstruktiv elementlari modulga keltirilgan va o‘zaro almashuvchi bo‘ladi. Har bir uy qo‘shimcha xonalarni tashkillovchi to‘siqlar va standart shitlar yig‘indisiga ega.

Ko‘p qavatli kvartiralarda zaxiraviy maydonlarga ega bo‘lish qiyin.

Bizda kvartiralarni ajratish yo‘li kelajakdagi uylarning loyixasiga kiritilgan.

Ikkita yonma-yon qo‘yilgan kvartira loyixalanadi. Bittasi katta maydonli to‘liq santexnika jizohlari bilan, ikkinchisi qisqartirilgan jihozlar tarkibi bilan loyihalangan. Shu kvartira qisqartirilgan jihozlar tarkibi bilan loyihalangan. Shu kvartiralarni birlashtirib yangi kvartirani tashkil qilsa bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR:

1. Lisitsian M.V., Novikova Ye.B., Petunina Z.V. Inter’er obщestvennыx i jilыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat 1973 g.
2. Arxitekturnoe proektirovanie jilыx zdaniy. Stroyizdat. Moskva. 1995

## MA’RUZA № 16

## INTERYERDA JIHOZLAR. JIHOZLARNING TURLARI

*Ma’ruza rejasi.*

**1. Jihozlarining funksional belgilari.**
Alohida turuvchi jihozlar.
Seksiyali jihozlar.
Stellajli jihozlar.
**2. Jihozlarning arx-rejaviy belgilari.**
O‘zgartiriluvchan jihozlar.
Joyida qurilgan jihozlar.

## TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Alohida turuvchi jihozlar – to‘siqlar konstruksiyasi bilan bog‘lanmagan jihoz.
2. Seksiyali jihoz – bir tipda ishlangan va umumiy kompozitsiyaga keltirilgan jihozlar yig‘indisi.
3. Stellajli jihoz – bir xil konstruktiv yechimda yig‘ilgan jihozlar.
4. O‘zgartiriluvchan hajmi va ko‘rinishni o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lgan jihozlar.
5. Joyida qurilgan jihozlar – to‘siqlar bilan konstruksiya orqali bog‘langan jihozlar.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Jihozlarning qanday funksiya belgilarini ajrata olasiz?
2. Turar joy va jamoat binolari jihozlarining me’moriy – rejaviy belgilari nimalardan iborat?
3. Alohida turuvchi jihozlar nimalarga mo‘ljallangan?
4. Seksiya jihozning tarkibida nimadan iborat?
5. Stellajli jihozning tarkibi nimadan iborat?

6. Yig‘ma va qismlarga bulinuvchan jihoz qanday yigiladi?
7. O‘zgaruvchan jihoz tarkibi nimalardan iborat?
8. Joyda qurilgan jihozlarning xususiyatlari?

Jihoz Interyerining boshqa elementlari bilan birgalikda uning umumiy ko‘rinishi shakllanishida asosiy rolni o‘ynab kelgan. Arxitekturaviy uslublarning o‘zgarishi bilan jihozning ko‘rinishi va o‘lchamlari hamda uni tayyorlash texnologiyasi ham o‘zgarib boradi. Turar joy va jamoat binolari jihozlari bir xil belgilarga ega bo‘lib qo‘yidagi turlarga bo‘linadi:

**I. FUNKSIONAL BELGILARI BO‘YIChA:**

Ish uchun;
Uyqu va dam olish uchun;
Narsalarni saqlash va ko‘rgazma qilish uchun;
O‘yin va sport bilan shug‘ullanish uchun;
Jihoz to‘siqlar.

**II. ARXITEKTURAVIY – REJAVIY BELGILARI BO‘YIChA:**

1. Alohida turuvchi jihozlar;
2. Joyda qurilgan jihozlar;

Devor oldidagi shkaflar;
Garderob shkaflar;
Shkaf – to‘siqlar;
Nishalarda qurilgan shkaflar;

Osilib turuvchi jihozlar turar joy va jamoat binolari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan funksional jarayonlarni ta’minlashi va ko‘p qirrali inson faoliyatini normal o‘tishini ta’minlab berishi zarur.

Jihoz buyumlar o‘zining konstruktiv belgilari. Forma va bezak materiallarining birligi, tayyorlash texnologiyasi bo‘yicha komplekt va garniturlarga yig‘iladi. Jihoz garniturlari – berilgan funksional programma bo‘yicha bir, ikki va hokazo xonalar uchun tayyorlangan jihoz buyumlari guruhidir. Jamoat binolari alohida xonalari – zallar, vestibyullar, mexmonxonalar va hokazolar uchun jihozlar loyihalanadi.

Seksiyali jihoz hajmiy seksiya elementlarini qatorida qo‘shish, ustma-ust qo‘yish yoki alohida joylashtirish imkonini beradigan jihoz buyumlari yig‘indisidan iborat. Seksiyalarni uzunligi, balandligi, kompozitsiyaviy sxemasiga qarab bloklarga erkin uslubda yig‘ish mumkin. Bu ba’zi hollarda katta bo‘lmagan elementni, ba’zida esa katta elementni modul deb qabul qilish evaziga amalga oshadi.

Seksiyali jihoz zamonaviy jihozlarning turar joylar va jamoat binolari rejalari bilan bog‘liq holda ishlanganligiga misol bo‘la oladi. Bu jihoz turi shkaf seksiyalarining bir xil konstruksiya va bezak yechimiga ega bo‘lgan bir

xil yoki har xil balandlikdagi turli funksiyaga moʻljallangan hajmlardan iborat.

Seksiyalar kichik oʻlchamli (1200 mm ga X-1000 mm gacha) oʻrta oʻlchamli (eni) 1200 mm dan boʻyi 1000 mm dan yuqori va baland boʻlishi mumkin.

Stellajli jihoz ustunlarga har xil hajmli elementlar va tokchalarni oʻrnatish bilan yaratiladi. Ustunlar, pol bilan potolokga biriktirilishi yoki keng asosda erkin turishi yoki devorga mahkamlab oʻrnatiladi. Osilib turuvchi elementlar seksiyali, ochiq yoki eshikli. Yashikli yoki ochiq tokli oʻzidan ochiladigan sekreterga oʻxshagan taxtalar bilan boʻlgan koʻrinishda boʻladi.

Umumiy yigʻma va qismlarga ajratiladigan jihozlar tekis yigʻiladigan elementlardan yasaladi. Boʻylama va yonlama plastinalar biriktiruvchi tugunlar yordamida qattiq konstruksiyali karkasga mahkamlanadi. Bu karkasga mahkamlanadi. Bu karkasga oʻzi ochiladign doskalar, eshiklar, matraslar, oʻtirish uchun plastinkalar mahkamlanadi.

Oʻzgaruvchan jihoz yangi holatda yangi funksional vazifani bajarish uchun oʻzining oʻrnini nisbatan oson oʻzgartiruvchi jihozdan iborat. Bu holat kichkina yuzada va nisbatan boʻlgan predmetlar soni bilan kerakli darajadagi keng funksiyaviy dasturni bajarishga imkon yaratadi. Yotish joylarining, ish va ovqatlanish burchaklari va hokazolarning turli oʻzgaruvchan tizimlari mavjud. Turar joy va jamoat binolarida katta va mustaqil guruxga xona toʻsiqlari elementlarining konstruksiyalari bilan bogʻliq boʻlgan joyida qurilgan jihozlari tashkil qiladi. Bular ikki ish frontiga ega boʻlgan va oldinma-keyin ikkala yonma-yon turgan xonalarga ochiladigan shkaf-toʻsiqlar. Ular maktablar maktab yoshigacha boʻlgan muassasalar, kutubxonalar, mexmonxonalar, uylar uchun qulay hisoblanadi. Shkaf-toʻsiqlarni loyihalash uchun faqat jihoz modulini izlash balki uni umumiy kurilish moduli bilan aloqasi juda muhim, undan tashqari bu nishaga qurilgan jihoz uchun ham muhimdir. Joyida qurilgan shkaflar, oʻtiradigan oʻrindiqlar, ish joylarini konstruktiv yechimini tanlashda nishalarni qurilish oʻlchamlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Joyida qurilgan jihozning keng tarqalishga sabab uning xonada yuzadan unumli foydalanish uchun imkon yaratishda shkaflarning singdiruvchanligi tushib qoldirilgan toʻsiqlarning oʻrniga qoʻyilganligi sababli, hajmi alohida turgan shkaflarga nisbatan, uyning balandligi evaziga koʻpayadi. Tejamkorlik qurilish toʻsiqlarini olib tashlash evaziga, materialni tejashga, shu bilan birga koʻp mehnat talab qiladigan bezak ishlaridan ham ozod boʻladi.

Oʻzining vazifasi va oʻlchamlariga qarab osilib turuvchi jihozlar turli xil boʻladi. Alohida seksiyalar, tokchalar va burtib chiqib turgan stollar toʻgʻridan-toʻgʻri bekorga mahkamlanadi va unumliroq foydalanish

imkoniyati paydo bo‘ladi. Devorlarga yog‘och panellarni qo‘llash badiiylik nuqtai nazaridan qiziqarli hisoblanadi. Devorlarga osilgan fanerga panellar seksiyali elementlar yig‘indisini mahkamlash yordamida turli kompozitsiyalarni yaratuvchi yuzani tashkil qiladi.

## ADABIYOTLAR:


1. Ponomareva Ye.S. Inter’er i oborudovanie grajdanskix zdaniy. Minsk. Vыsshaya shkola. 1979 g.
2. Zinger B.I. Vstroennoe oborudovanie dlya jilых zdaniy. M. Stroyizdat. 1984 g.
3. Mebel i oborudovanie dlya oвщestvennых zdaniy. M. Gosstroyizdat. 1980 g.


## MA’RUZA № 17

## INTER’ERDA JIHOZLAR JOYLASHTIRISHNING UMUMIY PRINSIPLARI

*Ma’ruza rejasi.*

1. **Kompozitsiyaviy yaxlitlikni yaratish omillari.**
2. **Jihozlarni seriyali loyihalash uslubi.**

Kompozitsiyaviy markazni ajratish yo‘llari.
Xonalarni balandligi bo‘yicha qismlarga bo‘lish.

## TAYANCH SO‘ZLAR:

1. Kompozitsiyaviy yaxlitlik – stilistik birlik. Aniq uyg‘unlik. Qismlar bo‘linishining xarakteri, elementlarning umumiy bog‘lovchi belgilarning ma’lum bir g‘oyaga bo‘ysundirib xizmat qilishi.
2. Jihozlar seriyasi tarkibida turli jihozlari bo‘lgan. Bir turda va har xil variantda chiqariladigan buyumlar.
3. Neytral kompozitsiya – sokinlikni beruvchi bir maromda yig‘ilgan jihozlardan tashkil topgan kompozitsiya.
4. Ko‘p markazli kompozitsiya – xonadagi funksiyaviy zonalar bilan bog‘liqlikda yaratilgan kompozitsiya.

## O‘ZLASHTIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Kompozitsiyaviy yaxlitlik qanday amalga oshiriladi?
2. Jihozlar seriyasini loyihalash uslubi nimadan tashkil topgan?
3. Kompozitsiyaviy markaz qanday ajratiladi?
4. Balandlik bo‘yicha qismlarga bo‘lish variantlari.

**KOMPOZITSIYAVIY YAXLITLIK** ko‘p omillarga bog‘liq: alohida jihoz buyumlarining uslub birligiga, tomonlar nisbatining aniq uyg‘un yechimiga uslub birligiga, tomonlar nisbatining aniq inter’erga alohida yoki tasodifiy elementlar kiritilmasligi zarurligini ko‘rsatadi. Har bir holatda elementlari umumiy, bog‘lovchi belgilarga ega bo‘lgan sistemada yaratilish kerak. Hozirgi vaqtda jihozlar seriyasini loyihalash uslubi keng qo‘llanilayapti. Seriyalarga qo‘yidagi jihozlar guruxi kirishi mumkin: tarkibida turli jihozlari bo‘lgan bir tipdagi korpusli buyumlarda tashkil topgan seksiyali jihoz, stol, divan, kreslo, stul va krovatlarning turli variantlari.

**JIHOZLAR SERIYASI**ni loyihalash ikki yo‘nalishda olib boriladi. Bir xil funksiyaviy vazifani bajaruvchi predmetlar uchun (misol uchun, stul) kichik seriyalar, stullar, kreslolar, divan tipidagi predmetlar qatori-stollar, stullar, kreslolar, divanlar, konstruktiv yechimining obraz talqinining va tayyorlash jarayonining umumiyligi bilan birlashadi. Bizning nazarimizda ma’lum xonalar tipiga, tugallangan jihozlar garnituri majmuasini loyihalash uslubi kengroq tarqalgan va progressivroq hisoblanadi. Kutish zallari, xonalar, restoranlar hokazolarni to‘liq jihozlashga imkon beradigan seriyalar paydo bo‘ladi. Seriyalarga kiradigan predmetlar umumiy konstruksiyaviy sxemaga ega bo‘lgan holda materiallar, bezak uslublari va detallar evaziga turli variantga ishlab chiqilishi mumkin. Misol uchun, tirsakni tirab turadigan stul uch xil variantda ishlanishi mumkin, yog‘ochdan, yumshoq materialdan va yumshoq material va yog‘och birikmasi bilan tayyorlanadi.

Alohida turuvchi jihozlar buyumi, Interyerda yaxlit o‘zaro bog‘langan sistemaning bir bo‘lagi sifatida mavjud bo‘ladi.

Tugallangan jihozlar sistemasini yaratish ma’lum bir kompozitsiyaviy g‘oyaga asoslanadi. Bu yerda jihoz va inter’erni bezaklash uchun xom-ashyolarni tanlash, kontrast yoki nyuans ranglarning badiiy yechimining kompozitsiyasida bosh yadro va yordamchi elementlar ajratiladi. Kompozitsiyaviy yadroni ajratish yo‘llari ham har xil bo‘ladi. U bitta yoki bir nechta predmet bilan kuchli yoki kontrast rang bilan, kattaroq masshtab bilan yoki dekorning xarakteri o‘zgartirish bilan amalga oshishi mumkin.

Jamoat va turar joy binolari uchun kompozitsiyaviy usullar umumiy hisoblanadi va ular qo‘yidagilardan iborat: neytral kompozitsiya, kompozitsiyaviy yadroni ajratib ko‘rsatadigan kompozitsiya, ko‘p markazli kompozitsiya.

U yoki bu kompozitsiyaviy usulni aniqlash va faqat estetik omil bilan balki inter’erning xarakteri bilan, funksiyaviy zonalarning borligi bilan ham aniqlanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan kompozitsion usullarni qo‘llashda alohida elementlarning balandligining nisbati fazoviy kenglikda tashkillashtiruvchi bo‘yi va balandligi bo‘yicha tekisliklarni kiritish muhim ahamiyatga ega.

Inter’erni tashkil qilishda bo‘ylama tekisliklar ahamiyat kasb etadi. Ularning balandlik bo‘ylama tekisliklariga nisbatan faolligi, turar joy va jamoat binolari inter’erida aniq qabul qilinuvchi bo‘ylama tekisliklarning tizimini yaratidir. Sathlardan biri turar joy binolarida yopish joyining usti, stul va kreslolarning o‘tiradigan joyi bilan, jamoat binolarida turli o‘rindiqlar va jurnal stollarning tekisliklari bo‘lishi mumkin. Keyingi sath yashash va ish xonalarida ovqatlanish va ish stollari, pardoz stollari, yotish narsalari kuyiladigan tumbalarning ustki yuzalari yordamida shakllanadi.

Alohida predmetlarni yaxlit sistemaga bog‘lovchi element devor panellari inter’erda katta axmiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR:

1. Ponomaryova Ye.S. Inter’er i oborudovanie grajdanskix zdaniy. Minsk. Vыsshaya shkola. 1978 g.
2. Zinger B.I. Vstroennoe oborudovanie dlya jilых zdaniy. M. Stroyizdat 1984 g.
3. Mebel i oborudovanie dlya obщestvennыx zdaniy. M. Gosstroyizdat. 1980

# GLOSSARIY

**Abris** – chegara chiziq, suvratdagi tasvir, rang va tuslarning chegarasini belgilaydi.

**Abstraksionizm** – lotin tilidan olingan bo‘lib, “mavhum”, “noaniq” degan ma’noni anglatadi. Bu oqim XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropada paydo bo‘lgan. San’atdagi mazkur yo‘nalish namoyandalari narsa va hodisalarni real tasvirlashdan voz kechganlar. Ularning asarlarida borliq emas ijodkorning his-tuyg‘ulari, shakl va ranglar o‘yini aks etgan. Abstraksionizm oqimidagi asarlarda ma’no va mazmun ayrim dog‘, hajm, chiziq, ranglarning tartibsiz harakati orqali tasvirlanadi.

**Avtolitografiya** – yunoncha “toshga chizaman” degan ma’noni anglatadi. Unda rassom o‘z asarini tosh ustiga ishlab so‘ngra undan qog‘ozga tasvir oladi.

**Avangard** – so‘zi fransuz tilidan olingan bo‘lib, “oldindagi qo‘riqchi” ma’nosini anglatadi. Avangardizm oqimi XX asr boshlarida Fransiyada paydo bo‘lgan. Uning tarafdorlari san’atni tubdan yangilashni maqsad qilib olganlar. Avangardizm oqimi vakillari o‘sha davrgacha mavjud bo‘lgan realizm, romantizm, impressionizm kabi oqimlarni tanqid qilib, san’at asarlariga zamonaviylikni olib kirishga uringanlar. Ularning g‘oyalari XX asr boshlarida mavjud bo‘lgan kubizm, formalizm, futurizm, syurrealizm, ekspressionizm kabi oqimlarda o‘z aksini topadi.

**Avtoportret** – “Avto” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, o‘zim ma’nosini anglatadi. Avtoportret esa o‘zimning portretim, demakdir. Ko‘pchilik rassomlar oynaga qarab o‘zlarining portretlarini ishlashadi. Avtoportretda rassomlar o‘zlarining xarakterlari, tabiati, ichki dunyosini ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar.

**Akademizm** – tasviriy san’atdagi akademik uslubga asoslangan badiy yo‘nalish. Bazida bu nom bilan yangi badiiy yo‘nalishlarni ham atashadi.

**Akvatinta** – metallga chuqur o‘yib ishlanadigan gravyuraning bir turi. Bunda rassom metall taxtachaning ayrim joylariga avval asfalt kukunini sepib, keyin uni azot kislotasida yuvadi.

**Akvarel** – lotin tilidan olingan bo‘lib, suv ma’nosini anglatadi. U suvda yaxshi eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo‘yoq. Akvarel tasviri nihoyatda rangli, nafis va nozik bo‘lib, ular ko‘pincha qog‘oz ustiga ishlanadi.

**Allegoriya** – yunoncha “o‘zgacha ifodalash”, ya’ni majoz ma’nosini anglatadi. Bu yo‘nalishdagi ijodkorlar mavhum tushuncha va g‘oyalarni aniq obrazlilik, badiiylik yordamida ramziy tarzda, muayyan narsa, voqealar orqali ifodalaydilar.

**Freska** – devordagi qurib ulgurmagan nam suvoq ustiga bo‘yoq bilan ishlanadigan tasvir.

**Al lya prima** – ho‘llangan qog‘oz ustida akvarel bo‘yoq bilan tezda rasm ishlash usuli.

**Animal janr** – hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san’at janri. U multiplikatsion filmlarda ham keng qo‘llaniladi.

**Animalist** – hayvonlarni tasvirlovchi rassom, haykaltarosh.

**Antik san’at** – qadimgi degan ma’noni bildiradi. Bunda qadimgi davrlardayoq taraqqiy etgan qadimgi Yunon, Rim san’ati nazarda tutilgan.

**Applikatsiya** – lotincha yopishtirish ma’nosini anglatadi. Mazkur tasvirlash texnikasi tabiiy (barg, tosh, meva-sabzavotlarning urug‘ va po‘choqlari), badiiy (rangli, folga qog‘ozlar va boshq.) va tashlandiq (gazmol parchalari, dori-darmondan, xo‘jalikda ishlatilib bo‘shagan narsalar va boshq.) materiallar yordamida tekislik ustiga yopishtirish usulida bajariladigan tasviriy ishdir.

**Asosiy ranglar** – qizil, sariq, zangori ranglar shunday deb ataladi. Bu ranglarni bir-birlari bilan aralashtirib boshqa ko‘p ranglar olinadi.

**Assimetriya** – yunon tilidan olingan bo‘lib, “simmetrik emas” degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’atda asardagi detallarni, suvratni chap va o‘ng yoki yuqori va pastki tomonlaridagi tenglik, o‘xshashlik alomatlarining yo‘qligi assimetriya hisoblanadi.

**Afsonaviy janr** – xalq og‘zaki ijodi asosida tasviriy san’at namunalarini aks etitruvchi janr. Bunday janrda yaratilgan tasvirlar afsonaviy odam va maxluqlar (hayvonlar) bo‘lib, haqiqatda ular bo‘lmaydi. Masalan dev, ajdar, kentavr, suv parisi, pegas, putti, grifon va boshqalar shular jumlasidandir. Afsonaviy janrda yaratilgan ishlarning aksariyati rangtasvir va haykaltaroshlikka xosdir.

**Axzar** – rang nomi, meditsinada ishlatiladigan zelyonkaning rangi.

**Axromatik ranglar** – yunon tilidan olingan bo‘lib, rangsiz degan ma’noni anglatadi. Ular oq, qora, kulrang va ularning aralashmasidan hosil bo‘lgan tuslardir.

**Badiiy an’ana** – qadimdan inson faoliyatining adabiyot, san’ya kabi sohalarida erishilgan va saqlanib qolingan ilgor yutuklar v tajribalar majmui.

**Barelef** – fransuzcha past relef ma’nosini anglatadi. Haykaltaroshliqda ishlatiladigan relef atamasining bir turi. Relefning turida tasvir tekislik yuzasidan uning haqiqiy o‘lchamlarining yarimi kam nisbatida bo‘rtib chiqqan bo‘ladi. Masalan tanga, medallar misol bo‘la oldi.

**Baget** – tayyor rasm, suvrat kabilarni ichiga joylashtirish u mo‘ljallangan va sirti o‘yma, metall yoki ganch naqshlar bilan bezatilgan to‘rtburchakli moslama.

**Badiiy ko‘rgazma** – deyilganda tasviriy, amaliy, me’morchilik san’ati asarlari yoki loyihalarning ommaga namoyish etilishi tushuniladi. Ular muzey, galereya, san’at saroylari va ijodiy markazlarda o‘tkaziladi. Ko‘rgazma bir yoki bir necha mualliflarning yoki tasviriy san’atning ayrim

tur yoki janrlari bo‘yicha ham o‘tkaziladi. Ular davriy yoki doimiy va ko‘chma tarzda o‘tkazilishi mumkin. Badiny ko‘rgazmaning xalqaro, mintaqaviy, milliy turlari ham bor. Badiiy ko‘rgazmada birgina asarning qo‘yilish hollari ham bo‘lgan. Masalan, ko‘p yillardan buyon Leonardo da Vinchining "Mona Liza. Jokonda" nomli asari yakka tarzda ko‘chma ko‘rgazmalarda namoyish etib kelinmoqda.

**Badiiy akademiya** – bu nom bilan asosan rassom, haykaltarosh, me’morlar tayyorlanadigan oliy o‘quv yurtlari ataladi. Shuningdek, bu nom bilan nafaqat o‘quv yurti, balki ularga rahbarlik qiladigan, tashkiliy ishlarni olib boradigan davlat muassasalari ham yuritiladi. Masalan, O‘zbekiston badiiy akademiyasi.

**Batalist** – harbiylar hayoti va urush, jang lavhalarini tasvirlaydigan rassomlarga qo‘yiladigan kasbiy nom.

**Binafsha** – rang nomi, binafsha gulining rangi.

**Blik** – narsa va tasvirlarning eng yorug, yaltiroq joyi.

**Bosh bezak** – kitoblarning ichki bezagi va varaqning eng tepa qismida beriladigan tasvir. Ular rasmli yoki naqshli bo‘lishi mumkin.

**Bronza** – mis, qalay, alyuminiy, berilliy, qo‘rg‘oshin kabi metallar aralashmasidan hosil bo‘lgan qotishma (jez). Uning tusi qumush rangni eslatadi.

**Bucharda** – haykaltaroshning tosh taroshlashda qo‘llaydigan ish asbobi.

**Bo‘yoq** – tasviriy san’atda, shuningdek, badiiy bezak ishlarida ishlatiladigan qorishma. Uning moybo‘yoq, akvarel, guash, tempera, emal’, emulsiya kabi turlari bor.

**B’enale** – ikki yilda bir marta bo‘ladigan ko‘rgazma nomi.

**Byust** – fransuzcha so‘z bo‘lib, "ko‘krak" ma’nosini anglatadi. U odamning ko‘kragidan yuqori qismini tasvirlaydigan haykal hisoblanadi.

**Vernisaj** – ko‘rgazmaning ochilishi. Dastlab u Fransiyada "ko‘rgazmadan oldin rangtasvir asarlari sathiga lok berish", – degan ma’noni anglatgan.

**Vitraj** – oyna ustiga bo‘yoq bilan ishlangan rangtasvir. Vitrajni ikki tomonlama ko‘rish mumkin. Ular ko‘pincha ma’muriy, o‘quv yurtlari binolarining, uylarning derazalariga, eshik oynalariga (rasmli yoki naqshli) ishlanadi.

**Galereya** – tasviriy va amaliy san’at asarlari saqlanadigan va ko‘rgazmalar o‘gkaziladigan maxsus bino.

**Gamma** – o‘zaro uyg‘un ranglar yigindisi bo‘lib, unda bironta rang yetakchilik qiladi. Masalan, iliq rang gammasi, sovuq rang gammasi, yorqin rang gammasi shular jumlasidandir.

**Gliptika** – qimmatbaho toshga o‘yib tushirilgan tasvir, ba’zida zeb-ziynat va muhr o‘rnida ham ishlatiladi.

**Gorelef** – fransuzcha so‘z bo‘lib, yuqori relef ma’nosini anglatadi. Haykaltaroshlikda ishlatiladigan relef atamasining bir turi. Relefning bu turida tasvir tekislik yuzasidan uning haqiqiy o‘lchamining yarmidan ko‘p nisbatda ko‘rinishda bo‘rtib chiqqan bo‘ladi.

**Gravyura** – fransuzcha so‘z bo‘lib, "o‘yish" ma’nosini bildiradi, qora metall, yog‘och, linoleum, tosh kabi materiallarni maxsus esboblar bilan o‘yish orqali hosil qilinadigan va ulardan qog‘ozga tushiriladigan tasvir turidir.

**Gravyor** – metall, tosh, yog‘ochga o‘yib tasvir ishlaydigan usta, rassom.

**Grifon** – qadimgi Sharq san’atida uchraydigan tanasi arslon, kallasi va qanoti burgutsimon afsonaviy maxluq tasviri.

**Grizayl** – tasvir usuli bo‘lib, birgina bo‘yoq bilan ishlangan tasvir. Bunda ko‘pincha qizg‘ish, qora, jigarrang, zangori ranglar qo‘llaniladi.

**Grunt** – tasvir ishlanadigan zamin. U karton, bo‘z, devor bo‘lishi mumkin. Unga tegishli qorishma surtilgan bo‘ladi.

**Guash** – italyan tilidan olingan bo‘lib, suvli bo‘yoq ma’nosini anglatadi. U suvda yaxshi eriydi. Guash bo‘yog‘i akvareldan uni qog‘oz yuzasiga bir necha qavat qilib turlicha qalinlikda berilishi mumkinligi bilan farqlanadi.

**Gulgun** – rang nomi, kechki shafaq paytida ro‘y beradigan ko‘rinish rangi.

**Dastgohli rangtasvir** – rangtasvirning dastgoh (molbert)ga o‘rnatib ishlanadigan turi. Rangtasvirning bu turida tasvirlanayotgan odam, hayvon va boshqalarning o‘lchamlari o‘zining haqiqiy o‘lchamidan katta bo‘lmasligi lozim.

**Devoriy rantasvir** – (freska, alfresko) – uy shifti, devorga berilgan suvoq qurib ulgurmasdan uning ustiga ishlangan tasvir. Ular ba’zan shift, devor ustiga qoplangan mato, qogoz ustiga ham ishlanadi.

**Dekoratsiya** – teatr sahnasida spektakl mazmuni bilan boishq ^olda tasvirlanadigan bezak. Ular ranggasvir va butafor shaklida 5o‘ladi.

**Diptix** – qo‘sh tasvir. Ko‘pincha ular bir mavzu va bir-biriga yaqin mazmunda bo‘lib, yonma-yon namoyish etiladi.

**Yodgorlik haykal** – mashhur va tarixiy shaxslarga bag‘ishgab ishlangan haykal. U mahobatli, relefli yoki dastgoxli yumaloq bo‘lishi mumkin.

**Yorug‘soya** – (yorug‘ va soya) tasviriy san’at nazariyasiga doir atama. Uni yorug va soya qonuni deb ham atashadi. U tasvirlanayotgan narsalar yoki tirik mavjudotlar qalamtasviri va rangtasvirining hajmli qilib ishlanishida qo‘llaniladi.

**Yoruk (shu’la)** – tasviriy san’atning nazariy asoslariga oid atama bo‘lib, nur va soya qonuniga tegishlidir. Ma’lumki, har qanday narsa va

mavjudot hajmlidir. Rasmda ularning hajmli ekanligini yorug'lantirmasdan turib ko'rsatib bo'lmaydi. Bunda narsaning yorug'lik manbaiga qaragan qismi yorug', teskari tomoni soya bo'ladi. Ularning o'rtasidagi qismi yarim soya deyiladi. Yorug' atamasi shundan kelib chiqqan.

**Illyustratsiya** – lotincha ko'rgazmali tasvirlash, yoritish ma'nosini anglatadi. Ular oq-qora yoki rangli rasmlar, suvrat, sxema, jadval, diagramma shaklida bo'lib, kitob, jurnal, gazetalarining mazmunini oson va tez idrok etishga yordam beradi

**Iliq ranglar** – kishilarda iliqlik (issiqlik) hislarini uyg'otuvchi ranglar. Ular qizil, sariq, zargaldoq, malla, novvoti, qirmizi, pushti, shingob, sabza, sadaf, lolaro'y, gulgun, noranjvash, somoniy, bargikaram kabi ranglardir.

**Impressionizm** – fransuzcha "taassurot" ma'nosini anglatadi va bu ijodiy oqim XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiyada shakllangan. Bu oqimdagi san'at asarlarida rassomlar hayotda murakkab jarayonlarni tez, oson idrok etiladigan qilib tasvirlashga harakat qildilar. Hayotdagi real borliqni harakatda va o'zgaruvchanliqda, hayotdagi eng xarakterli daqiqalarni real, haqiqatda qanday bo'lsa shunday tasvirlaganlar. Ularning asarlariga suvrat detallarining muvozanatda bo'lmasligi, kompozitsiyaning bir necha bo'laklarga bo'linishi xos.

**Interyer** – tasviriy san'at va me'morchilik, amaliy san'atda binoning ichki qismi ko'rinishini bildiradi.

**Karikatura** – italyancha so'z bo'lib, "bo'rttirib tasvirlash" ma'no-sini anglatadi. Bunday hajviy rasmlarda ijgimoiy, siyosiy, maishiy mavzular aks etadi. Karikatura mavzusvdash rasmlarda ayrim voqea va shaxslar tanqid qilinadi, ular ustidan kulinadi. Ayrim hollarda ularda ba'zi kshpilar do'stona-hajviy tarzda ifodalanipsh ham mumkin. Karikatura jamiyatda ro'y berayotgan xo'jasizlik, isrofgarchilik, pora-xo'rlik, laganbardorlik, ichkilikbozlik kabi salbiy illatlarga qarshi kurassa katta rol o'ynaydi.

**Katalog** – badiiy asarlar, shu qatori tasviriy sanat asarlarining mualliflari va ularning nomlari, yaratilgan yili kabi ma'lumotlar yozilgan ro'yxat.

**Kentavr** – qadimgi Yunoniston haykaltaroshligida uchraydigan tanasi ot, boshi odam shaklidagi afsonaviy maxluq tasviri.

**Kontrast** – fransuzcha "keskin ziddiyat" ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda och va to'q, oq va qora, iliq va sovuq ranglar, ijobiy va salbiy obrazlarning yonma-yon turishi kontrastlilikni keltirib chiqaradi.

**Kompozitsiya** – badiiy asarlarda (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at va hokazo) qo'llaniladigan atama bo'lib, u "tuzish, qurshp" ma'nosini anglatadi. Asarda badiiy obrazlar va vosigalarning o'z o'rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va kompozitsiya badiiy obrazlarning ifodaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kompozitsiya qonunlari** – tasviriy san’atda yaratiladigan badiiy asarlarning goyasi, mazmuni hamda badiiyligini tartibga soluvchi nazariy tushunchalar. Asarning muvaffaqiyati ko‘pincha uyda kompozitsiya qonunlariga qanchalik rioya qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Kompozitsiyaning yaxlitlik, suvrat detallarini asar goyasiga bo‘ysunishi, muvozanat, suvratda yangilikning mavjudligi, kontrastlar, hayotiylik kabi qonunlari, ya’ni talablari bor.

**Kompozitsiya qoidalari** – deyilganda ijodkorning kompozitsiya ishlash jarayonida rioya qilishi lozim bo‘lgan tamoyillar tushuniladi. Uning ritm, kompozitsion markaz, simmetriya, harakat, turgunlik, planlilik, parallellik turlari bor. Kompozitsiya qoidalari asarlarning ifodaviylik vositalari ma’nosini ham anglatadi.

**Kompozitsiya uslublari** – ijodkorning o‘z ijodiy jarayonida qo‘llanadigan asar goyasini, uning badiiyligini, savodxonligini ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbir va yo‘l-yo‘riqlar majmuasi. Uning monumentallik (mahobatlilik), fazoviylik, gorizontallar, vertikallar, diagonallar kabi turlari bor.

**Kompozitsiya vositalari** – ijodkor tomonidan asarni yaratishda qo‘llaniladigan asosiy tasvirlash texnikasi. Ular qatoriga chiziklar, ranglar, oq, qora dog‘lar, kolorit kabilar kiradi. Kolorit (gamma) – lotin tilidan olingan bo‘lib, "rang" (buyoq) ma’nosini anglatadi. Kolorit asosan ranggasvirda, qisman grafikada real borliq va voqelikni ifodali tasvirlashda, ranglarning o‘zaro uyg‘un va mutanosib bo‘lishida nihoyatda ahamiyatlidir. Kolorit ranglar mutanosibligiga ko‘ra iliq yoki sovuq, yorqin yoki to‘q, muloyim yoki jiddiy bo‘lishi mumkin. Koloritda u yoki bu ranglar guruhi yoki yagona bir rang yetakchilik qiladi.

**Konstruktivizm** – lotin tilidan olingan bo‘lib, qurish (yasash) ma’nosini anglatadi va mazkur oqim san’at va adabiyotda XX asrning birinchi choragida vujudga kelgan. Bu oqimdagi rassomlarning ijodi tasviriy va amaliy san’atda idish-tovoqlar, uy jihozlari, kiyim-kechak, gazlama kabilarning yangi nusxalarini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Mazkur oqim kitob grafikasi, teatr bezaklari sohasida ham o‘z ifodasini topgan. Natijada an’anaviy teatr bezaklarining o‘rnini harakatli jihozlar egalladi. Bu oqim XX asr oxirlarida mum (vosk) haykallarning paydo bo‘lishiga ham olib keldi. Konstruktivizm oxir-oqibat dizayn san’atini keltirib chiqardi.

**Ksilografiya** – fransuzcha "yogochga o‘yilgan" degan ma’noni anglatadi. U grafika (gravyura)ning bir turi bo‘lib, bu yo‘nalshssa tasvir yog‘ochda hosil qilinib, so‘ngra qogozga ko‘chiriladi. Bu tasviriy texnologiyada grafik asar ko‘p nusxada tayyorlanishi mumkin.

**Kulrang** – rang nomi, yoqilgan o‘tindan qolgan kulning rangini ifodalovchi rang tusi.

**Kubizm** – kub so'zidan olingan bo'lib, XX asrning birinchi choragida Fransiyada paydo bo'lgan ijodiy oqimdir. Bu yo'nalishdagi rassomlar realistik san'at an'analarshsh inkor etgan holda o'z asarlarida har qanday mavjudot va narsalarni – kub, shar, silindr, konus piramvdalar va ularning o'zaro qo'shilmasidan iborat shakllar yordamida tasvirlaydilar.

**Kumushrang** – rang nomi, kumush metall rangiga yaqin rang.

**Kesishuv nuqtasi** – ma'lumki, bir xil o'lchamdagi predmetlar kishi ko'zidan uzoqlashgan sari kichrayib ko'rinadi. Bora-bora ular nuqgaga aylanib qolgandek tuyuladi. Bu hodisa ufq chizigiga borganida ro'y beradi. Yoki uzoqlarga qarab yo'nalgan ikki parallel chiziq borgan sari bir-birlariga yakdnlashib chiziqlar oralish kamayib borayotgavdek tuyuladi. Oxir-oqibatda bu ikki chiziq bir-birlari bilan kesishgandek qaratilgan chora-tadbir va yo'l-yo'riqlar majmuasi. Uning monumentallik (mahobatlilik), fazoviylik, gorizontallar, vertikallar, diagonallar kabi turlari bor.

**Kompozitsiya vositalari** – ijodkor tomonidan asarni yaratishda qo'llaniladigan asosiy tasvirlash texnikasi. Ular qatoriga chiziklar, ranglar, oq, qora dog'lar, kolorit kabilar kiradi.

**Kolorit (gamma)** – lotin tilidan olingan bo'lib, "rang" (buyoq) ma'nosini anglatadi. Kolorit asosan rangtasvirda, qisman grafikada real borliq va voqelikni ifodali tasvirlashda, ranglarning o'zaro uyg'un va mutanosib bo'lishida nihoyatda ahamiyatlidir. Kolorit ranglar mutanosibligiga ko'ra iliq yoki sovuq, yorqin yoki to'q, muloyim yoki jiddiy bo'lishi mumkin. Koloritda u yoki bu ranglar guruhi yoki yagona bir rang yetakchilik qiladi.

**Klassitsizm** – lotin tilidan olingan bo'lib, "namunaviy" degan ma'noni anglatadi va mazkur ijodiy oqim XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida Fransiyada shakllangan. U san'at va adabiyotdagi qadimgi Yunoniston hamda Rim san'ati an'analariga suyanadi va unga taqlid asosida yuzaga kelgan yo'nalish. Bu oqim tarafdorlari Antik davrning afsona va rivoyatlari, Tavrot voqealariga bot-bot murojaat qilib ulardan olingan mazmun orqali o'z zamondoshlarining axloqiy va siyosiy muammolarini ko'tarishga harakat qilganlar.Ularning asarlarida mazmunning mantiqiy rivojlanib borishi, kompozitsiyada muvozanat, aniq tasvirlash, hajmni aniq andoza asosida ifodalash, chiziqlarning umumlashgan holda ravon bo'lishi talab etilardi. Ranglar esa asar g'oyasini ifodalashda yordamchi vazifani bajarishi lozim deb xisoblangan.

**Lavkas** – rangtasvir ishlash uchun ishlatiladigan qorishma. U mato, karton kabi materiallarning ustki qismini maxsus suyuq qorishma bilan yopib chiqish orqali tayyorlanadi.

**Lessirovka** – rangtasvirga xos jarayon bo'lib, u tayyor ishning ustini pardozlash, sayqallashtirish ma'nosini anglatadi. Bunda qurigan tasvir ustidan yorqin yoki yoqimli bo'yoq beriladi.

**Linogravyura** – gravyuraning bir turi bo‘lib, unda tasvir dastlab linoleum parchasi ustida hosil qilinadi. So‘ngra undan qog‘ozga rasm ko‘chiriladi. Bu tasvir texnologiyasida grafik asar ko‘p nusxada tayyorlanishi mumkin.

**Lolaro‘y** – rang nomi, lola gulining rangiga o‘xshash rang.

**Lojuvard** – rang nomi, eng to‘q zangori rang.

**Manzara** – tasviriy san’atning janrlaridan biri. Unda tabiat, shahar, shuningdek, industrial, ya’ni sanoat korxonalari va uskunalariga oid ko‘rinishlar tasvirlanadi.

**Maishiy (turmush) janr** – deb kishilarning kundalik hayoti, turmushi, mexnatini aks ettiruvchi tasviriy sanat janriga aytiladi.

**Manera** – tasviriy san’atda rassom yoki haykaltaroshning o‘zigagina xos ish uslubi.

**Malla** – rang nomi, limon mevasining och tusi.

**Marinizm janri** (Dengiznavislik) deb dengiz, daryo ko‘rinishlarini va u yerdagi voqea-hodisalarni tasvirlovchi janrga aygiladi.

**Mastexin** – yunoncha so‘z bo‘lib, bu ko‘pincha rangtasvirchi rassomlar foydalanadigan ish quroli nomidir. U andavaga o‘xshash shaklda yasaladi va suvratga noto‘gri qo‘yilgan, politradagi keraksiz moybo‘yoqlarni sidirib tashlashda ishlatiladi.

**Mahobatli rangtasvir** – tasvirlanuvchilarning haqiqiy o‘lchamidan katta qilib ishlangan suvrat. Ular ko‘proq devoriy rangtasvirda ko‘p qo‘llaniladi.

**Mahobatli haykal** – tasvirlanuvchi odam yoki hayvonlarning o‘z o‘lchamlaridan katga qilib ishlangan haykali.

**Molbert** – rassomning suvrat yaratishda ishlatadigan ish asbobi (dastgoh).

**Metsenat** – san’at homiysi.

**Moybo‘yoq** – rangtasvirda ishlatiladigan asosiy material (bo‘yoq) bo‘lib, u maxsus qorishma moy yordamida eritib ishlatiladi.

**Modernizm** – "Modern" so‘zi "zamonaviy" degan ma’noni anglatadi. Mazkur oqim XIX asrning ikkinchi yarmi va **XX** asrning birinchi yarmi oralig‘ida Yevropa hamda AQSh san’ati va adabiyotida shakllangan. Modernizm – akademizm, klassitsizm, realizmni inkor etuvchi oqim. Bu oqim vakillari mumtoz san’atning badiiy an’analaridan voz kechish, asarlarda rassomlar o‘zlarining shaxsiy kechinma va taassurotlarini ustun qo‘yishi lozimligini asoslashga harakat qildilar. Ularning ijodida real obrazlar shaklini o‘zgartirish, hattoki yo‘qotish, ularning o‘rnini turli shakl va ranglar bilan almashtirishdek harakatlar o‘z aksini topgan.

**Moviy** – rang nomi, erta tongdagi sof osmon rangi.

**Mozaika** – ranggasvirning bir turi bo‘lib, qattiq materiallar hisoblangan koshin, rangli shisha, marmar, tosh, yogoch, metall parchalarini

tekis yuzaga maxsus qorishmalar yordamida yopishtirib yaratiladigan tasvirlash texnikasi. Bunday asarlar ko‘pincha devorga, shiftga, uy poliga ishlanadi.

**Moshrang** – rang nomi, mosh rangiga yaqin bo‘lgan rang.

**Mo‘yqalam** – qilqalam, rassomlar ishlatadigan ish quroli. Ular asosan jundan yoki sintetik materiallardan tayyorlanadi.

**Mum (vosk) haykal** – asalari mumidan rangli qilib tasvirlanadigan xaykal. Ko‘pincha mashhur shaxslar haykali shu yo‘sinda ishlanadi. Mum haykallarda haqiqiy liboslar va turli ish qurollari ham qo‘llaniladi.

**Mo‘jaz rangtasvir** – kichik o‘lchamda ishlangan suvrat. Ular ko‘proq kitob bezagida ishlatiladi. Shuningdek, ular mustaqil sanat asari sifatida, turli quticha va guldonlar ustiga ishlanishi ham mumkin.

**Musavvir** – arabcha so‘z bo‘lib, "rassom" degan ma’noni bildiradi.

**Natura** – tasvirlash uchun mo‘ljallangan odam, hayvon, manzara predmet va boshqalarning umumiy nomini anglatuvchi atama.

**Naturshik** – rassom yoki rasm ishlovchi oldida turib natura vazifasini o‘tayotgan odam.

**Natyurmort** – fransuzcha «jonsiz natura» degan ma’noni anglatadi Mazkur janrda gullar, meva va sabzavotlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, san’at va sport anjomlari aks ettiriladi.

**Natyurmort janri** – tasviriy san’at janrlaridan biri.

**Nilgun** – rang nomi, och jigar rang.

**Noranjvash** – rang nomi, apelsin rangiga yaqin rang.

**Novvoti** – rang nomi, novvot rangiga o‘xshash rant.

**Novshadil** – rang nomi, o‘tkir yorqin yashil rang.

**Nofarmon** – rang nomi, och binafsha rang.

**Nyuans** – fransuzcha so‘z bo‘lib, narsa va hodisalardagi, tasvirdagi "nozik, ko‘z yaxshi ilg‘ab ololmaydigan" farq qiluvchi jihatlar ma’nosini anglatadi.

**Original** – asli, asl nusxa, asl ko‘rinish, ba’zan "yangi hech kimga o‘xshamagan" ma’nolarini ham anglatadi.

**Ofort** – fransuzcha "kislota" ma’nosini anglatadi. Ofort gravyuraning bir turi hisoblanib, unda tasvir avval kislota yordamida metallda (mis, qo‘rg‘oshin) hosil qilinib, so‘ngra qog‘ozga ko‘chiriladi.

**Ottisk** – rus tilidan olingan bo‘lib, bironta tasvir yoki matnni bosmaxona sharoitida ko‘p nusxada, odatda qog‘oz yoki boshqa materialga ko‘chirilishi ma’nosini bildiradi.

**Oldinga intiluvchi ranglar** – ranglar doirasida kuzatuvchi e’tiborini tez o‘ziga tortuvchi ranglardir. Ular asosan iliq ranglar - qizil, sariq, zargaddoq, pushti va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

**Orqaga intiluvchi ranglar** – ranglar doirasida kuzatuvchi e’tiborini o‘ziga tortmaydigan ranglar. Ular asosan sovuq ranglar – zangori. havorang, yashil, binafsha kabi ranglar hisoblanadi.

**Palitra** – fransuzcha «yupqa plastinka» degan ma’noni anglatadi. Ular yog‘ochdan ishlanadi. Palitralar metall, plastmassa, chinni kabi materiallardan ham ishlanishi mumkin. Palitralar bo‘yoqlarni aralashtirish uchun tayyorlangan bo‘lib, rangtasvirchi rassomning ish quroli hisoblanadi. Akvarel bo‘yoklarni aralashtirish uchun bir parcha toza qogoz ham palitra vazifasini o‘tashi mumkin.

**Panno** – lotin tilidan olingan bo‘lib, "mato parchasi" ma’nosini anglatadi. Pannolar ko‘pincha moybo‘yoq bilan mato ustiga ishlanadi. Ular maxsus joyga o‘rnatish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rangli, relefli va naqshli hoshiya bilan chegaralangan bo‘ladi.

**Panorama** – yunon tilidan olingan bo‘lib, "ko‘rinish" ma’nosini anglatadi. Panoramada suvratlar aylana, yarim aylana shaklidagi uzun devorga ishlanadi. Shuningdek, unda ro‘y berayotgan voqea haqida to‘liq tasavvur hosil qilish maqsadida suvrat oldiga butafor tasvirlar, uy maketlari, odam, hayvon, tabiat shakllari joylashtiriladi. Panoramalarni tomoshabinlar zaldagi maxsus ajratilgan joydan turib kuzatadilar.

**Pape-mashe** – fransuz tilidan olingan bo‘lib, "ezilgan qog‘oz" ma’nosini anlatadi. Bu uslubda tasvir qog‘oz, karton kabi materiallar sirtida yelimli moddalar, kraxmal, gips kabilarni aralashtirish orqali hosil qilinadi. Bunday tasvirlardan o‘yinchoqlar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan didaktik materiallarni tayyorlashda foydalaniladi.

**Pastel** – italyan tilidan olingan bo‘lib, "xamir" ma’nosini anglatadi. Rassomlar undan qoralama va grafik ishlarda keng foydalanadilar. Pastellar rangli ingichka bo‘r shaklida bo‘lib, ularning qog‘ozga yopishqoqlik xususiyati kuchli bo‘ladi.

**Perspektiva** – lotin tilidan olingan bo‘lib, «ravshan ko‘raman» degan ma’noni anlatadi. Borliqdagi barcha narsalar ma’lum masofadan turib kuzatilganda, kuzatuvchiga ularning o‘lchamlari, hajmi, rangi o‘zgargandek bo‘lib tuyuladi va bu hodisa **perspektiva** deb yuritiladi. Tasviriy san’atning nazariy asoslaridan hisoblangan perspektiva maxsus fan darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, uning chizikli, havo (rang) va relef (hajm) perspektivasi turlari bor.

**Primitivizm** – primitiv so‘zi "sodda, oddiy" ma’nolarini anglatadi. Primitivizm alohida ijodiy oqim sifatida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa va AQShda paydo bo‘lgan. Mazkur oqim vakillari o‘z asarlarini ataylab ibtidoiy, o‘rta asrlar, xalq san’ati, bolalar ijodiga yaqinlashtirib ishlaganlar. Bu oqimning maqsadi o‘sha davrda paydo bo‘lgan fovizm, kubizm, futurizm kabi turli yo‘nalishlarning tasviriy uslublaridan voz kechish

hisoblangan. Bu oqimda ko‘proq maxsus badiiy ta’lim olmagan havaskor va ular ergashgan rassomlar ijod qilishgan.

**Plakat** – fransuz tilidan olingan bo‘lib, "e’lon" ma’nosini anglatadi. Plakat tasviriy san’atning grafika turiga kiradi. Plakatlar kishilar hayotidagi eng muhim bo‘lgan muammolarning yechimi qaratiladi. Plakat – g‘oyaviy tashviqot va targ‘ibot vositasidir Masalan, tinchlik, ekologiya, OITS kabi muammolar bu janr uchun o‘ta muhimdir. Plakatlar ko‘shimcha katta o‘lchamda va rangli qilib ishlanadi.

**Plastilin** – haykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus qorishma. U mum, loy kabi moddalardan tashkil topgan bo‘lib, xamirsimon bo‘ladi. Plastilindan haykaltaroshlar haykallarning maketini tayyorlashda foydalanadilar.

**Plastika -** yunon tilidan olingan bo‘lib, "muloyim", "go‘zal" ma’nolarini anglatadigan haykaltaroshlikka doir atama. Unga ko‘ra, obrazlar bo‘rttirilgan holda ifodali qilib, uyg‘unlik qonunlari asosida yaratilgan bo‘ladi.

**Plastik anatomiya** – odam va hayvonlarning a’zolarini o‘rgatadigan fan. U odam va hayvonlarning tana tuzilishi, mushaklarining shakli, o‘lchamlari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rgatadi. Plastik anatomiyani bilish meditsina xodimlari, rassom va haykaltaroshlar uchun nihoyatda muhimdir.

**Plener** – fransuz tilidan olingan bo‘lib, "ochiq joy, keng ko‘rinish" ma’nolarini anglatadi. Ko‘pincha rassomlar o‘z asarlari uchun etyud, qoralama, ranglamalarni plenerda bajaradilar. Ochiq havoda etyud, qoralama ranglamalar ishlashdan maqsad kunduzgi tabiat va boshqa ob’ektlarning shakllari, ranglari haqida aniq tasavvur hosil etishdan iboratdir.

**Podramnik** – rus tilidan olingan bo‘lib, suvrat ishlash uchun mo‘ljallangan matoni tarang tortib turishga xizmat qiluvchi qurilma. Ular to‘rtta tekis yog‘ochlarni bir-biriga mahkamlash orqali to‘rtburchak yoki kvadrat shaklida tayyorlanadi.

**Portret** – fransuz tilidan olingan bo‘lib, "tasvir", aniqrogi "odam tasviri" ma’nosini anglatadi. Portret tasviriy san’atning alohida bir janri hisoblanadi. Portretda bir yoki bir necha shaxs tasviri ishlanishi mumkin. Ularda odamlarning boshi yoki beligacha bo‘lgan yoki to‘liq qomati tasvirlanadi. Portretlar yakka va guruhli bo‘lishi mumkin.

**Postament** – nemis tilidan olingan bo‘lib, "taglik" ma’nosini anglatadi. Postament haykalni ko‘tarib turadigan to‘rt yoqli prizma yoki silindr shaklida bo‘ladi. Ular muzey va ko‘rgazma zallarida ham namoyish etiladigan haykal yoki amaliy san’at buyumlarining tagiga qo‘yiladi.

**Postimpressionizm** – lotin tilidan olingan bo‘lib, "impressionizmdan keyingi" ma’nosini anglatadi. Ushbu ijodiy oqim XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiyada paydo bo‘lgan. Tasviriy san’atdagi neoimpressionizm,

kubizm, fovizm va shu kabi boshqa oqimlarning umumiy nomi hamdir. Bu oqim vakillari davr bilan bog‘liq yangi badiiy tasviriy vositalarni yaratishga harakat qildilar. Postimpressionistlar bir onni (lahzani) ifodalovchi taassurotlar o‘rniga jo‘shqin xis-tuygularga boy shakl va ranglarni qo‘llashni afzal ko‘radilar.

**Proporsiya** – lotin tilidan olingan bo‘lib, "munosabat" yoki "mutanosiblik" degan ma’nolarni anglatadi. U tasvirdagi o‘lchamlar (bo‘yi, eni, qalinligi, och-to‘qligi, katta-kichikligi va hokazo) o‘rtasidagi nisbatlarni nazarda tutadi.

**Poliptix** – "ko‘p qismli" yoki "bir necha qismli" degan ma’noni anglatadi. Ma’lumki, dastgohli san’at asarlari ikki qismdan iborat bo‘lsa «diptix», uch qismdan iborat bo‘lsa «triptix» deb ataladi. Agarda o‘sha asarlar to‘rt va undan ortiq qismdan tashkil topsa «poliptix» deb yuritiladi. Shuni ham hisobga olish lozimki, diptix, triptix, poliptix asarlaridagi g‘oyalar va mazmun o‘zaro bog‘liq va bir-birining davomi yoki to‘ldiruvchisi bo‘ladi.

**Pushti** – rang nomi. Och zarg‘aldoq rang.

**Puantilizm** – fransuz tilidan olingan bo‘lib, "nuqta" ma’nosini anglatadi. Bu yo‘nalishdagi rassomlar o‘z suvratlarini ma’lum mayda shakldagi (nuqta, kvadrat, doira va hokazo) rang dog‘lari yordamida ishlaganlar. Hozirda ham bu yo‘nalishda ijod qilayotgan rassomlar bor.

**P’edestal** – haykal yoki yodgorlik tagiga qo‘yiladigan taglik supa. Ular kub, prizma, silindr, kesik konus shaklida bo‘lishi mumkin.

**Pistoqi** – rang nomi, pista mag‘zining rangi.

**Rakurs** – odam, hayvon, manzara va boshqa narsalarning ufq chizig‘idan ancha yuqori yoki pastdan turib ishlangan tasviri. Bunda tasvirlanadigan narsalar sezilarli darajada qisqarib ko‘rinadi.

**Ranglama** – qisqa vaqt ichida bo‘yoklar bilan ishlanadigan xomaki rasm.

**Rassom** – rangtasvir va grafika turida ijod qiluvchi mutaxassis.

**Ranglar toni** – bu ularning och-to‘qligi darajasini anglatadi. Ranglar toni bo‘yoqlarning tarkibidagi eritmaning oz yoki ko‘pligiga qarab belgilanadi. To‘q ranglar – qora, zangori, binafsha bo‘lsa, och ranglar – oq, pushti, havorangdan iborat bo‘ladi.

**Rang tusi** – bu birgina rangni bir necha darajasidagi bir-biridan farq qiluvchi sifatlaridir. Masalan qizil, sariq, yashil, zangori kabilar rang hisoblanadi. Qizil rangning esa qirmizi, pushti, lolaro‘y, gulgun kabi tuslari ham bor. Yoki zangori rangning havorang, moviy, lojuvard tuslari bo‘ladi.

**Rang to‘yimliligi** – bo‘yoqlarni yorqinligini bildiradi. Qorishmada kul rang qanchalik kam bo‘lsa, u shunchalik to‘yimli va yorqin, kulrang ko‘p bo‘lsa aksincha, shunchalik to‘yinmagan bo‘ladi.

**Ranglar spektri** – "spektr" so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, "tasavvur" ma’nosini anglatadi. Spektrning boshqa turlari kabi optik turi ham

bor. Optik spektrda oddiy quyosh nurini linzadan o‘tkazilganda oyna uni turli – qizil, sariq, zangori, yashil va boshqa ranglarga ajratib beradi. Bu hodisa "ranglar spektri" deb ataladi. Ranglar spektrini tabiatda yomg‘irdan so‘ng osmonda paydo bo‘ladigan kamalaklarda ham ko‘rish mumkin.

**Rangshunoslik** – hayotda va san’atda ranglarning kishilar kayfiyatiga, ularning his-tuyg‘ulariga ta’sirini o‘rganadigan fan. Rangshunoslik sanoat, meditsina muammolari bilan ham shug‘ullanadi. Tasviriy san’atda rangshunoslik fani ranglar yordamida tasviriy obrazlar yaratish, ularning ifodaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

**Rang (havo) perspektivasi** – real borliqdagi narsa va hodisalarning ranglarida kishi ko‘zidan uzoqlashgan sari ro‘y beradigan o‘zgarishlardir. Rang perspektivasi tufayli ularning ranglari (havo, chang, tuman ta’sirida) o‘zining haqiqiy tusini yo‘qotadi.

**Ranglar garmoniyasi** – "garmoniya" so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib. "bog‘lanish, uyg‘unlik" ma’nolarini anglatadi. Rangtasvir suvratlarda ishlatilgan turli ranglar bir-biri bilan uzviy bog‘lansa, hamohang bo‘lsa, ular ranglar garmoniyasini tashkil etadi. Aksincha, ranglar bir-birlarini inkor etsa, bir-birlari bilan bog‘lanmasa disgarmoniyani keltirib chiqaradi.

**Ranglar qarama-qarshiligi (kontrast ranglar)** – rangtasvir suvratlarda ishlatiladigan ranglarning bir-birlariga teskari turlari bor. Ular och va to‘q, iliq va sovuq, shaffof va kir, yorqin va xira ranglardir. Ular qarama-qarshi ranglar deb hisoblanadi. Ikki qarama-qarshi rang yonma-yon qo‘yilganda ularning birining yorqinligi kuchayadi, ikkinchisiniki esa susayadi. Bu holat ranglar qarama-qarshiligi yoki kontrast deyiladi.

**Ranglar doirasi** – asosiy (qizil, sariq, zangori) ranglarni o‘zaro aralashtirshp orqali hosil qilingan qo‘shimcha 12 xil yoki 24 xil rang tuslarining ma’lum tartibda joylashgan ko‘rinishi.

**Relef** – lotin tilidan olingan bo‘lib, "qabariq", "bo‘rtma" ma’nolarini anglatadi. Haykaltaroshlikda tasvir tekislik yuzasidan qisman bo‘rtib chiqqan bo‘ladi. Uni barelef va gorelef turlari bor.

**Reproduksiya** – lotin tilidan olingan bo‘lib, "qayta hosil qilish", "yaratish" ma’nolarini anglatadi. Tasviriy sanatda reproduksiya deb suvrat, grafik ish va haykaltaroshlik asarlarini bosmaxona sharoitida ko‘p nusxalarda qog‘ozda ko‘paytirilgan tasvirlariga aytiladi.

**Restavratsiya** – san’at asarlarini ta’mirlash ma’nosini anglatadi.

**Retush** – fransuz tilidan olingan bo‘lib, "tasvirni tuzatmoq" ma’nosini anglatadi. Retush qalam shaklida bo‘lib, uning tarkibi oddiy qalamdan farq qiladi. Unda turli grafik va fotografik ishlarning kamchiliklarini tuzatishda foydalaniladi.

**Refleks** – yonma-yon turgan narsalar va ularning sirtiga tushayotgan yorug‘lik nurlarining qaytishidan boshqa narsalarning sirtida yorug‘likning jilolanish hodisasi.

**Realizm** – **XIX** asrning oʻrtalarida Fransiyada paydo boʻlgan ijodiy oqim. U tasvirni haqiqatan hayotda qanday koʻrinsa - shunday ifodalashni nazarda tutadi. Lekin u fotografiyadan farq qilib, asarning yuqori badiiy va mazmunan boy boʻlishini talab etadi.

**Ritm** – yunon tilidan olingan boʻlib, "oqaman" ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda asarning ifodaviylik vositalaridan biri hisoblanib, u asarning tomoshabinga estetik ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi. Suvratdagi detallarning, ular shakllarining, ranglarining, oʻlchamlarini qaytarilib yoki almashinib kelishi ritmni hosil qiladi.

**Romantizm** – dastlab Yevropa va Amerika madaniyati va san'atida paydo boʻlgan goyaviy va badiiy yoʻnalish. Bu yoʻnalishdagi rassomlarning ijodiga ma'naviy-ijodiy erkinlik, kuchli ehtiros va shiddatlarga talpinish, milliy madaniyat va folklorga qiziqish, uzoq yurtlar va xalqlar hayotini tasvirlash xosdir. Ularning asarlarida gʻayrioddiy va kutilmagan, oʻtkir dramatik hodisalar, inqilobiy kurashlar, tarixiy voqealar, qahramonona afsonalar, Sharqning qiziqarli koʻrinish va hodisalari ifodalanadi. Bu yoʻnalishdagi ijodkorlar odatda oʻz asarlari uchun kuchli ehtiros va xarakgerga ega shaxs obrazlarini tanlab olishadi.

**Rusalka** – rus rangtasvirida uchraydigan boshi ayol, tanasi baliq jonzot tasviri. Uni suv parisi deb ham ataydilar.

**Sabza** – rang nomi, erta bahorda yangi unib chiqqan oʻt-oʻlanlar rangi.

**San'atshunos** – sanat tarixi, nazariyasi va ushshg taraqqiyoti boʻyicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassis olim.

**San'atshunoslik** – san'at tarixi, uning muammolari bilan shugʻullanuvchi fan.

**Somoniy** – rang nomi, somon rangi, tillasimon rang.

**Sangina** – lotin tilidan olingan boʻlib, "qonga oʻxshash" ma'nosini anglatadi. Sangina qalam shaklida, temir oksidli tuproqsimon moddalardan tayyorlanadi. Uning qogʻozga yopishqoqlik xususiyati kuchli boʻladi. Rassomlar Sanginadan xomaki rasm ishlash jarayonida keng foydalanadilar.

**Sanoat grafikasi** – sanoatda qoʻllaniladigan reklama, yorliq. emblema, blanka, konvert, tovar belgilari, etiketka, oʻram qogozlari, qadoq idishlari va boshqalarni ifodalaydigan grafika turi.

**Sariq** – rang nomi, momaqaymoq (qoqi oʻt) gulining nomi.

**Sadaf** – rang nomi, nim sargʻish rang, dengiz shilliqqurti chigʻanoqlarining ichki qismi rangi.

**Sepiya** – jigar rang boʻyoq bilan ishlangan rasm, tasvir.

**Siluet** – bir rangda, hajmsiz qilib ishlangan rasm. Uni soyali tasvir, desa ham boʻladi.

**Siymob** – rang nomi, simob rangini eslatuvchi rang tusi.

**Simmetriya** – ushbu atama yunon tilidan olingan boʻlib, "oʻlchamdosh" degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atda tasvirlangan

obraz, ob’ekt yoki narsaning o‘rtasidan tik (vertikal) o‘q chiziq o‘tkazilganda, uning chap va o‘ng tomonlari o‘lcham jihatidan bir-biriga teng bo‘lsa, u simmetrik shakl hisoblanadi. Shuningdek, suvratning chap va o‘ng, yoki yuqori va pastki qismlaridagi o‘zaro tenglik yoki o‘xshashlik ham simmetriyani bildiradi. Masalan, kapalak simmetrik shaklga ega. Simmetriya o‘qli va markaziy turlarga bo‘linadi. O‘qli simmetriyada simmetriya o‘qi bitta bo‘lsa, markaziy simmetriyada u bir nechta bo‘lishi mumkin.

**Simvolizm** atamasi ham Yunon tilidan olingan bo‘lib, "ramziylik", "timsol" ma’nolarini anglatadi. Mazkur yo‘nalish XIX asr oxiri va **XX** asr boshlarida Fransiyada paydo bo‘lgan. Simvolizm yo‘nalishidagi ijodkorlarning badiiy ijodi asosini suvratda yashiringan ramziy obraz – simvollar tashkil etadi. Simvolizm yo‘nalishidagi rassomlar ko‘proq g‘ayritabiiy kayfiyat bilan sug‘orilgan, yarim afsonaviy kompozitsiyalar yaratishgan. Ularning ijodida alohida badiiy-tasviriy uslubni izlash ko‘zga tashlanadi. Buni ular chiziqlar ritmi, ranglar uygunligi yordamida amalga oshirganlar va murakkab ramziy ma’nolarni talqin etishga erishganlar.

**Slayd** – diapozitiv, fotoplyonkaga tushirilgan suvrat tasviri.

**Sovuq ranglar** – o‘z rang tuslarining ko‘rinishi bilan kishilarda sovuq taassurotlarni uygotuvchi moviy, havo rang, zangori, binafsha ranglar shunday deb ataladi.

**Soya** – narsalarning yorug‘lik tushmaydigan qismida hosil bo‘lgan ko‘rinish. Soyalarning ikki xili bo‘ladi. Ular shaxsiy soya va tushuvchi soyalar deb yuritiladi.

**Sous** – jigarrang tusga ega bo‘lgan maxsus aralashmadan tayyorlangan qalamcha shaklidagi rassomning ish quroli. Uning o‘lchami 4–5 sm dan oshmaydi. Sousdan rassomlar ko‘proq xomaki ishlarni bajarish jarayonida foydalanadilar.

**Stek** – haykaltaroshlik asbobi. Steklar yog‘och, metall yoki plastmassa materiallardan tayyorlanadi. Steklarni turli shakl va o‘lchamdagilari bo‘ladi. Steklardan loy, yogoch, mum va plastilindan haykal ishlashda qo‘llaniladi.

**Supermuqova** – kitob badiiy bezagida ishlatiladigan qog‘ozga ishlangan tasvir. Ular bezakli va rangli holda kitoblarni tashqi ta’sirdan saklash maqsadida kitob ustiga kiydiriladi. Supermuqovani "sarmuqova" ham deyishadi.

**Suvrat** – yuksak badiiy saviyada ishlangan ranggasvir yoki grafik tasvir.

**Sfinks** – qadimgi Misr haykaltaroshligida uchraydigan tanasi sher, bosh odam shaklidagi afsonaviy maxluq tasviri.

**Syurrealizm** atamasi fransuz tilidan olingan bo‘lib, "o‘ta realizm" ma’nosini anglatadi. Ushbu ijodiy oqim XX asrda Fransiya san’atida paydo bo‘ltan. Bu oqim vakillari avangardlik yo‘nalishdagi san’atda aql-zakovat,

mantiq, har qanday tabiiy-estetik va axloqiy hissiyotlarni tasvirlashga qarshi chiqadilar. Ular o‘z asarlarida aqliy faoliyatdagi, jamiyat hayotidagi shakllangan tizimni tubdan o‘zgartirishga harakat qilganlar. Syurrealizm vakillari ijodkor ongiga tasodifan kelib qolgan so‘z, fikr, turli-tuman tasavvurlarning dastlabki, kutilmagan holatdagi shakli asarning asosi bo‘lishi lozim, deb xisoblaganlar.

**Tarixiy janr** – tarixiy voqealarni tasvirlovchi tasviriy sanat janri.

**Tasviriy san’at** – borliqda mavjud va mavjud bo‘lmagan mavjudot, narsa va hodisalarni tasvirlovchi san’at turi.

**Tempera** – ushbu atama italyan tilidan olingan bo‘lib, "bo‘yoq qorishtirish" ma’nosini anglatadi. Tempera suv bilan eritib ishlatiladi. U ko‘proq binolarning bezagida, rangtasvir ishlarida keng qo‘llaniladi. Tarkibida maxsus moddalar bo‘lganligi sababli va yorug‘lik ta’sirida o‘z rangini o‘zgartirmaydi, uzoq vaqtgacha o‘z tusini saqlab qoladi.

**Tush** – qora siyoh. Shu vosita bilan ishlangan asar ham ba’zan "tush" deb ataladi.

**To‘tiyo** – rang nomi, yorqin yaltiroq yashil rang.

**To‘tigiy** – rang nomi, zangori va yashil bo‘yoqlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan rang.

**Tulum** – hayvon, qush, baliq kabilarning maxsus materiallar yordamida o‘ziga o‘xshatib tayyorlangan nusxasi.

**Tushuvchi soya** – soyalar nazariyasida ular ikkiga: 1) shaxsiy; 2) tushuvchi soyalarga bo‘linadi. Predmet tanasidagi soya – shaxsiy soya, bir predmetdan ikkinchi predmetga yoki tekislikka tushgan soya tushuvchi soya, deb yuritiladi.

**Titul** – bu atama lotin tilidan olingan bo‘lib, "yozuv" ma’nosini anglatadi. Titul varaq kitoblarda muqovadan keyin keladi. Ularda kitob muallifi, kitobning nomi, kitob nashr etilgan shahar, uni chop etgan nashriyot va nashr yili yozilgan bo‘ladi.

**Tors** – italyan tilidan olingan bo‘lib, "inson tanasi" ma’nosini anglatadi. Qadimda badiiy o‘quv yurtlarida talabalar boshsiz, qo‘lsiz, oyoqsiz gipsdan ishlangan odam tanasining rasmini ishlab chizishni o‘rganganlar va u «Tors» deb atalgan.

**Triptix** – yunon tilidan olingan bo‘lib, "uch bor buklangan" degan ma’noni anglatadi. Aslida u yagona umumiy mazmun va g‘oyani ifodalaydigan uch bo‘lakdan iborat rangtasvir yoki grafika asari xisoblanadi.

**Upakovka** – ya’ni "o‘rama" san’at grafikasining bir turi bo‘lib, sanoatda ishlab chiqarilgan mollar joylashtirilgan maxsus qadoqlash idishlari va ularning ustiga yozib qo‘yiladigan ma’lumotnomadir.

**Ufq CHIZIG‘I** – (gorizont) yunon tilidan olingan bo‘lib, chegaralash ma’nosini anglatadi. U kuzatuvchining ko‘z balandligida tasavvur etiladigan

gorizontal (yotiq) chiziq. Ochiq kengliklarda u kuzatuvchi tasavvuridaga osmon bilan yerning kesishgan joyidagi chiziqni bildiradi.

**Faktura** – lotin tilidan olingan bo‘lib, «tuzilish» ma’nosini anglatadi. Unda asosan narsalar ustki qismining tuzilishi nazarda tutiladi. Faktura – silliq, g‘adir-budir, tekis bo‘lishi mumkin.

**Fas** – (anfas) tasviriy san’atda rasmi ishlanayotgan mavjudot va narsalarning oldidan ko‘rinishidir.

**Fleys** – katta o‘lchamdagi va kenglikdagi mo‘yqalam. Ular ko‘pincha bino va mahobatli rangtasvir ishlarini bajarishda ishlatiladi.

**Fon** – lotin tilidan olingan bo‘lib – "tub" "asos", "zamin" ma’nolarini anglatadi. Tasviriy san’atda fon rasmning orqa qismidagi tasvirli yoki tekis bo‘yalgan qismidir.

**Feruza** – rang nomi, zangori yorqin, yaltiroq tosh rangi.

**Frontispis** – lotin tilidan olingan bo‘lib, "old tomonni ko‘raman" ma’nosini anglatadi. U kitob titul varag‘ining chap, muqovaning orqa tomonidagi bezakli sahifasi hisoblanadi. Frontispisda odatda kitob muallifining rasmi yoki u haqda ma’lumot, kitob mazmuni, g‘oyasi bilan bog‘liq illyustratsiyalar beriladi.

**Frontal kompozitsiya** – frontal so‘zi "ro‘parasidan, to‘grisidan ko‘rinishi" ma’nosini anglatadi. Bunday kompozitsiyalar, rangtasvir, grafika, relefli bo‘ladi va tekis yuzalarda aks ettiriladi. Ularni faqat bir tomondan, old tomondangina kuzatish mumkin.

**Futurizm** – lotin tilidan olingan bo‘lib "kelajak" ma’nosini anglatadi va mazkur ijodiy oqim o‘z mazmuniga ko‘ra kubizmga yaqin turadi. Futurizm XX asr boshlarida Fransiyada paydo bo‘lgan avangardizm okimi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning vakillari kelajak sanatini yaratishni maqsad qilib, an’anaviy madaniyat va san’atning mohiyati va mazmunini inkor etganlar, katta sanoatlashgan shaharlar yutuqlarini, texnik uskunalar harakatini, kuch-quvvatini ulug‘laganlar. Futuristlar o‘z asarlarida shakllarning o‘zaro kesishuvi, surilishi, to‘qnashuvlarini, muayyan motivlarning ko‘plab qaytarilishini ifodalaganlar. Bu orqali ular zamonaviy shaharlardagi shiddatli hayot oqimini ko‘rsatmoqchi bo‘lganlar.

**Xromatik ranglar** – ushbu atama yunon tilidan olingan bo‘lib, "rang, bo‘yoq" ma’nolarini anglatadi. Ular qatoriga oq, qora, kulrang tuslaridan tashqari barcha rang tuslari kiradi.

**Chiziqli perspektiva** – deb narsalarning kishilar ko‘zidan uzoqlashgan sari o‘lchamlarida ro‘y beradigan o‘zgarishga, ya’ni ularning qisqarib ko‘rinishiga aytiladi.

**Chuqur fazoviy kompozitsiya** – bunday kompozitsiyalar asosan jamoat va turarjoy binolarining ichki qismini, xususan yo‘lak, koridor, foe, uy xonasi kabilarni loyihalashda, maketini ishlashda qo‘llaniladi.

**Shaxsiy soya** – tasvirlanayotgan narsalarning sirtidagi o‘z soyasi.

**Shedu** – qadimgi Sharq, Old Osiyo haykaltaroshligida uchrashgan tasvirni bildiradi. Unda boshi odam, tanasi buqa koʻrinishidagn afsonaviy maxluq tasvirlanadi.

**Shingob** – rang nomi, tilla rangiga oʻxshash rang.

**Shmustitul** – ushbu atama nemis tilidan olingan boʻlib, "sarlavxa, titul" soʻzlarini ifodalaydi. U kitobning titul varaq yoki har bir bobidan oldin qoʻyiladigan varaqni anglatadi. Shmustitulda bob sarlavhasi va badiiy bezaklar ham ifodalanadi.

**Shtrixlash** – qalam yoki shu kabi ish qurollari bilan rasm chizganda qoʻllaniladigan uslub.

**Ekslibris** – kitob yoki biror hujjat biror shaxsning kutubxonasiga tegishli ekanligini bildiruvchi tamgʻa. Unda shaxsiy kutubxona egasining ismi va familiyasi, shuningdek, biror tasviriy belgi boʻlishi ham mumkin. Ekslibrislar gravyura uslubida tayyorlanadi.

**Ekspozitsiya** – lotin tilidan olingan boʻlib, "koʻrsatish, namoyish etish" ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atda muzey, badiiy koʻrgazmalarda san’at asarlarini tomoshabinga namoyish etish tushuniladi.

**Eksponat** – lotin tilidan olingan boʻlib, "koʻrgazmaga qoʻyilgan" degan ma’noni bildiradi. Tasviriy va amaliy san’atda namoyish etilayotgan asar tushuniladi.

**Ekspressionizm** – lotin tilidan olingan boʻlib, "xissiy ifodalash" ma’nosini anglatadi. Ushbu ijodiy oqim XIX asr boshlarida adabiyot va san’atda paydo boʻldi. Bu yoʻnalishdagi rassomlar ijodida zamonaviy sivilizatsiyaning inqirozi va insoniyatni xalokatga yetaklayotgan voqealar aks ettiriladi. Shuningdek, ularda urush va insonlar huquqini oyoq osti qilinishiga qarshi mavzular va tasviriy vositalar keng ishlatiladi. Ekspressionizm oqimida ishlangan ranggasvir va grafik ishlarda (qarama-qarshi och-toʻq, oq-qora) rang dogʻlarining keng qoʻllanilishi asar gʻoyalarini yorqin ifodalashga yordam bergan.

**Emblema** – yunon tilidan olingan boʻlib, "biror gʻoyani shartli tasvirlash" ma’nosini anglatadi. Masalan, kitob tasviri – ma’naviyat va ta’lim belgisidir.

**Eskiz** – fransuz tilidan olingan boʻlib, "xomaki tasvir" ma’nosini anglatadi. Rangtasvirda u boʻlgʻusi asarning kichik oʻlchamdagi xomaki ishlangan namunasi. Unda suvrat kompozitsiyasi, mazmuni, ranglari, asosiy detallar tasvirlanadi.

**Estamp** – grafikaga doir mustaqil asar. Ular gravyura uslubida koʻp nusxada tayyorlanadi va ish muallif – rassomning koʻrigidan oʻtadi. Zarur boʻlgan taqdirda, ularga qisman tuzatishlar kiritiladi va ish tagida rassomning shaxsiy imzosi qoʻyiladi. Estamplar oq-qora yoki rangli boʻlishi mumkin.

**Etyud** – bu soʻz fransuz tilidan olingan boʻlib, "mashq qilish" ma’nosini anglatadi. Etyud rassomni kelajakda biror asar yaratishdan,

dastlabki tayyorgarlik bosqichidir. U tasviriy san’atning deyarli barcha janrlarida ishlatiladi. Bir suvrat uchun ko‘plab etyudlar ishlatilishi mumkin.

**Etyudnik** – rassomning ish qurollari va materiallarini solib yuradigan qutisi. Unda mo‘yqalam, bo‘yoq, qog‘oz, karton va boshqa shu kabilar saklanadi. Etyudnik rassomga manzara, portret, etyud ishlaganda molbert vazifasini ham o‘taydi.

**Etiketka** – (yorliq) grafikaning bir turi bo‘lib, ko‘pincha unda sanoatda ishlab chiqilgan mollar haqida ma’lumotlar yozilib, etiketka mahsulot ustiga yopishtirib qo‘yiladi. Namoyishga qo‘yilgan yoki muzeylarda saqlanayotgan tasviriy san’at asarlarining ham etiketkalari bo‘ladi. Etiketkalarda asarni yaratgan muallifning ismi-sharifi, uning nomi, yaratilgan yili, asar qanday materialdan ishlanganligi yozib ko‘yiladi.

**Yakuniy bezak** – bu atama kitob grafikasiga mansub bo‘lib, uning bob yoki fasllari, qismlarining oxirida beriladigan tasvir. Ular naqshli yoki mazmunli bo‘lishi mumkin.

**Yarim soya** – turli-tuman mavjudot va narsalar tanasidagi, shuningdek, ularning tasviridagi yorug va soyalari o‘rtasidagi qismi.

**Yashil** – rang nomi, to‘q barg rangi.

**O‘zbekiston Xalq rassomi** – O‘zbekiston tasviriy san’atini rivojlantirishda ko‘plab xalqqa manzur, yuksak badiiy saviyada asarlar yaratishda qo‘rsatgan katta xizmatlari uchun rassom va haykaltaroshlarga xukumat tomonidan beriladigan unvon.

**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi –** O‘zbekiston san’ati (musiqa, teatr, kino, me’morchilik, tasviriy va amaliy san’at va boshqa)ni rivojlantirishdagi katta xizmatlari, ko‘plab yuqori badiiy saviyadagi san’at asarlarini yaratganligi uchun san’at namoyandalariga xukumat tomonidan beriladigan unvon.

**Qo‘shimcha ranglar** – asosiy ranglar hisoblangan qizil, sarpq. zangori, shuningdek, oq va qora ranglardan tashqari barcha ranglar.

**Qoralama** – qora qalam, retush, ko‘mir, sous, sangina kabi ish qurollari bilan tez va qisqa vaqt davomida bajariladigan xomaki rasm.

**Haykal** – haykaltaroshlik mahsuli bo‘lib, ular loy, tosh, yogoch. temir, mum kabi materiallardan hajmli qilib ishlanadi. Haykallarni yumaloq va rel’efli turlari bo‘ladi.

**Haykaltaroshlik** – tasviriy san’atning bir turi. Bunda odam, hayvon va qushlarning hajmli tasviri turli materiallar yordamida ishlanadi. Haykaltaroshliqda ko‘pincha tosh, yogoch, loy, gips, metall va shu kabi materiallardan foydalaniladi. Uning mayda plastika, terrakota, dastgohli haykaltaroshlik, mahobatli haykaltaroshlik, istirohat boga haykaltaroshligi, dekorativ haykaltaroshlik kabi turlari bor.

**Havo rang** – rang nomi, osmon rangi.

**Hajmli kompozitsiyalar** – haykaltaroshlikda, amaliy san'at va me'morlikda qo'llaniladi. Bunday kompozitsiyalar uch o'lchamli bo'lib, ularni har tomondan kuzatish mumkin.

**Hajm (relef) perspektivasi** – har qanday narsalar kishi ko'zidan uzoqlashgan sari faqat o'lcham, rang jihatdan emas, balki relef perspektivasiga duch keladilar. Bunda predmetlar o'z hajmini yo'qotib, yupqa bo'lib ko'rinadi.

## INTERYERDA RANGSHUNOSLIK ATAMALARINING QISQACHA IZOHLI LUG‘ATI

**Absorbsiya** – biror yuzaga tushayotgan nur, uning jism molekulalari tomonidan yutilishi.

**Absolyut rang** – toza ochroq va toza to‘q, ya’ni ochroq ham, to‘qroq ham bo‘lmagan rang. Osvaldni xulosasi bo‘yicha toza och va toza to‘q ranglarning o‘rtasi.

**Adaptatsiya** – Ko‘zning yorug‘likka, qorong‘ulikka yoki rangga moslashishi. Misol uchun qorong‘i joydan yorug‘likka chikqach, ko‘z ancha vaqtgacha yaxshi ko‘rmaydi. Oradan bir necha daqiqa o‘tgandan so‘ng muhitga moslashadi. Shuningdek, qorong‘i joyga kirganda ham xuddi shunday bo‘ladi.

**Additiv aralashma** – Ikkita bir biriga qarama-qarshi (ko‘k va zargaldoq) ranglarni optik yo‘l bilan qo‘shganda hosil bo‘lgan rangsizlik, ya’ni oq rangga aytiladi.

**Qizish lampalari** – volfram sim orqali tok o‘tganda qizish oqibatida nur tarqatuvchi lampalar.

**Qardosh ranglar** – bir-biriga issiklik yoki sovuklik sifatlari bilan yaqin ranglar. Masalan: sariq-zarg‘aldoq, qizil-zarg‘aldoq, yashil-och yashil, ko‘kish-ko‘kish binafsha va hokazo.

**G‘oya** – kompozitsiyaning asosiy mazmuniy yo‘nalishi. Asarning obrazi, tarixiy, mafkuraviy, siyosiy qarashlarini hamda muallifning muhitga munosabatlari va uning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi sifatlar.

**Borliq** – Butun borliq, voqelik, mavjudot, ob’ektiv bor-liqqa nisbatan kishi ongi, ya’ni sub’ektiv qarashlar, .real dunyoga nisbatan yuzaga keladi.

**Grafika** – tasviriy san’atning bir turi. Grafika odatda oq-qora rangda ishlanadi yoki chegaralangan, shartli ranglarda ishlanib, asosan bosma usulda tasvirga tushiriladi.

**Dizayn** – (loyiha-fikr) asosiy maqsadi uyg‘unlashgan jismlar muhitini yaratish. Shuningdek insonning moddiy va ma’naviy, estetik talabalarini qondirishga qaratilgan ijodiy faoliyat turlaridan biri.

**Diffuziya** yorug‘lik biror yuzaga tushganda va undan qaytayotgan nurlar tartibsiz qaytsa (noteks yuzada) bu diffuziyali aks etish deyiladi.

**Yengil ranglar** – Bunday ranglarga sariq-zargaldoq, och ko‘k (havorang) kabilar kiradi.

**Yorug‘lik ranglar** – absolyut ranglardan oq qutbga tomon ocharib, yorug‘lanib borgan ranglar.

**Yorug‘lik** – tabiiy, sun’iy tarzda quyoshdan, elektr lampadan va boshqa yoritgichlardan taraladi. U sekundiga havosiz bo‘shlikda 300000 km. tezlikda (havosiz bo‘shlikda harakatda bo‘lib, foton-lar oqimi, elektromagnit nurlanishning muayyan bir bo‘lagi.

**Ijodiy faoliyat** har qanday san'at yoki adabiyot sohasidagi yaratuvchashshk faoliyatini ijodiy faoliyat deyish mumkin. Ijod bu, albatta, yaratuvchanlik bilan bog'liq bo'ladi.

Tasviriy san'atda musavvir kartina yaratadi, ya'ni u kompozitsion mavzu yechimini beradi. Agar biror tayyor shakldan ko'chirilsa, u ko'chirma bo'lib ijodkorlikga kirmaydi,

**Illyuziya** – tasviriy san'atda biror jismni tasvir orqali kayta eslatish, uning aynan shaklini jonli eslatish. Teatr sahnasida suv, quyosh, oy, yulduzlar, harakatdagi bulutlar va hokazolarning illyuziyasini tasvirlash.

**Issiq ranglar** – doiradagi sariq ranglardan binafsha ranglargacha bo'lgan, ya'ni sariq, zarg'aldoq, qizil, purpur ranglari.

**Keramika** – amaliy san'at turlarining biri bo'lib, uning mahsulotlari sopoldan ishlanadi. Keramika xalq amaliy san'ati va badiiy keramika turlariga bo'linib birinchisi asosan o'y-ro'zg'or buyumlari suv eltuvchi quvurlar me'morchilikda dekorativ bezak beruvchi detallar, h.k. bilan shug'ullanadi. Oxirgisi badiiy ijod turiga kirib, u monumental asarlar, badiiy dekorativ bezaklar, me'moriy muhit yaratishda eksterer Interyerlar uchun kichik formalar yaratadi.

**Konstruksiya** – jismlarning tuzilishi, qismlarining biri-biriga birikib, konstruktiv yaxlitlikda bo'lishi. Masalan avtomobilning umumiy ko'rinishi konstruktor rassom tomonidan yaratiladi. Ijtimoiy turmush tarzimizning barcha jihozlari, me'moriy inshootlar, shuningdek muhitdagi barcha jonzot o'z konstruktiv tuzilishiga egadir.

**Kontrast** – tonlarning bir-biriga nisbati, axromatik yoki xromatik ranglarni bir-biridan ajralib turishi; soya va yorug'likning o'zaro farqi; qarama-qarshilik, zidlik.

**Lyuks** – yoritilganlik darajasining o'lchov birligi.

**Lyumen** – nur oqimining o'lchov birligi.

**Lyumenissent lampalar** – sovuq holda nur tarqatuvchi, (gaz. suyuklik yoki qattik, jismlarining sovuq holda nur sochishi, nurlanishi).

**Obraz** – san'atda borliq voqeligini aks ettirish formasi, voqelikni badiiylashtirib ifodalash, tasviriy san'atda g'oyaning hissiy aniq, ko'rgazmali ifodalash.

**Og'ir ranglar,** bunday ranglarga qizil, binafsha ko'k, yashil malla, qora kabi ranglar kiradi. Och ranglar - oq qutbga tomon yaqinlashgan sari ochilib borgan ranglar, oq aralashgan ranglar och ranglar turkumiga kiradi.

**Perspektiva** – jismning forma va o'lchamlari, shuningdek uning rang xususiyatlarining masofadan o'zgarib ko'rinishi, ko'z orqali idrok etilgan fazoviy jismlar formalarini tasvirlash qonuniyatlarini tadqiq etuvchi fan.

**Pigmentlar** – barcha bo'yoklar: metallar kukunlari, tabiiy holda, ya'ni o'simliklar tomirlari, yer yoki mayda hasharotlar maxsus usulda yanchilib,

ularning talqonlaridan tayyorlanadi.Suv bo‘yoqlar rang talqonlariga yelim qo‘shilgan holda emal, esa *yog* qo‘shilgan holda tayyorlanadi.

**Polixromiya** – ranglar majmui, rang-baranglik.

**Rang dog‘lari** – biror yuzaga surtilgan, ma’lum maydonda o‘z xususiy ta’sir kuchiga ega rang dog‘lariga aytiladi.

**Rang konstantligi** – biror jism rangining va uning umumiy ko‘rinishining xotirada saqlanib qolishi. Masalan, ok bo‘rni qizil yorug‘lik tushgandagi holatini kuzatayotganda uning haqiqiy o‘z rangining xotirada gavdalanib turishi.

**Ranglar munosabati** – ranglarning bir-biri bilan yonma-yon turishi yoki ranglarning o‘zaro muhitdagi bir-biriga ta’sirchanligi oqibatida yuzaga kelgan majmui.

**Ranglar majmuasi** – tasviriy asarda asos qilib olingan ranglar va undagi umumiy rang ohanglari. Masalan, asarda ikki yoki uch rang ohanglari masalan, qizg‘ish bilan ko‘kish ranglar.

**Ranglar toni** – xromatik ranglar o‘zining raig tonlari farklanishi bilan bir biridan ajralib turadi. Masalan, absolyut yashil rang oq qutbga ocharib boradi; qora qutbga uning rangi to‘qlashib, koramtir tuslanib boradi. Shuningdek, rang tonlari bir-biriga qo‘shilganda biri-biriga yaqinlashadi. Agar yashilga ko‘k rang qo‘shilsa, ko‘kish-yashil ton hosil bo‘ladi.

**Rangtasvir** – tasviriy san’atning asosiy yo‘nalishi. Atrof muhitni ranglar vositasida ifoda etuvchi tasvir turi. Ranggasvir (texnikaviy) uslubiy jihatdan yog‘ bo‘yoq, suv bo‘yoq, tempera bo‘yog‘i, mozaik, vitraj, guash bo‘yog‘i, pastel bo‘yog‘i vositalarida bajariladi. Janr jihatdan: dastgoxlik, monumental, teatr bezagi, miniatyura rangtasviri kabilarga bo‘linadi.

**Rang filtrlari** – maxsus tayyorlangan rangli shishalar yoki plastik moddalardan tayyorlangan moslamalar. Ular ma’lum bir yorug‘lik oqimini kuchaytirish, ya’ni rang ta’sirchanligini oshirish uchun tayyorlanadi.

**Remissiya** – biror yuzaga tushayotgan, (masalan bo‘rli emulsiyada bo‘yalgan yuza) yorug‘lik oqimining bir qismi o‘sha yuzada yutilsa bu holat yorug‘likning remissiyalanishi deyiladi.

**Siluet** – soya profeli yorug‘ fonda biror shaklning chegaralanib yaqqol ko‘rinishi, Masalan: odamning qomati yorug‘ osmon fonida, yorug‘lik orka tomondan tushayotgan holatda seluet bo‘lib ko‘rinadi. Umuman yorug‘ fonda chegaralanib turgan qoramtir tondagi figura yoki qora fonda oqarib, chegaralanib turgan figura simvol - obraz, ramziylik (tor ma’noda biror rangni ramziyligi. Masalan O‘zbekiston bayrog‘idagi ranglar ramziylikni ifodalaydi ya’ni osmon, yer tabiati va h.k.)

**Simmetriya** – o‘q chizig‘iga nisbatan tomonlarning bir-biriga tengligi, o‘xshashligi, simmetrik joylashganligi. Tabiatdagi barcha mavjudotlar qismlari asosan simmetrik tartibida bo‘ladi. (ikki ko‘z, ikki ko‘l, ikki oyoq, va h.k. umuman juftlik tabiat qonuniyati).

**Spektr** – oynada yoki diffraksion prizmadan o‘tgan nurning 7 xil rangda ko‘rinishi, quyosh nurining spektri.

**Subtraksiya** – ekranga spektr nurlar yuborilgan oqimni qizil filtr bilan to‘silsa, u holda faqat o‘sha kizil rang filtrdan o‘tadi. Qolganlari kamayib subtraksiya holati yuzaga keladi yoki karama-qarshi ranglar: ko‘k bilan zarg‘aldoq rangli nurlarni kesishganda oq rang yuzaga keladi. Ranglar uchib subtraksiya holati sodir bo‘ladi.

**Taqqoslash** – o‘lchamlarni, hajmlarni, shuningdek rang farqlanishini taqqoslash, bir-biriga nisbatan farklarini ajratish.

**Ton** – xromatik yoki axromatik ranglar toni, masalan ular qoradan oqqacha bir necha yuzlab pog‘ona tonlar tarzida farklanishi bo‘lishi mumkin; shuningdek yorug‘lik tonlari ham mav-jud yorug‘lik tushayotgan yuzada (silindr yuzasida) bir necha tonlar farqlanishi mumkin; soyalar ham o‘zaro tonlarining farklanishiga qarab xarakterlanadi.

**Tuyg‘un ranglar** – absolyut ranglardan qora kutb tomonga intilgan ranglar.

**Uyg‘unlik (garmoniya)** – qismlar munosabati, tuzilishining go‘zalligi, birlik, yaxlitlik, o‘lchamlilik, rang uyg‘unliganing mujassamliligi. Garmoniya kayfiyatga yoqimli ta’sir qiladi.

**Forma** – jismning umumiy shakliy ko‘rinishi, o‘lcham birliklari, yuzalari va sirtlarining xarakterli tomonlari uning qiyofasi, formasini belgilaydi.

**Havo perspektivasi** – jismlarni kuzatuvchi ko‘zidan uzoklashgai holatida sodir bo‘ladigan rang jihatlari tashqi shakliy ko‘rinishining xiralashuvi, kuzatuvchi va kuzatuv ob’ekti o‘rtasidagi havo qatlamining quyuqlashishi oqibatidagi o‘zgarish.

**Xususiylik** – jismning o‘z sifat jihatlari bilan boshqa jismlardan ajralib turishiga uning xususiyligi deyiladi.

**Shakl** – predmetning o‘ziga xos proporsional, konstruktiv xususiyati, chizma shakllar, geometrik shakllar va hokazo.

**Shaffof** – tiniq narsa, shisha, plastik, suv yoki shu kabi yarqiroq jismlar.

**Eksterer** – binoning tashqi ko‘rinishi.

**Estetika** – san’at va badiiy ijodiyotdagi nafosat, tabiat va hayotdagi go‘zalliklar haqidagi falsafiy ta’limot.

# ORALIQ VA YAKUNIY SAVOLLAR

## 1-Oraliq nazorat savollari

1. Funksiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqlik qanday amalga oshiriladi?
2. Funksiya degani nima?
3. Ijtimoiy mazmunni qanday tushunasiz?
4. Ijtimoiy talablarning shakllanishi?
5. Tarixiy davrlar va kompozitsion usullarga nimalar kiradi?
6. Ijtimoiy mazmun va kompozitsion usullarning bog‘liqligini ko‘rinishlari?
7. Interyerda tabiat elementlarini ishlatilishi?
8. Interyerni tashqi tabiat me’moriy elementlari bilan bog‘lash usuli qanday amalga oshiriladi?
9. Shaharsozlik sharoitlarining ichki makonni, shahar makoni bilan bog‘lashga ta’siri?
10. Qabul qilish hissining tarkibi nimalardan iborat?
11. Analiz degani nima?
12. Kontrast muhit degani nima?
13. Qanday hollarda kontrast muhit yaratiladi va u qanday amalga oshiriladi?
14. Tonus degani nima?
15. Tonusni arxitektura yordamida ko‘tarish yo‘llari?
16. Ijobiy emotsiya nima va u qaysi sharoitlarda paydo bo‘ladi?
17. Me’moriy asarning yaratishdagi qarama-qarshiliklar nimadan iborat?
18. Ichki makon tizimi nima?
19. Ichkariga rivojlanadigan makonning yo‘nalishi?
20. Interyerlarda bo‘ylama rivojlanish nimalardan iborat?
21. Konsentrik rivojlanadigan makonning ko‘rinishlari?
22. Makonning erkin tuzilishi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
23. Murakkab makon deganda nimani tushunasiz?
24. Yaxlit, erkin va ajratilgan makonlari birikish usullari?
25. Ichki makonning birikish usullari nimadan iborat?
26. Makonning mutloq o‘lchovlari bilan kompozitsiyalarning o‘zgarishidagi bog‘liqliklar?
27. Ritmik birikmalar qanday tashkil qilinadi?
28. Kontrast birikmalari qanday tashkillanadi?
29. Kompozitsiyaviy yaxlitlik qanday amalga oshiriladi?
30. Ichki muhitda mavzuning rivojlantirish usullari?

## 2-Oraliq nazorat savollari

1. Insonning Interyerdagi harakati davomida makonni idrok qilish holatlarini aniqlang?
2. Interyerni mazmuni nimadan iborat?
3. Konstruksiyaning funksiyasi nimadan iborat?
4. Makon tuzilishida konstruksiyani tanlash va yo‘nalishini aniqlang?
5. Statik forma nima degani?
6. Interyerda optimal hayotiy sharoit yo‘llari qanday amalga oshiriladi?
7. Sintez degani nima?
8. Dinamik forma deganda nimani tushunasiz?
9. Kontrast birikishlar qanday amalga oshiriladi?
10. Tabiiy materiallardan foydalanish yo‘llari?
11. Sun’iy materiallardan foydalanish yo‘llari?
12. Materiallar xususiyatlari va ulardan foydalanish?
13. Materiallardan Interyerda foydalanishda qo‘yiladigan talablar?
14. Ranglarning xususiyatlari va ulardan Interyerni shakllantirishda foydalanish yo‘llari?
15. Ranglar va ko‘rish xususiyatlaridan Interyerda qanday foydalanadi?
16. Nyuans birikmalar qanday tashkillanadi?
17. Interyerda polixramatik shakllantirish yo‘llari?
18. Tabiiy yorug‘lik nima?
19. Yorug‘likning vazifalari nimalardan iborat?
20. Interyerni yoritishda yondashish usullari?
21. Kompozitsiyaviy yaxlitlik qanday amalga oshiriladi?
22. Jihozlar seriyasini loyihalash uslubi nimadan tashkil topgan?
23. Kompozitsiyaviy markaz qanday ajratiladi?
24. Sun’iy yorug‘likning Interyerni badiiy shakllashtirishdagi ahamiyati?
25. O‘xshashlikni yaratish usullari.
26. To‘plamdan umumiylikni yaratish vositalari?
27. Interyerda stil birligini yaratish talabi?
28. Interyerda ijod qanday qo‘llaniladi?
29. Interyerning masshtabi qanday asosda quriladi?
30. Konstruksiyaning Interyer masshtabini yaratishdagi ahamiyati?

## Yakuniy baholash (YaB) uchun nazorat savollari

1. San'at sintezi Interyerda qanday qabul qilinadi?
2. Uyning xonalarga bo'lish?
3. Turar joylarini funksional zonalash qanday prinsiplarga asoslanadi?
4. Plastik san'atning me'moriy makon bilan bog'lanish yo'llari?
5. Madaniyat saroyi Interyerni qaysi xonalar yechadi?
6. Ichki makonni tashkillantiruvchi kompozitsiyaviy vazifalari nimalardan iborat?
7. Maktabning Interyerini shakllantiruvchi xonalar guruhi nimalardan iborat?
8. Masshtabning sifat tavsifi qanday yaratiladi?
9. Maktab Interyerini loyihalashda quyidagi talablar nimalardan iborat?
10. Rekreatsiya nima. Ularning qanday turlarini bilasiz?
11. Turar joy deganda nimani tushunasiz?
12. Funksiya omili nimalardan iborat?
13. Interyerda yorug'lik yordamida yechiladigan masalalar?
14. Me'morchilikda san'at sintezining turlari?
15. Binolar tipologiyasini mohiyati nimadan iborat?
16. Seksiya jihozlarning tarkibi nimadan iborat?
17. Jamiyat ijtimoiy darajasining turar joylarga ta'siri?
18. Kvartiraning makonini bo'lish asoslari?
19. Uyning asosiy funksiyalari nimalardan iborat?
20. Uylar nimaga asoslanib qanday guruhlarga bo'linadi?
21. Kompozitsiyaviy yaxlitlik qanday amalga oshiriladi?
22. Jihozlar seriyasini loyihalash uslubi nimadan tashkil topgan?
23. Kompozitsiyaviy markaz qanday ajratiladi?
24. Murakkab perimetrli kvartiralarni tashkil etish?
25. Uyning Interyerini tashkil etish etaplari nimalardan iborat?
26. Uy jihozlarining ko'rinishlari?
27. Umumiy xonaning funksional zonalash asoslari?
28. Uy-joy xonalarini yoritish talablari nimalardan iborat?
29. Ichki va tashqi muhitni yorug'lik frontining joylashishga qarab bir-biriga ta'sirining o'zgarishi?
30. Ichki makonning tashqi muhitga qaratilishi bilan xarakterlanadigan bo'linish tizimlarini ifodalab bering?
31. Interyerning tashqi muhit bilan bog'lashda qatnashuvchi kompozitsion elementlarni aytib bering?
32. Qanday materiallar turar joy Interyerlarida ko'proq qo'llaniladi?
33. Rangning Interyerdagi asosiy xususiyatlari va ulardan foydalanish.

34. Ranglarning yig‘indisi muhitini qanday tushunasiz?
35. Rangdan me’moriy kompozitsiyaning elementi sifatida Interyer kompozitsiyasida foydalanish yo‘llari.

## MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARI "INTERYERNI LOYIHALASH" FANIDAN REFERAT MAVZULARI

1. Tarixiy davrlarda me’moriy kompozitsion prinsiplarning rivojlanishi.
2. Ijtimoiy talablar va turar joy binolarining rivojlanishi.
3. Ijtimoiy mazmun va kompozitsiyaning badiiy prinsiplari. Ichki makonni tashkillashtirish prinsiplari.
4. Interyerga insonning psixologok va fiziologik talablari.
5. Shaharning fazoviy tuzilishi – shahar makoni bilan alohida binolar o‘rtasidagi aloqaning shakllanishi.
6. Makon tuzilishining shakllanishi. Ichki makonni tuzish yo‘llari va prinsiplari.
7. Zamonaviy shahar muhitida dizaynni qo‘llash masalalari.
8. Interyerda forma tashkillashuvi. Interyerda tabiiy va sun’iy materiallarni qo‘llash.
9. Rang va yorug‘lik. Interyerda yorug‘lik va ranglarning ahamiyati.
10. Ranglarning xususiyatlari va ulardan Interyerni shakllantirishda foydalanish usullari.
11. Masshtab badiiy vosita sifatida. Interyerda san’at sintezi.
12. Tabiat va Interyerni bog‘lanishida tabiiy elementlardan foydalanish me’moriy qurilma va landshaft.
13. Interyerda rangtasvir va monumental san’at qo‘llanilishining ahamiyati.
14. Vestibyul va foyelarda badiiy usullardan foydalanishning ahamiyati.
15. Turar joy binolarini loyihalashda Interyerlarni funksional zonalashtirishni optimallashtirish.
16. Interyerni jihozlash. Interyerni jihozlashda stil birligi. Tarixiy va zamonaviy amaliyot.
17. Interyerni loyihalashda stil birligining ahamiyati.
18. Interyerda tasviriy san’atning qo‘llanilishida ijtimoiy turmush tarzining ta’siri.
19. Mustaqillik yillarida qurilgan me’moriy qurilmalarning badiiy va ularning ijtimoiy asoslari.
20. Ishlab chiqarish inshootlari Interyerlarining loyihalashda rang yechimi.

## TEST SAVOLLARI

**1. «Shlyuz» so‘zi nimani anglatadi?**
- o‘tish joyi (usti yopiq yo‘lak)
- koridor
- garderob
- sanuzel

**2. «Apartament» deganda nima tushuniladi?**
- Turar joy uyining xonasi
- Turar joy uyining xonadoni
- teatrdagi xizmat xonasi
- garajdagi ma’muriyat xonasi

**3. Sobiq sovet davri arxitekturasidagi Interyerlari qaysi stilga (uslubga) kiradi?**
- minimallashish+funksionallashish
- gotik
- brandermeyer
- barokko

**4. «Interyer» so‘zi nimani anglatadi?**
- binolar ichki muhitini loyihalash
- sanoat binolari muhitini loyihalash
- binolar tashqi muhitini loyihalash
- mebellarni loyihalash

**5. Binolarning ichki muhitini qurish usullarini aniqlashga qaysi termin to‘g‘ri kelmaydi?**
- **e**rkin holda qurilgan muhit
- ichkariga o‘suvchi muhit
- jamlangan holda o‘suvchi muhit
- bir maromda o‘suvchi muhit

**6. Interyerning asosiy tavsifiga quyidagi elementlardan qaysi biri kirmaydi?**
- material va faktura (material sirti)
- shakl
- drapirovka (bezakdor qilib yasantirmoq)
- sun’iy va tabiiy yoritish

**7. Quyidagi ko‘rsatilgan rekreatsiya turlarining qaysisi maktablarga to‘g‘ri kelmaydi?**

- o‘qituvchilar guruhi uchun rekreatsiya
- bir sinf uchun rekreatsiya
- bir guruh uchun sinflar rekreatsiya
- maktab uchun rekreatsiya

**8. O‘quv muassasasi universal rekreatsiyasi deganda nima tushuniladi?**

- galereya
- foye
- ko‘p funksional maqsadda foydalaniladigan zal
- maktabga kirish oldi hovlichasi

**9. Axromatik gammaga qaysi rang kiradi?**

- oq
- ko‘k
- yashil
- oxra (sariq yoki qizil rang)

**10. Quyidagi nomlarning qaysisi bir o‘rinli mehmonxona xonasini bildiradi?**

- dubl
- kvin
- apartament
- studio

**11. Geometrik ornament foydalangan holda xona balandligi ko‘rinishini qanday ko‘paytirish mumkin?**

- vertikal qismlarga bo‘lish orqali
- gorizontal qismlarga bo‘lish orqali
- romb ko‘rinishli ornament orqali
- shaxmat ko‘rinishli bo‘linish orqali.

**12. Odamning ko‘rish sezgilariga «og‘ir» ta’sir qiluvchi xromatik rang qatoriga qaysi rang kiradi?**

- binafsha
- sariq
- yashil
- zarg‘aldoq

**13. Quyidagi geometrik shakl qaysisi turg‘unlik tasavvurini hosil qiladi?**
- kvadrat
- aylana
- uchburchak
- ellips

**14. Interyerda muhitni qanday kuchaytirish mumkin?**
- rang bilan
- shakl bilan
- faktura bilan
- tabiat ko‘rinishlari bilan

**15. Jamoat binolari Interyerida odatda qaysi tabiiy materiallar ko‘p foydalaniladi?**
- yog‘och
- smola
- beton
- granit

**16. Interyer so‘zi qaysi tildan kelib chiqqan?**
- fransuz tilidan
- ingliz tilidan
- nemis tilidan
- rus tilidan

**17. Interyer so‘zi nimani anglatadi?**
- ichkari
- hovli
- bog‘
- dala

**18. Funksiya nima?**
- binoning ichida bajariladigan vazifasi
- Interyerning ijtimoiy asoslari
- binoni konstruksiyasini yechish degani
- binoni elementlarini ishlash degani

**19. Interyerda qanday tabiat elementlari ishlatiladi?**
- suv, o‘simliklar, tabiiy materiallar

- daraxtlar, beton elementlar
- qum, sement, ohak
- tog‘lar, dalalar

**20. Ichki makonni tabiat bilan bog‘lanishining nechta usuli mavjud?**

- 2
- 3
- 4
- 6

**21. Interyerda atrofni qabul qilish qaysi elementlardan iborat?**

- analiz, sintez
- forma, rang
- faktura, forma
- material, rang

**22. Kontrast dam olish sharoitini yaratishda nimalarni hisobga olish kerak?**

- odamlarni yoshga qarab xususiyatlari va mijozini hisobga olish kerak
- rangni hisobga olish kerak
- forma va fakturani hisobga olish kerak
- nafosatni hisobga olish kerak

**23. Forma bu nima?**

- bu funksional mazmunni me’moriy kompozitsiya tiliga o‘tkazish
- bu xonalar o‘lchovining nisbati
- bu ritmik birikish
- bu kontrast birikish

**24. Statik forma nima?**

- makonda muvozanatga keltirilgan forma
- formalarning birikishi
- formaning tavsifi
- xonalar o‘lchovini nisbati

**25. Interyerda plastik forma nima?**

- hissiyot yordamchi aniqlanadigan kelishgan chiroyli forma
- intilishiga undovchi me’moriy forma

- burchakdan aylanaga o‘tadigan forma
- makonda muvozanatga keltirilgan forma

**26. Interyerda qo‘llaniladigan tabiiy materiallarni aniqlang?**
- yog‘och, tosh, granit
- beton, gisht
- plotik, karton
- smolalar, ranglar

**27. Interyerda ishlatiladigan sun’iy materiallarni aniqlang?**
- plastik, karton
- beton, gisht, tosh
- yog‘och, granit
- mramor, tuf

**28. Sovuq materiallarni aniqlang?**
- granit, mramor, metall, tosh
- teri, yog‘och
- bezak fanerasi
- ochiq beton, shishalar

**29. Interyerda ishlatiladigan yumshoq materiallarni aniqlang?**
- teri, yog‘och, bezak fanerasi
- tosh, granit
- gisht, beton
- mramor, tuf

**30. Tabiiy tosh, granit, mramor, g‘isht, shishalar qaysi jamoat binolarida ishlatiladi?**
- vokzallar, bozorlar, magazinlar
- ofislar, internet kafelar
- maktab va bolalar bog‘chalari
- mehmonxona va turbazalar

**31. Rangli iliq tonlari odamning psixologiyasiga qanday ta’sir qiladi?**
- quvvat beruvchi
- xursandlik, issiqlik
- uyg‘ontiruvchi
- **ye**ngillashtiruvchi

**32. Rangni sovuq tonlari odamni psixologiyasiga qanday ta'sir qiladi?**
- tinchlantiruvchi
- uyg'ontiruvchi
- kuvvat beruvchi
- sokinlik kirituvchi

**33. Eng yaxshi neytral ranglarni aniqlang?**
- oq va kulrang
- qizil, ko'k
- sariq, yashil
- qora, moviy

**34. Interyerni eng muhim tashkil etuvchilaridan nima hisoblanadi?**
- ranglar gammasi
- ranglar uyg'unligi
- yorug'lik
- kontrast birikmalar

**35. Ichki makonni idrok qilishning nechta muhim lahzasi mavjud?**
- 3
- 5
- 6
- 2

**36. Masshtab nima?**
- binoning ichki va tashqi elementlarini o'zaro bog'lovchi, uyg'unlashti-ruvchi nisbiy o'lcham
- o'lchovlarni aniqlash
- badiiy obrazni yaratish
- o'zaro nisbatni aniqlash

**37. Me'morchilikda solishtirish nima?**
- bino qismlarini ichki makon bilan va me'morchilikni inson bilan taqqoslash
- me'morchilikni elementlaridan tushgan birikma
- masshtab yordamida obrazni talqin qilish
- badiiy obrazni yaratish

**38. Interyerda san'at sintezi nima?**

• me'morchilik, rangtasvir va skulptura elementlaridan tuzilgan birikma

• ichki makonni o'lchovlari

• anik badiiy obrazni yaratish

• badiiy g'oyani mazmunini aniqlab berish

**39. Madaniyat saroyi Interyerini qaysi katta xonalar yechadi?**

• kirish vestibyul, ochiq foye, tomosha zali

• rekreatsiya, foye

• o'quv xonalari, kabinet

• dam olish joyi, ko'rgazma zali

**40. Vestibyul nima?**

• binoni tashqi muhit bilan bog'lovchi makon

• dam olishni tashkil qiluvchi makon

• o'quvchilar o'ynash joylari

• vertikal kommunikatsiyalar joylashgan makon

**41. O'quv xonalari nimalardan iborat?**

• sinflar, kabinetlar, laboratoriyalar

• vestibyul, tibbiyot xonasi

• foye, rekreatsiya

• palata, dush xonalar

**42. Madaniyat saroyi Interyerida tomoshabinlar dam olish makonini aniqlang?**

• foye

• vestibyul

• rekreatsiya

• bufet

**43. Maktabda bolalar uchun dam olish joyini aniqlang?**

• rekreatsiya

• foye

• vestibyul

• oshxona

**44. Rekreatsiya xonalari nimaga mo'ljallangan?**

• tanaffus vaqtida dam olish uchun

- o‘qishga
- uxlashga
- ovqatlanish uchun

**45. Maktabning Interyeri qaysi asosiy guruhdan yig‘iladi?**
- o‘quv va rekreatsiya xonalari
- bufet va rekreatsiya
- sport zal va rekreatsiya xonalari
- bufet va koridorlar

**46. Interyerda kontrast muhit degani nima?**
- keskin farq qiluvchi dam olish muhitini yaratish
- ichki makonni tabiat bilan bog‘lash
- ichki makonni kompozitsiyaviy tashkillashtirish
- tashqi makon birligini tashkil qilish

**47. Antik me’morchiligida qaysi fazoviy sistema ustunlik qiladi?**
- Bir o‘qlik
- Ko‘p o‘qlik
- monolitlik
- karkaslik

**48. Interyerda qo‘llaniladigan materiallarni qanday bo‘lish mumkin?**
- tabiiy, sun’iy
- yengil, mustahkam
- yumshoq, sovuq
- faktura, rang

**49. Interyerda sun’iy landshaftni yaratish uchun nimalar tashkil qilish kerak?**
- tabiat burchaklarini tashkil qilish kerak
- dam olish joylarini tashkil qilish kerak
- bolalar uchun burchaklar tashkil qilish kerak
- ovqatlanish burchaklarini tashkil qilish kerak

**50. Janub iqlim sharoitida eng birinchi talabni aniqlang?**
- yorug‘lik ustanovkalarini tashkil qilish
- sun’iy landshaftni tashkil qilish
- ichki makonni tashqi dunyo bilan bog‘lash

- shamollatish ehtiyoji

**51. Monoxramatik gamma nima?**
- bir bo‘yoq atrofida tanlangan ranglar toni
- har xil rangni  qo‘shilgan toni
- obrazni talqin qiluvchi ranglar
- ranglar uyg‘unligi

**52. Axromatik gamma nima?**
- yorug‘lik bo‘yicha bir makonga teng keladigan kul rang
- yorug‘lik bo‘yicha sariq rang
- ikki rangni qo‘shilishi
- bir rang turlicha ko‘rinishi

**53. Ranglar uyg‘unligi necha guruhdan iborat?**
- 2
- 5
- 3
- 4

**54. Nyuans birikmalar qanday tashkil kilinadi?**
- ranglarni bir-biriga yaqinlashishiga asoslangan birikmasi
- qarama-qarshi qo‘yilgan  ranglarning birligi
- sovuq va iliq raglarni birga ishlatilishi
- bo‘linib tashlangan gamma

**55. Polixromatik bu nima?**
- ko‘p ranglilik
- bir ranglilik
- uch ranglilik
- oq ranglilik

**56. Interyerda buyumlar nechta o‘lchovga ega?**
- 3
- 5
- 4
- 2

**57. Interyerda buyumlar o‘lchovini aniqlang?**
- eni, balandligi, chuqurligi

- uzunligi, yaqinligi
- uzoqligi, o‘xshashligi
- kattaligi, kichikligi

**58. Interyerda shimol tomonga chiqadigan xonalarga qanday ranglar ishlatilishi kerak?**

- to‘q sariq, qizil, sariq
- Ko‘k, yashil, sariq
- qora, oq, kulrang
- oq, ko‘k, sariq

**59. Interyerda janub tomonga chiqadigan xonalarga qanday ranglar ishlatilishi kerak?**

- Ko‘k yashil, havo rang
- sariq, qizil, qora
- oq, ko‘k, to‘q sariq
- kul rang, malla, qora ranglar

**60. Buyumning formasi qanday bo‘lishi mumkin?**

- simmetrik, asimmetrik
- tabiiy, sun’iy
- katta, kichik
- keng, tor

**61. Interyerda qaysi ranglar «uzoq» ko‘rinadi?**

- Ko‘k, yashil
- qora, ko‘k, qizil
- hamma issiq ranglar
- binafsha, sariq

**62. Jamoat binolari Interyerida quruq ko‘rinadigan ranglar guruhini aniqlang?**

- oq, sariq, to‘q sariq, qizil, qora
- Ko‘k, yashil, och malla, oq
- sariq, och malla, oq
- kul rang, qora, oq

**63. Jamoat binolari Interyerida ho‘l, nam ko‘rinadigan ranglar guruhini aniqlang?**

- Ko‘k, havo rang, yashil

- hamma yengil ranglar
- oq, sariq, to‘q sariq, qizil
- binafsha, qizil, sariq

**64. Ko‘rsatilgan ranglar ichida «yaqin» ko‘rinadigan ranglarni aniqlang**

- sariq,  qizil, to‘q sariq
- Ko‘k, yashil, binafsha
- malla, qora, kul rang
- binafsha, yashil rang

**65. Rang inson ruhiyatiga ta’siri ostida emotsional o‘zgarish sodir bo‘ladimi?**

- rang kishi faoliyatida asosiy boshqaruv kuchga ega
- sodir bo‘lmaydi
- fakat ko‘z qabul qilib, uni tezda unutadi
- ranga nisbatan loqaydlik sodir  bo‘ladi

**66. Jamoat binolari Interyerida stol, parta, doska qaysi binolarda ishlatiladi?**

- litsey, maktab, kollej
- choyxona, bozor, restoran
- magazin, bozor, restoran
- turbaza, bolalar bog‘chasi

**67. Jamoat binolari xonalarida toza rang deb qaysi ranglarni aytish mumkin**?

- yorug‘langan spektr ranglar
- qizil, yashil, qora, oq
- sariq, malla
- hamma ranglarni aralashmaganlari

**68. Shlyuz deganda nimani tushunasiz?**

- yo‘lak, dolon
- koridor
- garderob
- sanitariya tuguni

**69. Apartament degani nima?**

- hashamatli uyning yotoqxonasi

- turar joy binosidagi kvartira
- teatr binosining xizmatchi xonasi
- garaj ichidagi ma'muriyat xonasi

**70. Sovet davridagi arxitekturada Interyer qaysi uslubga daxldor?**
- minimalizm+funksionalizm uslubi
- gotik uslubi
- brandermeyer uslubi
- barokko uslubi

**71. Antik stil qaysi binolarning Interyerida koʻproq ishlatilgan?**
- muzey, biblioteka, banklar
- gostinitsa, turbaza
- maktablar, litseylar
- restoran, bar va oshxonalar

**72. Sharqona uslub qaysi binolarning Interyerida ishlatilgan?**
- Savdo zallarida, hammom va machitlarda ishlatilgan
- muzey, bibliotekalarda
- sanoat binolarida ishlatilgan
- turar joy binolarida ishlatilgan

**73. Interyerda shakllar tuzilmasini nimalar anglatadi?**
- derazalar, suratlar, kirish joylari
- mebellar, suratlar, haykallar
- qurilish elementlari, konstruksiya TAYANCHlari
- kiyimlar, oyoq kiyimlar, idish-tovoqlar

**74. Nimalar Interyerda kuchma shakllarga kiradi?**
- mebellar, suratlar, jihozlar
- kiyimlar, oyoq kiyimlar, idish-tovoqlar
- Devorlar, kirish joylari
- ustunlar, kollonalar

**75. Interyerda aylana va shar nimalarning ramzi hisoblanadi?**
- birlashganlik, toʻxtovsiz harakat, butun jaxonni (vselennaya)
- goʻzallik kuchi, toʻgʻrilik
- osoyishtalik, abadiylik, qudratlilik
- vazminlik, torlik, bezovtalik

**76. Binolar Interyerida kvadrat nimaning ramzi hisoblanadi?**
• qudratlilik, saltanat, abadiylik
• dunyo, quyosh, hayot
• birdamlilik, go‘zallik
• vazminlik, torlik, bezovtalik

**77. Xonaning shifti past bo‘lsa odamga qanday ta’sir qiladi?**
• og‘irlik hissi, torlik hissi, bezovtalik xavotirini
• balandlikka intilish hissini
• bosh ustidagi fazoning ko‘pligi hissini
• yengillik, erkinlik, kenglik hissini

**78. Xonaning shifti baland bo‘lsa odamga qanday ta’sir qiladi?**
• bosh ustidagi fazoning ko‘pligi hissini
• torlik, xavotirlik hissini
• og‘irlik, bezovtalik hissini
• balandlikka, kenglikka intilish hissini

**79. Xonaning xira yoritilganligi odamga qanday ta’sir ko‘rsatadi?**
• xavotirlanish va g‘amginlik hissini
• hayajonlanish va tetiklik hissini
• Xursandlik va quvnoqlik hissini
• tez xarakatlanish va qichqirishga intilish hissini

**80. Xonaga tushgan charaqlagan kuyosh nuri odamga qanday ta’sir ko‘rsatadi?**
• quzg‘alish va tetiklik hissini
• yig‘lash intilish hissini
• xavotirlik va bezovtalik hissini
• uxlashga intilish hissini

**81. Xajmiy shakl nimasi bilan tavsiflanadi?**
• moddiy belgisi bilan
• fazoviy muhiti chegaralanmaganligi bilan
• moddiy emasligi bilan
• ko‘rinmasligi bilan

**82. Interyerni yaratish nima bilan farq qiladi?**
• tashqi muhitga nisbatan mustaqil holatda ekanligi bilan
• rangi bilan

- sifat jixatdan takrorlanmasligi bilan
- o‘lchovlari bilan

**83. Ichki muhitni tashqi muhit bilan qanday boglash mumkin?**
- tashkil etilgan ochiq muhitlar orqali;
- katta maydonlar qo‘shish bilan
- kichik arxitekturaviy shakllar orqali
- **e**shik va deraza orqali

**84. Interyerning jismoniy jixatdan chegaralashishi nimani nazarda tutadi**?
- odam jismoniy o‘lchamni hisobga olishni
- konstruksiyalardan foydalanishni
- plastik bo‘lmagan elementlardan foydalanishni
- hech narsani nazarda tutmadi

**85. Modern uslubida necha turdagi dekor (bezak) foydalanilgan?**
- 2
- 3
- 5
- 4

**86. Zamonaviy arxitekturada to‘siq sifatida dekorning qaysi asosiy turi ishlatiladi?**
- qurilish materiallari va konstruksiyalari imkoniyatlari
- ornament
- orderlar tizimi
- deraza shishalari

**87. Teatr foyesi bitta tomoshabinga qancha maydon to‘g‘ri keladi?**
- 0,6
- 0,3
- 1,5
- 1,0

**88. Oliygoh auditoriyalari xonalarining bitta talabaga to‘g‘ri keladigan me’yoriy maydonni ko‘rsating?**
- 0,5
- 1,0

- 1,5
- 2,0

**89. Maktabning asosiy xonalarini ko‘rsating.**
- sinf, kabinet
- rekreatsiya
- biblioteka
- sport zali

**90. Issiq ranglarni ko‘rsating.**
- qizil, sariq
- yashil, havorang
- binafsha, ko‘k
- oq, qora

**91. Oshxonada qaysi ranglarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi?**
- sovuq
- issiq
- qora
- oq

**92. Qaysi ranglar qorishmasi yordamida axromatik ko‘rinishga erishiladi?**
- kul rang bilan qora
- qizil bilan ko‘k
- binafsha bilan sariq
- oq bilan qora

**93. Yorug‘lik qurilmalari necha turga bo‘linadi?**
- 3
- 4
- 5
- 2

**94. Yarim ochiq muhit deganda nima tushuniladi?**
- muhitning bir tarafi ochiqligi
- muhitni hamma tarafi yopiqligi
- muhitning ikki tarafi ochiqligi
- muhitning uch tarafi ochiqligi

**95. Fazoviy shakl nimalardan iborat bo‘ladi?**
- shaklning ichiga olingan geometrik aniqlangan fazoviy hajm
- to‘silgan tekisliklar barchasidan
- ko‘rinib turgan to‘silgan tekisliklar yig‘indisidan
- hamma tarafidan ko‘ringan shakl

**96. Interyerda muhiti qancha turga bo‘linadi?**
- 3
- 5
- 2
- 4

**97. Interyerda ko‘p muhit deganda nima tushuniladi?**
- bir xona muhitini
- bir qator xonalar muhiti o‘tish joyi bilan birgalikda
- bir qator xonalar muhiti
- katta xajmdagi xona muhiti

**98. Interyerda bir muhitlik qancha xususiyatlarga ega?**
- 5
- 7
- 4
- 6

**99. Muhitni bir qarashda qanchata elementini ko‘ra olish mumkin?**
- 3+2
- 7+2
- 5+2
- 2+2

**100. Muhitni alohida boshqa-boshqa vaqtlarda qaraganda qancha elementlarni ko‘ra olish mumkin?**
- 3+2
- 7+2
- 5+2
- 2+2

## INTERYERNING RANG YECHIMI BO‘YICHA FOYDALI MASLAHATLAR

Xonangizni rang yechimini to‘g‘ri tanlash uchun quyidagi eslatmaga amal qilsangiz zarar qilmaysiz:

1. Devorlari ochargan bo‘yoqlarda ishlov berilgan xona keng va baland bo‘lib ko‘rinadi.
2. Devorlar to‘q, kontrast ranglarda ishlov berilgan xona torayib ko‘rinadi.
3. Devorlarga qaraganda ochroq bo‘yoqlarda bo‘yalgan ship baland bo‘lib ko‘rinadi.
4. Vertikal naqshli oboylar xonani baland ko‘rsatadi.
5. Xonadagi mavjud matolar (pardalar, gardinalar, mebel matolari, abajurlar) devorlar bilan kontrastlashgan tonlarda bo‘lsa, xona jonli, quvnoq ko‘rinishda bo‘ladi.

- Agar bolalar xonasida yorqin va kontrast ranglar yechimida bo‘lsa, keksalar xonasi yumshoq tinchlantiruvchi nyuans tonlarda bo‘lish maqsadga muvofiq. Psixologlar odamlarni to‘rtta monotiplarga ajratganlar: melanxolik, sangvinik, flegmatik va xolerik. Bu monotiplarning har biri o‘ziga xos ranglarni qabul qilish mijozi bo‘ladi. Masalan: milonxoliklar - havo rangni, sangvinlar – sariq rangni, flegmatiklar – yashil rangni, xoleriklar – qizil rangni xush ko‘radilar.
- Ranglarni qabul qilishda intellekt katta rol o‘ynaydi. Intellekt qancha yuqori bo‘lsa, nozik, nyuans ranglari birikmalarini xush ko‘radi.
- Interyerga rang tanlashda assotsiativ rang majmualaridan foydalanish mazmunli natija berishi mumkin. Masalan: bahor fasli ranglari – nozik, yorug‘, iliq, pushti rang (shaftoli guli rangi va hokazo), orombaxsh, tinchlantiruvchi ranglar; yoz fasli – yashil, yorug‘, issiq, sarg‘ish, kishini tinchlantiruvchi, qalbni mavjlatiruvchi ranglar; kuz – oltin, zarg‘aldoq, sarg‘ish issiq ranglar. Kishiga quvnoqlik, jo‘shqinlik bag‘ishlovchi. Qish – sovuq, ko‘kish ranglar. Kishiga tinchlantiruvchi, zerikarli kayfiyat bag‘ishlovchi kabilar.
- Interyer rangini tanlashda xonaning formasi va balandligini hamda uning yorug‘lik darajasini hisobga olish lozim.
- Interyerda umumiy rang uyg‘unligini yaratishda, masalan, Interyerning umumiy rangi gammasiga jihozlar, pardalar ranglarini tanlashda palitradan foydalanish, ya’ni xona rangi tanlanib, unga fon sifatida boshqa rang dog‘larini qo‘yish bilan uyg‘unlashgan ranglar majmuasini aniqlash.
- Interyerda o‘ta yorqin va to‘q (masalan: qizil, yorqin binafsha, yorqin yashil ranglarni ishlatilishi tavsiya etilmaydi, chunki yorqin ranglar tez asabni charchatadi va psixik koordinatsiyasini ishdan chiqaradi).

- Spektrda bir-biridan uzoqda joylashgan noqulay ranglar (nekomfortnыe sveta) (masalan yorqin binafsha va to‘q sariq) asabga teguvchi taassurot ko‘rsatadi.
- Rang tonlarini yorqinligini pasaytirishda kulrang yoki qora ranglardan foydalanish yaxshi natija beradi.
- Oshxonada yorqin zarg‘aldoq, mebellar ranglari devorlarning ko‘kish-kulrang fonida quvnoq, bardamlashtiruvchi muhit yaratadi. Shu ranglarni ochartirsa (shaffof qum rangi va ochargan havo ranglar) bahralantiruvchi orombaxsh ranglar hosil bo‘ladi.
- Kichik xonalarda qoraygan o‘ta yorqin ranglar va katta shaklli oboylar ishlatilsa xona hajmi kichrayib ko‘rinadi. Kichik xonada ochargan (pastel tonlariga xos) ranglar ishlatilsa aksincha kengaygan yoqimli tuyuladi.

## *INTERYERDA USLUB (STIL) YARATISH HAQIDA*

Interyerni loyihalashda ma’lum bir stil tanlash uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Ma’lum bir stilni tanlagandan so‘ng uni asliga o‘xshatish, ya’ni o‘ziday yaratishga harakat qilmang, buni iloji bo‘lmaydi.
2. Stil yaratayotgan Interyer funksiyasiga yoxud bu jamoa binosi yoki ma’lum shaxs turar joyi bo‘lmasa, uning turmush tarziga va didiga mos bo‘lishi kerak.
3. Stilni nafaqat jihozlar balki Interyerning me’moriy fazosi hamdir.

## *ZAMONAVIY INTERYERNING ASOSIY FUNKSIYALARI*

**Uyqu zonasi:** uyqu bizning organizmimizni sog‘lom bo‘lishligini ta’minlaydi. Shuning uchun bu zona turli tovush va psixikaga ta’sir etadigan ko‘rinishlardan ortiqcha yorug‘lik kabilardan chegaralangan (izolyatsiya qilingan) bo‘lishi lozim. Eng qulayi alohida xona bo‘lgani ma’qul. Yotish uchun mebel turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan: 200x70-90-120-140-160-180 sm. Konstruksiya bo‘yicha krovat statsionar yoki ko‘chma (transformatsiyalanuvchi) bo‘lishi mumkin. Shuningdek, universal bo‘lishi, ya’ni divan – krovat, kreslo-krovat. Bu holda ko‘rpa-to‘shakni saqlash uchun maxsus tumba (sandiq) bo‘lishi kerak.

Bolalar xonasida joyni iqtisod qilish uchun ikki yarusli, norvonchali krovat ishlatish ham maqsadga muvofiqdir.

Uyquxona (yotoqxona) da qo‘shimcha krovat oldi tumbalari yoki polkalar, choyshablar uchun tumba – sandiqcha, pardoz stoli, banketka, stul va hokazo. Har bir krovat uchun uning yonlarida yurish uchun joy qoldirilishi lozim. Krovat iloji boricha oynaga parallel joylashtirilishi va quyi tomondan unga bemalol yaqinlashish uchun ko‘proq joy bo‘lishi kerak.

## *DAM OLISH JOYI*

Dam olish joyida odam uchun kitob, gazeta oʻqishi, televizor koʻrishi, suhbat qilishi va hokazo uchun imkoniyat yaratilgan boʻlishi kerak. Divan-kreslo, televizor, stellajlar, shkaflar, polkalar, bar, pastak stollar, stol yoritgichi, bra, torsher, polga qoʻyiladigan yoritgichlar, boshqa xonalardan holi qilish, ya’ni izolyatsiyalash uchun surilma devor ham boʻlishi mumkin.

## *SHAXSIY XONA*

Shaxsiy xonada kishi dars qilishi, professional faoliyat yurgizishi, ijod qilishi va hokazo kabilar bajariladi. Shuning uchun bu yerda diqqat e’tibori ma’lum fikrga toʻplanishi lozim. Demak, bu xona tovushdan va boshqa chalgʻituvchi hollardan ajratilgan (izolyatsiyalangan) boʻlishi, xona yaxshi yoritilgan boʻlishi lozim.Unga taalluqli narsalar yaqinroqda joylashgan boʻlishi kerak. Bu xonada ish (rabochiy) stoli, chizma stollari, kulman, molbert, pionino va hokazo jihozlar joylashishi mumkin. Barcha jihozlar kishining antropometrik oʻlchamlariga mos, ergonomik talablar doirasida boʻlishi kerak.

## *OSHXONA*

Oshxona loyihalashda albatta oila a’zolarining soni, yoshi, ish rejimi, oddiy va bayram kunlari tinch, osoyishta oʻtirib ovqatlanishini hisobga olishni taqozo qiladi. Bunda oshxona uchun qulay jihozlar, shkaflar, bufet, turli yoritgichlar, ovqatlanish stoli va qulay stullar boʻlishi va ular iloji boricha qulay va ovqat tayyorlash joyiga joylashishi lozim.

## *SANUZEL (YUVINISH VA HOJATXONA)*

Loyihalashda qator talablarni e’tiborga olinadi. Bu yerda inosn uchun yetarli darajada qulayliklar yaratilishi lozim. Birinchidann u yer toza boʻlishi, yuvishga qulay boʻlishi, ya’ni kafellangan boʻlishi, jihozlar iloji boricha silliq va antropometrik talablarga javob berishi lozim. Jihozlardan vanna, dush xonasi, yuvinish jomi (умыvalnik), unitaz va bide, oyna, maxsus yoritgich kabilar boʻlishi lozim. (Vanna oʻlchamlari 170, 180, 190, 200 sm boʻlishi mumkin). Forma jihatdan ular turlicha boʻlishi (aylana, oval sifatda, uchburchak, beshburchak, toʻgʻriburchak va hokazo). Ularni tanlashda xona gabaritidan kelib chiqiladi. Xonada oyna tagi polkasi shkafcha, sochiq osish va saqlash joyi, sovun qutisi, tish щyotkalari uchun stakanchalar mavjud boʻlishi lozim. Qariyalar uchun qoʻshimcha jihoz va qurilmalar boʻlishi mumkin.

## *MAISHIY XIZMAT XONASI*

Hozirgi dizaynerlar bunday ishlar, ya’ni kir yuvish, dazmollash uchun alohida xona ajratadilar, chunki bu yerda xona harorati oshishi va ortiqcha hid, bug‘lar hosil bo‘ladi. Aynan shu xonada turli buyumlar, ortiqcha xo‘jalik buyumlari, inventar, idish-tovoq, oziq-ovqat mahsulotlari saqlanishi mumkin. Bu xonada talabga nisbatan jihoz tanlanishini taqozo qiladi.

## TOPSHIRIQLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

### 1. Yuqori texnologiyalar injener-texnika institutining 1-laboratoriya binosi







*Talablar:* 1. Vestibyul, xoll va faollar zali Interyeri ishlab chiqilsin:

A) Bu zal va xonalarning planida jihozlar joylanishi ko‘rsatilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

B) Interyeri ishlangan xona yoki zallari devorlarining yoyilmasi ishlab chiqilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

V) Interyerning rang yechimi bo‘yicha obrazli eskiz (sodda sxema bo‘yicha) yaratilsin;

G) Interyeri ishlangan xona yoki zallar boshqa rakurslardan ham Interyeri ishlab chiqilsin (eskiz holatda, ya’ni chiziqlarda);

D) Laboratoriya xona va kabinetlarining o‘zaro aloqadorlik sxemasi ishlab chiqilsin;

Ye) Laboratoriya binosini o‘quv binosiga moslab chiqing. (Bunda xona va kabinetlar eksplikatsiyasini qayta tuzish talab qilinadi);

J) Laboratoriya binosi fasadiga dizayn jihatdan o‘zgartirishlar kiritilsin (buni qisman yoki chiziqli holda ham bajarish mumkin);

Z) Interyerda san’at va arxitektura sintezini qo‘llang;

I) Interyerga badiiy kichik formalar kiriting;

K) Interyerda tashqi muhit bilan uyg‘unlik yarating;

L) Interyerda tabiiy materiallar ishtirokida Interyerni boyiting.



1-qavat



2-qavat



3-qavat



4-qavat



5-qavat

## 2. “Barkamol avlod” markazining o‘quv binosi






1-qavat



2-qavat



3-qavat

Talablar: 1. Vestibyul, xoll va faollar zali Interyeri ishlab chiqilsin:

A) Bu zal va xonalarning planida jihozlar joylanishi ko‘rsatilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

B) Interyeri ishlangan xona yoki zallari devorlarining yoyilmasi ishlab chiqilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

V) Interyerning rang yechimi bo‘yicha obrazli eskiz (sodda sxema bo‘yicha) yaratilsin;

G) Interyeri ishlangan xona yoki zallar boshqa rakurslardan ham Interyeri ishlab chiqilsin (eskiz holatda, ya’ni chiziqlarda);

D) Markaz xona va kabinetlarining o‘zaro aloqadorlik sxemasi ishlab chiqilsin;

Ye) Markaz binosini Yoshlar markazi yoki Bolalar Ijodiyoti markazi binosiga moslab chiqing (Bunda xona va kabinetlar eksplikatsiyasini qayta tuzish talab qilinadi);

J) Markaz fasadiga dizayn jihatdan o‘zgartirishlar kiritilsin (buni qisman yoki chiziqli holda ham bajarish mumkin).

Z) Interyerda san’at va arxitektura sintezini qo‘llang;

I) Interyerga badiiy kichik formalar kiriting;

K) Interyerda tashqi muhit bilan uyg‘unlik yarating;

L) Interyerda tabiiy materiallar ishtirokida Interyerni boyiting.



## 3. Tibbiyot markazi va dorixona

Talablar: 1. Vestibyul, xoll va faollar zali Interyeri ishlab chiqilsin:

A) Bu zal va xonalarning planida jihozlar joylanishi ko‘rsatilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

B) Interyeri ishlangan xona yoki zallari devorlarining yoyilmasi ishlab chiqilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

V) Interyerning rang yechimi bo‘yicha obrazli eskiz (sodda sxema bo‘yicha) yaratilsin;

G) Interyeri ishlangan xona yoki zallar boshqa rakurslardan ham Interyeri ishlab chiqilsin (eskiz holatda, ya’ni chiziqlarda);

D) Tibbiyot markazi xona va kabinetlarining o‘zaro aloqadorlik sxemasi ishlab chiqilsin;

Ye) Tibbiyot markazi binosini Klinika yoki Poliklinikaga moslab chiqing (bunda xona va kabinetlar eksplikatsiyasini qayta tuzish talab qilinadi);

J) Tibbiyot markazi fasadiga dizayn jihatdan o‘zgartirishlar kiritilsin (buni qisman yoki chiziqli holda ham bajarish mumkin).

Z) Interyerda san’at va arxitektura sintezini qo‘llang;

I) Interyerga badiiy kichik formalar kiriting;

K) Interyerda tashqi muhit bilan uyg‘unlik yarating;

L) Interyerda tabiiy materiallar ishtirokida Interyerni boyiting.

## 4. Samarqanddagi Choyxona binosi





Talablar: 1. Vestibyul, xoll va faollar zali Interyeri ishlab chiqilsin:

A) Bu zal va xonalarning planida  jihozlar joylanishi ko‘rsatilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

B) Interyeri ishlangan xona yoki zallari devorlarining yoyilmasi ishlab chiqilsin(1:50 yoki 1:100 masshtabda);

V) Interyerning rang yechimi bo‘yicha obrazli eskiz (sodda sxema bo‘yicha) yaratilsin;

G) Interyeri ishlangan xona yoki zallar boshqa rakurslardan ham Interyeri ishlab chiqilsin (eskiz holatda, ya’ni chiziqlarda);

D) Choyxona xona va zallarining o‘zaro aloqadorlik sxemasi ishlab chiqilsin;

Ye) Choyxona binosini Oshxona yoki Restoranga moslab chiqing. (bunda xona va kabinetlar eksplikatsiyasini qayta tuzish talab qilinadi);

J) Choyxona binosi fasadiga dizayn jihatdan o‘zgartirishlar kiritilsin (buni qisman yoki chiziqli holda ham bajarish mumkin).

Z) Interyerda san’at va arxitektura sintezini qo‘llang;

I) Interyerga badiiy kichik formalar kiriting;

K) Interyerda tashqi muhit bilan uyg‘unlik yarating;

L) Interyerda tabiiy materiallar ishtirokida Interyerni boyiting.

## 5. Jomboydagi 2-maktab binosi





Talablar: 1. Vestibyul, xoll va faollar zali Interyeri ishlab chiqilsin:

A) Bu zal va xonalarning planida jihozlar joylanishi ko‘rsatilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

B) Interyeri ishlangan xona yoki zallari devorlarining yoyilmasi ishlab chiqilsin(1:50 yoki 1:100 masshtabda);

V) Interyerning rang yechimi bo‘yicha obrazli eskiz (sodda sxema bo‘yicha) yaratilsin;

G) Interyeri ishlangan xona yoki zallar boshqa rakurslardan ham Interyeri ishlab chiqilsin (eskiz holatda, ya’ni chiziqlarda);

D) Maktab xona va kabinetlarining o‘zaro aloqadorlik sxemasi ishlab chiqilsin;

Ye) Maktab binosini Bolalar bog‘chasiga moslab chiqing. (Bunda xona va kabinetlar eksplikatsiyasini qayta tuzish talab qilinadi);

J) Maktab binosi fasadiga dizayn jihatdan o‘zgartirishlar kiritilsin (buni qisman yoki chiziqli holda ham bajarish mumkin);

Z) Interyerda san’at va arxitektura sintezini qo‘llang;

I) Interyerga badiiy kichik formalar kiriting;

K) Interyerda tashqi muhit bilan uyg‘unlik yarating;

L) Interyerda tabiiy materiallar ishtirokida Interyerni boyiting.

## 6. Samarqand shaharlararo Telefon Avtomatik Stansiyasi(ATS) binosi





Talablar: 1. Vestibyul, xoll va faollar zali Interyeri ishlab chiqilsin:

A) Bu zal va xonalarning planida jihozlar joylanishi ko‘rsatilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

B) Interyeri ishlangan xona yoki zallari devorlarining yoyilmasi ishlab chiqilsin (1:50 yoki 1:100 masshtabda);

V) Interyerning rang yechimi bo‘yicha obrazli eskiz (sodda sxema bo‘yicha) yaratilsin;

G) Interyeri ishlangan xona yoki zallar boshqa rakurslardan ham Interyeri ishlab chiqilsin (eskiz holatda, ya’ni chiziqlarda);

D) ATS xona va kabinetlarining o‘zaro aloqadorlik sxemasi ishlab chiqilsin;

Ye) ATS binosini O‘quv binosi yoki Ma’muriy binoga moslab chiqing (bunda xona va kabinetlar eksplikatsiyasini qayta tuzish talab qilinadi);

J) ATS binosi fasadiga dizayn jihatdan o‘zgartirishlar kiritilsin (buni qisman yoki chiziqli holda ham bajarish mumkin);

Z) Interyerda san’at va arxitektura sintezini qo‘llang;

I) Interyerga badiiy kichik formalar kiriting;

K) Interyerda tashqi muhit bilan uyg‘unlik yarating;

L) Interyerda tabiiy materiallar ishtirokida Interyerni boyiting.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Ranneev B.R. Interyer. Moskva. Vыsshaya shkola 1987.
2. Lisitsian M.V., Novыkova Ye.B, Petunina Z.V. Interyer obщestvennыx zdaniy. Moskva. Stroyizdat 1973.
3. Ponomareva Ye.S Interyer i oborudovanie grajdanskix zdaniy. Minsk «Vыsshaya shkola»1976.
4. Zaporojes A.V. «Vospriyatie i deystvie». M.1976.
5. Aronin J.E. Klimat i arxitektura. M.1959.
6. Arxitektura proektirovanie obщestvennыx zdaniy. Moskva.1995.
7. Interyer obщestvennыx zdaniy. Pod red. Pojarskoy A.E. Gosstroyizdat.1963.
8. Barxin G.B. Metodika arxitekturnogo proektirovanie. Moskva Stroyizdat. 1993.
9. Gidion Z. Prostranstvo-Vremya-Arxitektura. Moskva. Stroyizdat.1973.
10. Kirillova L.I. Pokravskiy I.A. Rojin I.V. Kompozitsiya v sovremennoy arxitekture. Moskva. Stroyizdat.1973.
11. Savchenko V.V. Mnogofunksionalnыe zreliщnыe i sportivnыe zalы. Izd. vo. «Budilnik» 1979.
12. Ponomareva Ye.S. Svet v Interyere. Minsk. «Vыsshaya shkola». 1984.
13. 13.Frimet G. «Chelovek, svet, prostranstvo». M.1973.
14. Gusev N.M. Svetovaya arxitektura. Moskva. 1978.
15. Shvidkovskiy O.A. Garmoniya vzaimodeystviya. Arxitektura monumentalnoe isskustvo. Moskva. Stroyizdat.1984
16. Minkavichyus I.K. Interyer i monumentalno-dekorativnoe isskustvo. Moskva.1974.
17. Stepanov G.P. Kompozitsionnыe problemы sinteza iskusstvo. Leningrad.1984.
18. Zinger B.I. Vstroennoe oborudovanie dlya jilыx zdaniy. M. Stroizdat. 1984 g.
19. Mebel i oborudovanie dlya obщestvennыx zdaniy. M. Gosstroizdat. 1980. g.
20. Dizayn SShA. Prospekt k mejgosudarstvennoy vыstavke v SSSR, 1989.
21. Silvestrova S.A. «Proektiruem to, chto xotim prodat» // Texnicheskaya estetika, 1986, № 6.
22. Sovremennaya arxitektura. – 1971, № 3. Per. s frans. «l architecture d aujourd hui», 1971, № 155.
23. Lazarev Ye.N. Dizayn: ot formы veщi do duxa cheloveka // Dizayn dlya vsex. Almanax, 1992, № 1.
24. Yermakova T. Pervaya ochered Moskovskogo metropolitena //Texnicheskaya estetika, 1967, № 1.
25. Bezmozdin L.N. V mire dizayna. – Tashkent: Fan, 1990.

26. Ustinov A.G. Svet v proizvodstvennoy srede. – M., 1967. – V nadzag.: VNIITE.
27. Ginzburg M.Ya. Ritm v arxitekture.-M.: Gostroyizdat, 1925.-123 s.
28. Deribere M. Svet v deyatelnosti cheloveka.-M.: Stroyizdat, 1964.- 183 s.
29. Ikonnikov A.V., Stepanov G.P. Osnovы arxitekturnoy kompozitsii.-M.: Iskusstvo, 1971.-223 s.
30. Krinskiy V.F., Lamyov I.V., Turkus M.A. Elementы arxitekturno-prostranstvennoy kompozitsii. - M.: Stroyizdat, 1968.
31. Minkavichyus I.K. Interyer i monumentalno-dekorativnoe iskusstvo.-M.: Stroyizdat, 1974.
32. Jurnal «Mir dizayna», S.-Pb., 1997-.
33. Jurnal «Interyer+dizayn»
34. www.interiorsdesign.ru
35. www.whitehills.ru
36. www.akastroy.ru
37. www.rosbri.ru
38. www.arhio.ru
39. www.novate.ru

**O‘quv qo‘llanma**

Xakberdiev A.M.

# INTERYERNI LOYIHALASH

Subscribe to print 13/09/2024. Format 60×90/16.
Edition of 300 copies.
Printed by “iScience” Sp. z o. o.
Warsaw, Poland
08-444, str. Grzybowska, 87
info@sciencecentrum.pl, https://sciencecentrum.pl



ISBN 978-83-68188-12-7